Til – dil tarjimoni
O'zbek xalq maqoli

1991-yildan chiqa boshlagan

2020-yil. 7-son.

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiy

AVLONIY ZIYOSI

Maktab ko'ngilni zulmat-u g'amdan qilur xalos,
Maktab kalidi, ochquchidur bobi rohatin...
Maktab dilingga solg'usi ilm-u funumni,
Maktab ziyoda qilg'uchidur aql-u hikmating...

3-bet



Toshkent shahridagi "Adiblar xiyoboni"da ulug' ma'rifatparvar Abdulla Avloniy xotirasiga qo'yilgan haykal.

Ushbu sonda

Dolzarb mavzu

Ta'lim mazmunini takomillashtirish: o'quv dasturi va darsliklar — 5-bet

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

O'quvchi nutqi – milliy til ko'zgusi — 20-bet

Tadqiqotlar

Zamonaviy mediada fakt-cheking platformalarining o'rni va ahamiyati — 42-bet

Языкознание

О некоторых наблюдениях над особенностями русского субстандарта — 63-bet

Гоф 17527

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2020- IKKINCHI YARIM YILLIK UCHUN OBUNA BO'LISHGA SHOSHILING

Obuna indeksi 872

Aziz jurnalxonlar! Yangi yilda ham biz bilan hamfikr bo'ling!

Mazkur jurnal orqali Siz ona tili va adabiyot, davlat tili, qardosh hamda xorijiy tillar, shuningdek, milliy va jahon adabiyoti bo'yicha ta'limdagi eng sara yangi metodikalar, dolzarb muammolar, tadqiqotlar hamda innovatsion g'oyalar bilan tanishish barobarida o'z ilg'or tajribalaringizni ham ommalashtirish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Ishonchimiz komilki, jurnal kasbiy malakangizni muntazam ravishda oshirib borish va, albatta, kasbingizning yetuk mutaxassisi bo'lishingizda beminnat ko'makchi bo'ladi! Shunday ekan, 2020-yilda o'z sevimli nashringiz uchun obuna bo'lishga shoshiling!

С новым учебным годом, уважаемые читатели!

Журнал «Преподавание языка и литературы» многие годы помогает вам узнать о самых современных методах обучения языку и литературе, об актуальных проблемах, исследованиях и новаторских идеях в области родного, государственного языка и иностранных языков, а также узбекской, русской и мировой литературы. Благодаря этому изданию вы делитесь своим передовым опытом с учителями всех регионов Узбекистана. Мы уверены, что журнал поможет вам в повышении профессионального мастерства и в новом году. Не забудьте подписаться на свое люби-мое издание на 2020 год!

Jurnal ruknlari:

- Dolzarb mavzu
- Akademiklar suhbati
- Adiblar maktabi
- Metodik tavsiya
- Dars – muqaddas
- Teaching English
- Ilg'or pedagogik texnologiyalar
- Adabiy taqvim
- Beshta muhim tashabbus
- Tadqiqotlar
- Tahlil
- Kichik tadqiqot
- Tarjimashunoslik
- Ta'til bilmas saboqlar
- To'garak mashg'ulotlari

Наши рубрики:

- Актуальное слово дня
- Методика. Опыт
- Литературоведение
- Языкознание
- Методические рекомендации
- Проблемы. Поиски. Решения
- Инновационные технологии
- Научные исследования
- Изучаем иностранные языки
- Мастерство перевода
- Духовное наследие
- Зарубежная литература
- Свет негаснущих имен
- Культура речи и общения
- Внеклассное мероприятие

Manzil: 100083, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. **Obuna indeksi – 872.**
Tel.: (+998) 71-233-03-10, 233-03-67, 233-03-45; **e-mail:** til_adabiyot@umail.uz **Veb-sayt:** www.tilvaadabiyot.uz
Telegram: t.mi/til_adabiyot_talim **Facebook:** https://facebook.com/tilvaadabiyot.talimi

КНИГА ЧУЛПАНА НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ



Николай Дмитриевич Ильин



Ташкентское издательство «Mashhurpress» при финансовой поддержке общественного фонда «Ижод» опубликовало на русском языке поэтический сборник узбекского поэта Чулпана «Мгновения любви» – первую масштабную работу по переводу стихотворений уникального узбекского поэта. Перевод осуществлен членом Союза писателей Узбекистана, поэтом **Николаем Ильиным.**

В роковых для выдающихся деятелей узбекской культуры 30-х годах прошлого века творчество поэта было под запретом, его стихотворения не издавались, не переводились и не изучались. Русскоязычная аудитория практически не знакома с его творчеством.

Поэтический сборник «Мгновения любви» подготовлен для восполнения этого пробела. В него вошло около пятидесяти стихотворений Чулпана, среди которых такие известные его произведения, как «Прекрасная», «Фиалка», «Желание утешиться», «Мгновения любви», «К осеннему цветку», «Душа», «Народ» и др.

Составители книги объединили переведенные стихотворения в несколько рубрик, характеризующих тематическое разнообразие произведений Чулпана: «Дорога моего края» (стихи о Родине), «По любимым следам» (любовная лирика), «По весне моя грусть» (стихи о природе) и «Моя душа» (жизненная позиция автора).

Рассмотреть весь объем представленного материала в сопоставлении оригинала и перевода невозможно, остановимся на переводе наиболее известного стихотворения «Прекрасная» (приводим отрывок из него), которое считается визитной карточкой поэзии Чулпана. Оно удивительно мелодичное, в конце каждой строфы есть повторяющаяся строка, которую поэт видоизменяет исходя из содержания строфы, не меняя при этом ритма и рифмы. Сложность перевода этих строк заключается в использовании поэтом чередования открытого и закрытого слога. Кроме того, в узбекском языке нет согласования второстепенных частей предложения по главному слову, нет родов, что создает дополнительное удобство для сохранения внутренней и внешней рифмы. В переводе на русский язык именно это создает трудности при сохранении внутренней и внешней рифмы, ритмики и особого стиля стихотворения.

ГЎЗАЛ	ПРЕКРАСНАЯ
Қоронғу кечада кўкка кўз тикиб,	*Мой взгляд в темноте к небесам устремив,*
Энг ёруғ юлдуздан сени сўраймен.	*У яркой звезды я спросил про тебя.*
Ул юлдуз уялиб, бошини букиб,	*Она, от смущенья глаза опустив,*
Айтадир: «Мен уни тушда кўрамен.	*Сказала: «Во сне ее видела я.*
Тушимда кўрамен, шунчалар гўзал,	*Была в этом сне так прекрасна она,*
Биздан-да гўзалдир, ойдан-да гўзал!..»	*Прекрасней, чем звезды, светлей, чем луна!..»*
Кўзимни оламен ой чиққан ёққа,	*Взглянул я туда, где луна восстает,*
Бошлайман ойдан-да сени сўрмоққа,	*И тот же вопрос обратил уже к ней.*
Ул-да айтадирки: «Қизил яноққа	*Ответ был: «Во сне я встречала ее,*
Учрадим тушимда, кўмилган оққа.	*Румяную, в белом потоке лучей.*
Оққа кўмилганда шунчалар гўзал,	*Она в бликах света так виделась ясно –*
Мендан-да гўзалдир, кундан-да гўзал!..»	*Прекрасней луны и, как солнце, прекрасна!»*

Перевод получился успешным. Вопрос о возможности идентичности поэтического перевода оригиналу – спорный. Стопроцентная передача текста наравне с адекватным выражением его идейно-смыслового состава, стилистикой и художественной формой в переводе просто невозможна. Перед переводчиком вставала задача воссоздания не только смыслового содержания, но и формы стихотворения, стилистики текста, образов. Надо отдать должное переводчику – эта непростая задача была им в целом решена. Русские читатели смогут по достоинству оценить бесценное наследие выдающегося поэта узбекской литературы XX века.

Думается, что данный сборник будет началом масштабного перевода произведений Чулпана на русский язык.

Рисолат ХАЙДАРОВА,
член Союза писателей Узбекистана

"YILNING ENG YAXSHI FAN O'QITUVCHISI – 2019"

GULG'UNCHA MIRZAYEVA,
Andijon viloyati Marhamat tumanidagi 47-IDUMning oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi, Xalq ta'lim a'lochisi, "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi – 2019" ko'rik-tanlovining 3-o'rin sovrindori.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 7-son.

Bosh muharrir
Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:
Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Nilufar Namozova
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:
Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:
Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:
100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2020.25.07. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Times" garniturasi. 10, 11 kegl. OOO "ECO TEXTILE PRODUCT" босмахонасида чоп этилди. Манзил: Тошкент ш., Учтепа т., Катта Хирмонтепа ва Ширин кўчалари чорраҳаси кесишмаси, 47 "А"уй. Буюртма №: 194/С. Адади: 3000.

MUNDARIJA

ADABIY TAQVIM
Bahodir KARIM. Avloniy ziyosi 3

DOLZARB MAVZU
Aziza SAYDULLAYEVA. Ta'lim mazmunini takomillashtirish: o'quv dasturi va darsliklar....5
Feruza DARMONOVA. Adabiy ta'limdagi muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha mulohazalar ...7

MULOHAZA
Safo MATCHONOV. Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg'unligi....8

METODIK TAVSIYA
Ruqiya ASHURBAYEVA. Ona tili fanini o'qitishda integrativ yondashuv....12
N.JURAYEVA, H.IBROHIMOVA, R.YAXSHIBOYEVA. N.MADAMINOVA "ng" harf birikmasi elektron bazasini tuzishda klassifikatsiyalash va sistemalash muammolar 14
Mukarramxon MULLABOYEVA. Shakldosh so'zlar....15
Mokhira JURAEVA. Improving students' polilogic speech skills in round table discussions....18

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR
Dildor NURMUHAMEDOVA. O'quvchi nutqi – milliy til ko'zgusi 20
Xolbibi QURBONOVA. Til ta'limida kompetensiyaviy o'qitish 22

TAHLIL
Nafosat ZIYATOVA. O'tkir Hoshimov asarlarida qo'llangan Ismlarning asardagi vazifasi 24
Ra'no TOBAROVA. Ona tili darslarida o`zbek badiiy nutqi zoonimlarini o`rganish 25
Marvarid NURBAYEVA. Alisher Navoiy asarlarida farzand tarbiyasi 27
Uzoq JO'RAQULOV. Lirik shoirning epik qamrovi 28
Odina ABOBAKIROVA. O'zbek bolalar hikoyachiligining janr xususiyatlari 31
Feruza IKROMXONOVA. Tarixiy asarlarning tarixiy-qiyosiy tipologiyasi 33
Ziyoda QARSHIBOYEVA. Eski dardning yangi ovozi 35

TADQIQOTLAR
Nigina NE'MATOVA. Murakkab sintaktik qurilmalar haqida ba'zi mulohazalar 37
Anvar IBAYEV. Komparativistika muammolarining nazariy asoslari xususida ayrim mulohazalar 39
Parvina OMONOVA. Zamonaviy mediada fakt-cheking platformalarining o'rni va ahamiyati 42
Nurjamol NORMATOVA. Talabalarda xorijiy til og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning psixolingvistik asoslari 44
Iroda PARDAYEVA. "Tarixi muluki Ajam" masnaviysi – hakimona tafakkur mahsuli 46

KICHIK TADQIQOT
Otabek ISMATULLAYEV. Ertak terapiyasi asosida aqli zaif bolalar muloqotini rivojlantirish 48

ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ – 2020
Еркин ЖЕКСЕНБАЕВ. Описание быта и традиций старой махалли в повести Г.Гуляма «Озорник» 49

МЕТОДИКА. ОПЫТ
Альмира АБУТАЛИПОВА. Узбекская литература второй половины XX–начала XXI века. Обзор литературного процесса. Саид Ахмад. «Бунт невесток» 51
Аль-Мария БАБАРАХИМОВА. Интерактивные методы на занятиях по русскому языку....53

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ
Шахло БОТИРОВА. Об обучении студентов филологии основам анализа и литературным терминам 58

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ
Сауле ТУРЛАНОВА. Применение тренировочных упражнений на занятиях по русскому языку в узбекских группах вуза....59
Тахмина МАНСУРОВА. Предмет, задачи и проблемы методики русского языка в национальной школе 60

ЯЗЫКОЗНАНИЕ
Евгений МАЛИНОВСКИЙ, Муштари РУЗИЕВА. О некоторых наблюдениях над особенностями русского субстандарта....63
Камила ХАСАНОВА. Иноязычные заимствования в узбекском языке 65
Вероника МЯКОТА. Транслитерация арабских антропонимов на русский язык 66

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ
Навруз МАДАЛОВ. Методические рекомендации по обучению иностранному языку взрослых 69

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ
Рубен НАЗАРЬЯН. Литературная мистификация в рассказе А.Н.Толстого «Портрет»....71
Виктория ПУЛАТОВА. Несколько слов о природе и композиции мультикультурного романа ...73

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Светлана ИМ. Значимость морфонологических явлений при изучении русского языка носителями агглютинирующих языков....75
Еркин КЕНЕНБАЕВ. Невербальные средства коммуникации в социальных сетях Интернета...76

СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН
Анатолий ЛИХОДЗИЕВСКИЙ. «Истина человека – то, что делает его человеком»....79

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING *jurnali*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA va PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.



Coursera platformasida jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlarining 430 ta yo'nalishlar bo'yicha 3800 turdagi o'quv kurslari mavjud. Xalq ta'limi tizimidagi 50 ming nafar xodim, o'qituvchilar va yuqori sinf o'quvchilarining ana shu kurslar da bepul ta'lim olishi uchun imkoniyat yaratildi.

Xalq ta'limi vazirligi hamda Coursera tashkiloti (AQSh) hamkorligida Coursera Workforce Recovery dasturi doirasida ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatib kelayotgan xodimlar, umumta'lim maktablari o'qituvchilari va yuqori sinf o'quvchilari uchun bepul onlayn o'quv kurslari tashkil etilmoqda.

Aksariyat kurslar va mutaxassisliklarda talim olish odatda obuna asosida oyiga 39-79 AQSh dollarini tashkil etadi. Onlayn kurslar ingliz yoki rus tillarida olib boriladi.

Dastur doirasida maktab bitiruvchilari va yuqori sinf (10-11-sinflar) o'quvchilarini kelajakda kasbga tayyorlashda qo'shimcha zarur bilimlarni egallashlari uchun Coursera platformasida mavjud foydali kurslar ro'yxati shakllantiriladi hamda ular bo'yicha onlayn ta'lim olishlari ta'minlanadi

Qayd etilishicha, Coursera onlayn kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan mamlakatimiz o'qituvchi va o'quvchilari xalqaro miqyosda tan olingan sertifikatlarga ega bo'lishlari hamda bu orqali qo'shimcha daromad topishlari mumkin.

Ushbu sertifikat dunyoning rivojlangan davlatlarida, xususan, AQSh, Kanada, Avstraliya va ko'plab Yevropa mamlakatlarida tan olinadi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasining o'qituvchisi Shahnoza Mustanova Moskva davlat Xalqaro munosabatlar institutining (MGIMO) Biznes va xalqaro ko'nikmalar maktabida "Yozma va og'zaki tarjima amaliyoti" dasturi bo'yicha 6 oylik kasbiy tayyorgarlik kursini muvaffaqiyatli tamomlab, o'z malakasini oshirdi va tarjima amaliyoti bo'yicha xalqaro darajadagi mutaxassis diplomiga ega bo'ldi.

Bu yilgi yosh ijodkorlarning Zomin seminari koronavirus pandemiyasi sabab "Zoom" dasturi orqali onlayn tarzda o'tkazildi.

Dasturga muvofiq, yosh ijodkorlar alohida sho'balarga bo'lingan holda badiiy publitsistika, badiiy tarjima, nazm va nasr bo'yicha seminarlarda ishtirok etdilar.

Taniqli ijodkor, adabiyotshunos olimlardan iborat ishchi guruh a'zolari qatnashchilarning asarlarini saralab, onlayn mahorat saboqlarini berdilar.



Xorijliklarga ona tilimizni o'rgatuvchi yangi "O'zbekona" darsligi xorijiy tilni egallashning umumyevropa kompetensiyalari tizimiga asosan **A1** darajani egallash imkonini beruvchi darslik bo'lib, u 9 ta bo'lim, 3 ta nazorat bloki, audiolar va qo'shimcha materiallar kabi qismlardan iborat. Ushbu yangi darslik Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti **Gulruxsor Ergasheva** va universitet talabalarining "Mo'tul" jamoasi tomonidan Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi Saodat Adilova ilmiy rahbarligida yaratildi. Kitob xorijiy til o'qitishning o'qib tushunish, tinglab tushunish, gapirish, yozish ko'nikmalarini to'laqonli qamrab olgan.

Pandemiya sharoitida Xalqaro kimyo olimpiadasi 25-iyul kuni masofaviy tarzda o'tkazildi. Unda dunyoning 60 davlatidan jami 235 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Yurtimizdan saralangan iqtidorli o'quvchilar qatnashib, kumush va bronza medali sohiblari bo'lishdi.

M. Do'stmuhamedova tayyorladi.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori, professo

AVLONIY ZIYOSI

O'zbek jadid allomalarining hayot yo'li, ijtimoiy faoliyati ibratli, so'zlari hikmatli. Millat va Vatan, ma'rifat va ma'naviyat ularning dardi, qayg'usi, amali va a'moli edi. Ular shu el-yurt istiqboli uchun dard chekdi, qayg'urdi, g'amga botdi, o'yga toldi. Ular yangi usul ta'lim maktablari ochib, farzandlarni savodli qildi, fikrini o'stirdi, dunyoni tanitdi. Ular teatrda tamoshalar qo'yib, ijtimoiy, maishiy muammolarni sahnaga ko'chirdi va o'sha "ibratxona" oraqali olamga ibrat nazari bilan qarashni tashviq qildi. Adabiy asarlarida kundalik turmush muammolarining adabiy manzaralarini aks ettirdi. Shunday ishlar bilan mashg'ul bo'lgan mo'tabar jadid allomalar qatorida Abdulla Avloniy ham bor.

Abdulla Avloniy (1878–1934) Toshkent shahrining Mergancha mahallasida tug'iladi. O'z zamonasi bolalari qatori avval eski maktabda, keyin madrasada ta'lim oladi. Uning hayoti va ijod yo'li barcha maslakdoshlari kabi turli-tuman va serqirra. O'z e'tirofiga ko'ra, yoshligida hunar o'rganadi; "g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari" bilan shug'ullanadi. Turmush tashvishlarining naq ichida yashaydi. Eng muhimi, bo'lajak adib zamona yangiliklariga qiziqadi. Yangi usuldagi maktab ochib bolalarga ta'lim beradi. Muallimlikdan tashqari keyinchalik u matbuotchi, adib, jamoatchi, elchi, jurnalist sifatida taniladi. 1907-yili "Shuhrat" gazetasini chiqaradi. Gazetaning o'nta soni chiqar-chiqmas ta'qiqqa uchraydi. 1913-yili "Turon" teatr truppasini tuzadi. Sahnada o'zi rollar ijro etadi, ya'ni mushaxxis-aktyorlik ham qiladi.

Hayotdan olgan saboqlarini sahnaga, badiiy asarlariga ko'chiradi. Uning "Hijron" tahallusi bilan e'lon qilgan she'rlarida da'vatkorlik, yaxshilikka chaqiruv, jaholatni qoralash ohanglari kuchli. Jumladan:

Yaxshi birla yursa, har kim maqsudi hosil bo'lur,
Yursa nodonlar ila, bir kun borib qotil bo'lur.
Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,
Oqibat xulqi buzuq bir beadab johil bo'lur.

Shoirning axloqiy dasturi shunday. Avloniyning bir necha juzdan tarkib topgan "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" majmuasi o'z vaqtida shuhrat topdi; maktablarda o'qitildi. Uning she'rlarida ma'rifatparvarlik, jadidona g'oyalar, xususan, ilm-ma'rifatni ulug'lash mavzusi yetakchi o'rinda turadi. She'rlarini shunga mos "Maktab", "Maorif nadur", "Jaholatdan nafrat", "Ilm ahvolindan bir manzara", "Ilmga targ'ib", "Ilm" kabi nomlar bilan atadi. "Maktab" she'rida yozadi:

Maktab ko'ngilni zulmat-u g'amdan qilur xalos,
Maktab kalidi, ochquchidur bobi rohating.
Maktab dilingga solg'usi ilm-u fununni,
Maktab ziyoda qilg'uchidur aql-u hikmating...

Maktabning martabasini, maorif haqiqatini, ilm-ma'rifat qiymatini va muallim hurmatini adib shu toifa she'rlarida ta'riflab maqtaydi

Avloniy fikricha, ilm barcha xursandliklar uchun ma'dan, barcha fazl-u karamlar manbayidir. Ilmsizlar uchun jahonning keng ayvoni torlikka aylanadi, ilmsizlarga butun "dard-u alam yor" bo'ladi, ilmsiz odam tirikchilik yo'llarida adashadi. "Ilm – ikki jahon shavkatining barposi". "Ilm – bir nuri ziyo", uning jilosi ketmaydi. Ilm nuri odamni aziz qiladi, ilmli xor-u zor bo'lmaydi. Shoir o'z qalamiga xitob qilib yozadi:

Ayo ey sohibi urfon! Vatan bog'inda faryod et!
Otib tashla arodin eski odatlarni, barbod et!
Maorif-la funun tahsilina qil rahnamolig' san,
Qarong'uda qolan millatni nuri ilma irshod et!

Ilm nuri, ilm manfaati, ilm yo'li, ilm saodati – bular shoir nazmida juda ko'p takrorlanadi. Abdulla Avloniy ilmni ulug'lab yana yozadi: "Ilm inson uchun g'oyayi oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni qilich kabi o'tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To'g'ri yo'lga rahnomolik qilub, dunyo va oxiratda mas'ul bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur...". Darhaqiqat, ilm inson qalbiga sayqal beradi, ma'naviy-ruhiy dunyosini yoritib go'zallashtiradi. Insonni ulug'laydi. "Ilm" so'zi oddiy o'qish-yozishdan tortib, cheksiz koinotning haqiqatini, insondek murakkab xilqatning mohiyatini anglash, bilish kabi qator tushunchalarni o'zida jamlaydi. Garchi ilmga mohiyat e'tibori bilan diniy va dunyoviy tarzda tasnif berilsa ham, ular orasida, aynan inson ma'naviyatiga aloqadorligi jihatidan, ziddiyat yo'q. Aksincha, biri ikkinchisini to'ldiradi, mukammallashtiradi. Qora bulut quyoshning yuzini qoplab, nurlarini to'sib olgandek, jaholat, xurofot va bid'at ham haqiqat yog'dusini xiralashtiradi. Oydin tushunchalar rangini qoraytiradi. Teran fikrlarni mujmallashtiradi

Abdulla Avloniy insonga badan tarbiyasi bilan birga fikr tarbiyasi muhimligini aytadi. Yaxshi tarbiya olgan odamning fikri quvvatli, ziynatli va keng bo'ladi. "Fikr oynasi"ni zang bosadigan bo'lsa, ruhi nursizlanadi.

Abdulla Avloniy she'rlarida yor, gul, bulbul, yil fasllari – bahor, yoz, kuz, qish kabi obrazlar uchraydi. Ammo ularning mazmuni, mohiyati an'anaviy mumtoz she'riyatdagi ramzlarga nisbatan farq qiladi. Jadid shoirlari nazmidagi obrazlarning yangicha mazmun kasb etganiga diqqat qaratgan jadid munaqqidi Vadud Mahmud yozadi: "Bu shoirimiz ham oshiqdur, ma'shuqasi xalqdur, millatdur. Millat va xalqiga muhabbati uning ishqidur... Uning bu hayajonlari yasama emasdur, chindur, tabiiydur. U ko'z yoshi to'ksa, millat uchun to'kadur,

birovdan xafalansa, millat holiga boqmagani uchun xafalanadur. Birovdan xursand bo'lsa ham millati, xalqi uchun bo'ladur". Samarqandlik jadid shoir Sidqiy Ajziy munosabati bilan aytilgan bu fikrlar Avloniy ijodiga ham mos keladi. Zero Abdulla Avoniy ham eski va yangi davr, eski va yangi adabiyot rishtalarini bog'lovchi ijodkor edi. U ham qadimiy sharq she'riy shakliga o'z ijtimoiy-adabiy qarashlarini olib kirgan va shu yo'l bilan millatni ilm-ma'rifatga, o'zligini anglashga, umuman, ma'nan uyg'oq bo'lishga chorladi. Abdulla Avloniylar avlodini adabiyotshunos Abdurahmon Sa'diy va'z-nasihatlar yozgan "o'gitchi shoirlar" deb atagan edi. Umumiy birlikka erishish, millat va el-yurtni yuksaltirish, o'quv va maktab-maorif ishlarini rivojlantirish, ilm va hunarni targ'ib etish, iqtisodiy va ma'naviy ahvolni yaxshilab, madaniy jihatdan taraqqiy qilish – "o'gitchi shoirlar" qalbidagi ezgu niyatlar edi. Shu bilan birga Abdulla Avloniy qatoridagi shoirlar haqida A.Sa'diy XX asrning 20-yillarida: "Ular XV asrning tili, uslubini, shaklini, vaznini XX asrda biroz yengillashdiraroq davom ettirdilar", deb yozdi. Bu fikrda ham asos bo .

Jadid shoirlari o'tgan asr avvalida turk shoirlariga ergashdi, fuzuliyona nazmiy mashqlarini taqdim etishdi. Shuning uchun ham Avloniy she'rlarida "Maskani firdav bog'indan xabar berganlaring", "Har darding o'lur chorasi, har yig'layan o'lmaz", "Bunlaring turmushlari bir darsi ibrat go'starur" kabi fuzuliyona misralar kuzatiladi. Shuningdek, "bola", "bor", "yig'lasin", "ko'rsat", "ayladi" kabi o'nlab so'zlar o'rni bilan "jo'juq", "vor", "og'lasun", "go'star", "aylayur" singari muqobili aralash qo'llaniladi. Bunga o'xshab "shevada Fuzuliy yo'lini tutgan" holatlari Avloniylardan o'tib, Cho'lponning ayrim she'rlarida ham davom etdi. So'ngra to'xtadi. Fikrda uyg'onish va millat fikrini uyg'otish, badiiy adabiyot – she'riyat tilini yangilash, yangicha adabiy shakllarni sinab ko'rish barcha jadid adiblari, jumladan, Avloniy ijodiga ham xos xususiyat sanaladi. Dunyo adabiyoti namunalariga mos roman va hikoya janri, shu bilan birga dramatik asarlar ham jadid adabiyoti negizida maydonga keldi. Behbudiyning "Padarkush"idan keyin Nusratulla Qudratulla, Abdulla Qodiriy, Hoji Muyin, Hamza Hakimzoda Niyoziylar o'z dramalari bilan maydonga chiqdi. Adabiyotshunos Shuhrat Rizayev "Jadid dramasi" kitobida "o'zbek jadid dramaturgiyasining shakllanish davrida nisbatan ko'p pyesalar yozgan musanniflardan" biri sifatida Abdulla Avloniy faoliyatiga alohida urg'u beradi. [1:117–122] Darhaqiqat, Abdulla Avloniy "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Biz va Siz", "Portugaliya inqilobi" kabi dramalar yozgani, sahnada rollar ijro etgani, rejissorlik qilgani ma'lum.

Avloniy jadid adiblari qatori hayotga, ijtimoiy tuzumdagi o'zgarishlarga umid bilan qaraydi. Shuning uchun ham yangi sho'ro hukumatining topshirig'i bilan 1919–1920-yillarda Afg'onistonda bosh konsul bo'lib ishlaydi. Biroq uning faoliyati uzoqqa cho'zilmaydi. Chorizm bilan bolsheviklarni qiyoslaydi va orada deyarlik farqni ko'rmaydi. "Afg'on sayohati"ning bir sahifasida afsus bilan:

Dunyo kezdim, ko'bni ko'rdim, hech haqiqat
ko'rmadim,
Hurriyat nomin eshitdim, lek adolat ko'rmadim...
Qayda borsang g'olibi mag'lubni aylar poymol,
Marhabo, ey hurriyat, sandan muruvvat ko'rmadim, –

deb yozadi. Ko'p orzu-umidlari ro'yobidan ko'ngli qolgan Avloniy Afg'onistondan qaytgach, xususan, 20-yillardan keyin o'zini muallimlikka urdi. Matbuotdagi chiqishlari nisbatan kamayganini sezgan Abdulla Qodiriy kulgi yo'sinda: "Abdulla Avloniy – bir mahal garmisar tegib, kutulmagan joyda qorakosov bo'lib qoldi. Hozir o'choq kavlashdan boshqag'a yaramaydir" [2:245], deb yozdi.

Biroq Abdulla Avloniy o'zbek millatining bir ziyolisi bajarishi mumkin bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni bajardi. Xususan, uning millat tarbiyasi bobida qayg'urib, Sa'diy Sheroziyning axloqiy risolalariga havaslanib "Turkiy Guliston yoxud axloq" nomli didaktik ruhda yozgan asari shuhrat topdi. Avloniyning "tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur" degan hikmati aynan yuqorida nomi aytilgan kitobidan olingan.

Milliy til va milliy adabiyotga urg'u berib yozadi: "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur... O'zi bilgan-bilmagan turli tillarning so'zlarini "aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur". Rost gap.

"Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati, vijdonning halovati halim tabiat bilan hosil bo'lur. Chunki halim kishilar har qancha quvvat va qudrat sohibi bo'lsa ham, o'zidan ojiz kishilarga shiddat ila muomala qilmas. Fikri salomat kishilarning qalbi halim, tab'i karim bo'ladi". Tarbiya bobida bunday hayotiy hikmatlar, Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislari, dunyo allomalarining aforizmlari bilan to'yintirilgan Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari hamon o'z qadr-qimmatini saqlab keladi.

Gohida jadidlarning bir xildagi fikrlari nashrlardan nashrlarga, kitoblardan kitoblarga, maqolalardan maqolalarga ko'chib yuradi. Holbuki, bu adiblar ijodiy merosidan ko'chirma olishga va, eng muhimi, olingan ko'chirmalar hikmatiga amal qilishga arziydigan mulohazalar ko'pchilikni tashkil etadi. Abdulla Avloniy asarlari fikrimizga dalil bo'ladi. Avloniy fikriga ko'ra, eng afzal xulqlardan biri "nazari ibrat", ya'ni dunyodagi har narsaga ibrat ko'zi bilan qarashdir. Olamga ibrat ko'zi bilan qaramagan odam haqiqat nurlaridan bebahra qoladi. Jumladan, o'tgan ajdodlarning ma'naviy mulkiga, Abdulla Avloniydek adiblar ijodiga ham aynan bugun ibrat nazari bilan qarash lozim. Shunda haqiqat zuhur etadi, shunda ma'rifat nuridan ko'ngillar yorishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Rizayev. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997.
2. Abdulla Qodiriy. 3-jild. Diyori bakr. – Toshkent: "Info Capital Group" nashriyoti, 2017.

Aziza SAYDULLAYEVA,
Samarqand shahridagi 24-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH: O'QUV DASTURI VA DARSLIKLAR

Bugun ta'limga kirib kelayotgan yangiliklar – xalqaro PISA dasturi va STEM yondashuv talablari ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlansa-da, pedagog va o'quvchilar tomonidan qabul qilinishini oson kechadi deb bo'lmaydi.

Bunda darhol oldimizda bir qancha savollar ko'ndalang bo'lishi tabiiy: ona tili darslik kitoblarining mazmun doirasi qay darajada? Jahon ta'lim standartiga javob bera oladimi? Ona tili darslik kitoblarining deyarli barchasida mavzular bo'yicha qoidalar nazariy bilimlar asosida yoritilgan bo'lsa-da (ular ham ba'zilari to'liq emas), ularni dalillovchi aniq misollar bilan to'ldirilmagan. Masalan, **5-sinf ona tili darsligida[1] (90-bet) olmosh so'z turkumiga shunday ta'rif berilgan: "Ot, sifat, son va boshqa so'zlar o'rnida qo'llanib, ularga ishora qiluvchi so'zlar olmosh deyiladi".**

Xo'sh, endi ayting-chi, nima uchun o'quvchilarimiz aynan olmosh va ravish so'z turkumlarini yillar davomida anglashi, ajratishi qiyin bo'ladi? Sababi oddiy. Bu mavzular darslik kitoblarida aniq va keng yoritilmagan. Nazariyani asoslovchi dalillar to'liq keltirilmagan. Holbuki, **olmoshga 7-sinf ona tili darsligida[2] (18-bet) "Barcha mustaqil so'z turkumlari, so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llanuvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar olmosh hisoblanadi"** deb to'g'ri ta'rif berilgan, ammo har bir keltirilgan fikrga dalillovchi misollar berilmagan. Namuna: 1. Olmosh ot o'rnida kelgan: ***Sobir*** *ertalab uxlab qoldi. Shuning uchun* ***u*** *darsga kechikib keldi.* 2. Sifat o'rnida kelgan: *Men* ***yangi*** *kitob sotib oldim.* ***Bu*** *kitob menga juda yoqdi.* 3. Son o'rnida: *Bog'imizda* ***15 tup*** *mevali daraxtlar bor. Anvarlarning bog'iga ham* ***shuncha*** *mevali daraxt ko'chatini o'tqazdik.* 4. Fe'l o'rnida: *Karim gullarni* ***uza boshladi****.* ***Bu*** *esa bog'bonning jahlini chiqardi.*[3] 5. Ravish o'rnida kelgan: *Salima matnni* ***juda tez*** *o'qidi. Madina ham* ***shunday*** *o'qidi.* 6. So'z birikmasi o'rnida kelgan: ***Abror Azizovning ma'ruzasi*** *juda ta'sirli bo'ldi.* ***Bu ma'ruza*** *butun jamoani oyoqqa turg'izdi.* 7. Gap o'rnida kelgan: *Orzum* ***shuki, ota-onam uzoq umr ko'rsin.***

Darslik kitoblarda berilgan barcha nazariy ma'lumotlar, har bir fikr aniq misollar bilan yuqoridagi kabi asoslab berilsa, mavzu ham o'quvchiga to'liq holicha yetib boradi. Yuqorida keltirilgan kamchiliklar bartaraf etilmas ekan, o'quvchilarimiz savodsizligicha qolib ketaverdi. Bugungi davr talabi ham aynan ana shu savodsizlikka barham berish. Buning uchun o'quvchilarda o'qish savodxonligini oshirish lozim. **"O'qish savodxonligi"** tushunchasi bugungi kunda nafaqat matnni to'g'ri o'qiy olishni anglatadi, balki bu matn mazmunini o'quvchi ongiga singdirishni ham talab etadi. Buning uchun darslikdagi ilmiy-nazariy ma'lumotlarni o'quvchilarga ko'r-ko'rona yod oldirish bugungi davr talabiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Bugun biz jahon ta'lim standartiga javob bera oladigan o'quvchini shakllantirishimiz lozim. O'quvchi matn bilan ishlaganda har bir gap, har bir so'zning ma'nosini chuqur anglashi, mohiyati, uning nima sababdan qo'llanganini tushunishi kerak. Shundagina o'quvchidan go'zal nutq sohibini shakllantira olamiz. Shunday amaliyot orqali o'quvchilarda bayon yozish, insho yozish malakalarini shakllantiramiz, rivojlantiramiz.

Yana darslikka qaytadigan bo'lsak, olmosh so'z turkumini o'rganguncha o'quvchi barcha mustaqil so'zlar bilan tanish bo'lishi kerak. Jumladan, ravish bilan ham. Darslik kitobda esa olmosh so'z turkumi ot so'z turkumidan keyin berilgan.

5-sinf ona tili darsligida (101-bet) ravish so'z turkumiga shunday ta'rif berilgan: Qanday?, qancha?, qachon? so'roqlariga javob bo'lib, harakatning holati, o'rin, payt, sabab, daraja-miqdorini bildirgan so'zlar ravish sanaladi. Ravish so'z turkumi bilan birinchi bor tanishgan o'quvchida shu ma'lumot bir umr saqlanib qoladi. 6-sinf ona tili darsligida[4] esa (177-bet) ravishga shunday ta'rif berilgan: **Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarni bildiruvchi va qanday?, qachon?, qayer (-ga, -da, -dan)? singari so'roqlarga javob bo'luvchi so'zlar ravish deyiladi.** O'quvchi, avvalo, kitobga tayanadi va ishonadi (o'qituvchining gapidan ham ko'ra). Shuning uchun o'qituvchiga o'quvchi ongida ravish haqida to'liq ma'lumotni singdirish ancha qiyinchilik tug'diradi. O'qituvchi bergan ma'lumotni 30% o'quvchi anglashi mumkin. Qolgani-chi? Darslikdagi ma'lumot bilan cheklanadi, albatta.Ularga bu mavzuni singdirish uchun bir soat darsning o'zi kifoya qilarmikan? Albatta, yo'q. 5-sinfdan o'quvchilarga ravish haqida iloji boricha oddiy va tushunarli chizmalar asosida to'liq ma'lumot berilishi va har bir fikr misollar bilan ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan: **Harakatning bajarilish holati, o'rni, payti, daraja-miqdori, maqsad-sababini bildirgan so'zlar ravish deyiladi. Ravishlar qanday?, qay tarzda?, qay holda? (holat); qayerda?, qayerga?, qayerdan? (o'rin); qachon? (payt); qancha? (daraja-miqdor); nima maqsadda?, nima uchun? (maqsad); nega?, nima uchun?, nima sababli? (sabab) kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan:**

1. Ravshan maktabga **tez (qanday?)** bordi. *(Holat ravishi)*
2. Ravshan maktabga **orqa tarafdan (qayerdan?)** bordi. *(O'rin ravishi)*
3. Ravshan maktabga **ertalab (qachon?)** bordi. *(Payt ravishi)*
4. Ravshan maktabga **ko'p (qancha?)** bordi. *(Daraja-miqdor ravishi)*
5. Ravshan maktabga **atayin (nima maqsadda?, nega?)** bordi. *(Maqsad ravishi)*

6. Ravshan maktabga **noilojlikdan (nima sababli?, nega?)** bordi. *(Sabab ravishi)*

Darslik kitoblardagi har bir mavzu bo'yicha berilgan nazariy ma'lumotlar yuqorida ko'rsatilgani kabi aniq va to'liq holda misollar asosida berilgandagina o'quvchilar mavzuni oson o'zlashtirishiga erishish mumkin bo'ladi.

11-sinf. Ona tili darsligi[5] (19-bet). Nutq to'g'riligi mavzusida shunday ta'rif berilgan: **"Adabiy til me'yorlariga amal qilinmasdan tuzilgan nutq to'g'ri nutq bo'la olmaydi. ...adabiy tilda quyidagi me'yorlar farqlanadi: 1) leksik me'yorlar; 2) talaffuz me'yorlari; 3) so'z yasalishi me'yorlari; 4) morfologik me'yorlar; 5) sintaktik me'yorlar; 6) uslubiy me'yorlar".**

Darslikda yuqorida keltirilgan ma'lumotlar aniq misollar asosida dalillanmagan. Shuningdek, darslikda berilgan mashqlar ham talab darajasida emas. Bu esa yuqoridagi ma'lumotlarni o'quvchiga to'liq singdirishda o'qituvchiga qiyinchilik tug'diradi. Ona tili darslik kitoblarining barchasida bu kabi kamchiliklar mavjud. Mavzular bo'yicha berilgan mashqlar va topshiriqlar esa juda sodda. Ya'ni BLUM taksonomiyasida o'quvchi bilimini baholaydigan bo'lsak, bu topshiriqlar bilish, tushunish, qo'llash darajasidan yuqoriga o'tmagan. Holbuki, bugungi ta'lim yangiliklari o'quvchilarda tahlil, baholash, yaratish bosqichlarini shakllantirishni talab etmoqda.

Ona tili darslik kitoblaridan 8-sinf darsligida[6] berilgan mavzular va topshiriqlar STEM yondashuv va PISA xalqaro dasturi talablariga deyarli to'g'ri keladi. Darslikda matn va lug'atlar bilan ishlashga ko'p e'tibor berilgan. Mashq va topshiriqlar, asosan, o'quvchini teran fikrlash, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, "Donishmand ustoz" matnini olaylik. (111-bet) Matn asosida quyidagicha topshiriqlar berilgan: **163-mashq. Matndagi siz uchun yangilik bo'lgan hayotiy haqiqatni tavsiflang.** Bu topshiriq o'quvchini matnni sinchkovlik bilan o'qish, undagi hayot haqiqati bo'lgan yangilikni topishga undaydi. Ammo matnning asosiy g'oyasini chuqur anglash uchun yetarli emas. **164-mashq**da shunday topshiriq berilgan: **Matnga shaxsiy munosabatingizni yozma ravishda bayon qiling.** Bu topshiriq o'quvchini matnni yanada chuqurroq anglash, undagi asosiy g'oya nimada ekanligini bilish, uning yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Ammo bu topshiriqlar o'quvchida STEM yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish darajasida emas. Bu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirishimiz uchun matn yuzasidan savol va topshiriqlarni yanada aniqlashtirishimiz, o'quvchini matnga chuqurroq kirib borish, undagi voqealarni hayot bilan bog'lashga undaydigan darajada shakllantirishimiz kerak. BIUM taksonomiyasi asosida o'quvchini bilish, tushunish darajasidan tahlil, baholash, yaratish darajasiga ko'tarishimiz lozim. Masalan: 1. Matn nima haqida? 2. O't-giyoh so'zining ma'nosi nima? 3. Nabotot nima? 4. Oyoq qabarishiga nima davo bo'ladi? **(Bilish darajasi)** 5. Ibn Sino nima uchun shogirdlikka kelganlarni sinovdan o'tkazar edi? 6. Ibn Sino nima uchun ming dona o't-giyoh terib kelishni buyurdi? 7. Ibn Sino 1-bola terib kelgan giyohlarni ko'rib sevindi, ammo nima uchun shogirdlikka qabul qilmadi? **(Tahlil darajasi)** 8. Olibsotar kim? Alif nima? Ibn Sino nima uchun 1-bolaga "olibsotarga shogird tush"ish taklifini berdi? 9. Ibn Sino 2-bolaga nima uchun: "Sen endi mening shogirdim emas, o'g'lim ham bo'lding", deydi? 10. Matn turini aniqlang. 11. Siz bu matnni qanday nomlagan bo'lardingiz? **(Baholash darajasi)** 12. Qanday shifobaxsh giyohlarni bilasiz? Ular haqida ma'lumot to'plang va daftaringizga yozing. "Shifobaxsh giyohlar" mavzusida hikoya yarating yoki insho yozing. Unda uyushiq bo'laklar va umumlashtiruvchi so'zlardan foydalaning. Gaplarning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang. **(Yaratish darajasi)** Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchida STEM yondashuv ko'nikmalaridan axborotlarni izlash va muammolarni aniqlash, tadqiqotlarni rejalashtirish va o'tkazish, dalillardan dalillar olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, o'quvchida o'ziga ishonch, mustaqillik, izlanuvchanlik, sinchkovlik (tabiat, borliq, hayotdagi barcha voqea-hodisalarga), ilm o'rganishga qiziqish, matn bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Dunyoqarashi, fikrlash doirasi kengayadi, nutqi rivojlanadi. Shu bilan birga grammatik bilimlari ham mustahkamlanib boradi. O'quvchilarda ta'limning yangicha yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish uchun, avvalo, darslik kitoblarida berilgan savollar va topshiriqlarni shunga moslab o'zgartirib borish lozim. Shundagina o'quvchi ham, o'qituvchi ham ta'limning yangicha yondashuviga asta-sekinlik bilan moslashib boradi. O'quvchilarga amaliyot orqali nazariyani singdirib borish imkoni yaratiladi. O'quvchilarda o'rgangan bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanib boradi. Bu bugun ta'limga kirib kelgan PISA va STEM ta'limotining ham mohiyati sanaladi. Shunday ekan, darslik kitoblaridagi mashq va topshiriqlar ham shu maqsad asosida yanada takomillashtirilishi, ya'ni o'quvchini tanqidiy fikrlashga undovchi PISA testlari va topshiriqlari, STEM talablari singdirilgan va boshqa fanlar bilan integratsiyalashtiruvchi topshiriqlar berilishi kerak. Shunda biz o'quvchilar o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishiga erishamiz. Sekin-asta o'zimiz ham, o'quvchilar ham yangi ta'lim dasturiga kirib boramiz. O'z tilimizga bo'lgan yuksak e'tibor va e'tirofni fanimiz orqali o'quvchilarga singdirib boramiz. Zero, maqsadimiz ham shu.

---

[1]N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'rayeva. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.

[2]N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.

[3]N.Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: Akademnashr, 2014.185-bet.

[4]N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2017.

[5]N.Mahmudov, Y.Odilov, G.Ziyodullayeva. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassas - lari o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

[6]M.Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.

Feruza DARMONOVA,
Andijon viloyati Andijon shahridagi
21-maktabning ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

ADABIY TA'LIMDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA MULOHAZALAR

Adabiyot atomdan ham kuchliroq, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflab bo'lmaydi.
(Abdulla Qahhor)

Inson ma'naviyatini shakllantirishda adabiyotning o'rni boshqa ijtimoiy ong shakllariga qaraganda yetakchi mavqeda turadi. Chunki uning boshqa san'at turlaridan imkoniyatlari keng, ta'sir ko'lami salmoqli. Maktab adabiy ta'limida ana shu imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmasa, o'quvchilik davrida yetuk badiiy namunalar bag'ridan qaynab chiquvchi ma'naviyat bulog'idan bahramand etmasak, atoqli yozuvchimiz Abdulla Qahhor aytganiday, adabiyot kuchi o'tin yorishga sarflanadi. Bu, o'z navbatida, bolalar ongi, ma'naviyatida bo'shliq paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shunday ekan, yosh avlodga adabiyot fanini o'qitishda vijdonan yondashuv, adabiyot muallimlaridan bilim, ijodkorlik, katta mas'uliyat talab etiladi. Mas'uliyat adabiyot o'qitishning hozirgi holatiga nazar tashlashga undaydi.

Xo'sh, hozirgi kunda adabiyot fanini o'qitish ahvoli qanday? Albatta, bunda hammaga yoppasiga bir xil baho berib bo'lmaydi: hamkasblarimiz o'z kasbiy salohiyatlari va ishlariga mas'uliyatlari barobarida bilim berib kelmoqdalar. Lekin respublikamizning aksar o'qituvchilari uchun umumiy, tipik holatlar borki, ularga ko'z yumib bo'lmaydi. Bunday tipik holatlar ko'proq kamchilik, qusurlarni ko'rsatmoqda. Ularni xaspo'shlab, mavjud holatni yashirib bo'lmaydi – isitmasi oshkor qilib qo'yadi. Ko'p yoshlarning mutolaa zavqidan uzoqligi, kitobdan begonaliklari, o'qiydigan ayrimlarining qo'lida yengil-yelpi asarlarni ko'rishimiz ana shu isitmadan darak beradi. Demak, adabiyot o'qitishda bir qator muammolarimiz bor. Ularni e'tirof etib, bartaraf etish yo'llarini ham o'ylashimiz to'g'ri yechimga olib boradi.

Adabiyot fanini o'qitishdagi qoniqarsiz holatlarning ikki: obyektiv va subyektiv sabablari mavjud bo'lib, ularning biri boshqasining chuqurlashuviga olib kelmoqda.

Obyektiv omillar, avvalo, standartlar, darslik, dastur va metodik hamda o'quv qo'llanmalari bilan bog'liq holda yuzaga chiqmoqda. Ayniqsa, adabiyotdan Davlat ta'lim standartida mumtoz adabiyot, jahon adabiyoti yoki lirik asar namunalarining o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlari, matnni mustaqil o'qib tushunishga yo'llaydigan nazariy ma'lumotlar o'quvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib berilishi alohida ko'rsatilmaganligi bois adabiyot o'qituvchilari o'quvchi baribir bu matnlarni tushunmaydi, undan ma'no chiqarishga qiynaladi degan bahonani ro'kach qilib, asarlar mazmunini so'zlab beradilar va bolalardan ham shuni talab qiladilar. Ifodadagi o'zgachalik, tasvirdagi yangilik, badiiy mahorat masalasi ochiq qoladi. Ayni shu holat o'quvchilarni badiiy adabiyotning estetik zavq olamiga yetaklashda dastlabki to'siq bo'lmoqda.

Tavsiya. Davlat ta'lim standartida o'quvchini badiiy matn mutolaasiga yetaklaydigan, matnga ma'no berishga o'rgatadigan nazariy ma'lumotlarning berilishi alohida belgilab qo'yilishi kerak. O'quvchilarga asar matnini mustaqil o'zlashtirish ko'nikma va malakalarini shakllantiradigan ma'lumotlar tizimi ishlab chiqilib, dastur va darsliklarda aks ettirgan holda sinfma-sinf tadrijiy tarzda berib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Badiiy adabiyotni tushunish va his etish bilan bog'liq kemtikliklarga sabab bo'ladigan yana bir holat darsliklarda berilgan badiiy matnlarning (dostonlardan olingan parchalar, she'riy asarlarning) nasriy bayon tarzida alohida berilishidir. Ayrim o'qituvchilar o'quvchilarga badiiy matnni o'rgatmay, nasriy bayon bilan cheklanib qolmoqdalar. Natijada matn o'quvchilar tomonidan to'laqonli o'rganib chiqilmaydi. O'quvchilar yetuk so'z san'atkorlarining asarlarini emas, balki ularning darslik mualliflarining tushungan darajasidagi mazmuni bilan tanishmoqdalar, xolos. Ba'zi holatlarda esa bundan ham nochor tajriba qo'llangan, ya'ni mumtoz asarlarni o'rganishda asl matn berilmay, ular hozirgi tilga tadbil qilib berilgan. [1:78, 91].

Tavsiya. Darsliklarda, umuman, o'rganishga tavsiya qilingan matnlar tabdilini bermaslik kerak, balki, avvalo, o'qituvchiga, so'ng u orqali o'quvchilarga badiiy adabiyot namunalarini tushunish va his qilishni o'rgatish lozim. Mumtoz adabiyotni o'qitishda metodist olim V.Qodirov ta'kidlaganidek, *aruziy tafakkur* [4:110–119] bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarni singdirish hal qiluvchi omil sanaladi.

Navbatdagi fikrlar darslikdagi savol va topshiriqlar xususida. Mustaqillikning ilk yillarida yaratilgan darsliklarning ayrimlarida mavzular, o'rganishga tavsiya etilgan matnlardan so'ng savol va topshiriqlar berilmagan edi [2:45, 68]. Tajribada sho'ro davrida bilim olgan adabiyot muallimlari bu darsliklardagi asarlarni mustaqil tahlil qila olmasliklari, taqdim etilgan asarlarni o'rganish

bo'yicha darslarni qanday tashkil qilishni bilmasliklari ma'lum bo'lib qoldi. Shunda har bir mavzudan, matndan keyin uning mohiyatini ochishga qaratilgan, asar badiiyatini anglashga yo'naltiruvchi, qahramonlarning ruhiy olami tadqiqiga yo'l ochuvchi savol va topshiriqlar berilishi oydinlashdi. Jo'yali va aniq maqsadni ko'zlagan savol, topshiriqlar adabiyot darslarining samaradorligini ta'minlasa, faktlarnigina qayd etishni talab etuvchi so'rovlar mashg'ulotlar saviyasining past bo'lishiga olib keladi. Kuzatishlarga ko'ra, aksar hollarda keyingi holat yetakchilik qilishi kuzatilmoqda.

Tavsiya. Darslarda o'quvchini fikrlashdan, matn ustida izlanishdan uzoqlashtiradigan *faktologik* savollardan ko'ra o'quvchini o'ylashga, mustaqil fikrlashga, izlanishga chorlaydigan, asar badiiyati, uning mazmuniga mustaqil nazar tashlash, o'ziga xosliklarini, farqli jihatlarini topishga yo'llaydigan g'oyat muhim bo'lgan *konseptual* savol va topshiriqlarning ulushi yetakchi bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. [4:14-20]

O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar juda oz, borlari ham nazariyotchi olimlar tomonidan yozilgani uchun ularda darsliklardagi tavsiyalar ham g'arib – amaliyotga to'g'ri kelmaydi. [4:42–47]

O'qitishdagi nokomilliklarning subyektiv – adabiyot o'qituvchisi shaxsi bilan bog'liq sabablari ham bor. Muallimlar kasbiy tayyorgarligining pastligi adabiyot darsliklarida berilayotgan badiiy asar namunalarini o'rganishdagi oqsashlarning asosini tashkil qiladi. Aslida adabiyot o'qitishdagi eng og'riqli nuqta ham shu. Adabiyot o'qituvchilarining aksariyatida tavsiya etilayotgan adabiyot namunalarini o'rganishda nimani qanday o'qitish kerakligi to'g'risida yetarli tushuncha yo'qligi darsni to'g'ri tashkil qilolmaslikning asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Sirdaryo viloyatida o'qituvchilar bilim, malakalarini bilish maqsadida o'tkazilgan sinovlar bu fikrlarni tasdiqladi. Aslida, bu faqat sirdaryoliklar uchungina xos og'riqli nuqta emas, balki butun mamlakatdagi umumiy manzaraning bir ko'rinishidir.

Tavsiya. Adabiyot muallimlarida adabiy ta'limigagina xos bo'lgan badiiy-tadqiqiy, badiiy-konstruktiv, badiiy-tashkiliy va badiiy-kommunikativ vazifalar haqida tushuncha, bilimlarni, ularni amalga oshirish bilan bog'liq ko'nikma va malakalarni shakllantirish muhim. [3:62–131]

Adabiyot fanini o'qitishdagi shu kabi muammolar bartaraf etilsa, o'qituvchi har bir darsiga astoydil tayyorgarlik ko'rsa, bizningcha, bu fanni o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsadga erishiladi, o'quvchilarni adabiyotning sehrli olamiga olib kirish hamda ularga bu olamning naqadar go'zal, rang-barang ekanligini ko'rsatish imkoni yaratiladi. Eng asosiysi, adabiyot o'qitishni o'z maqomiga ko'tarib, Vatanga sodiq, yurtiga mas'ul va ajdodlarga munosib ma'naviyati yuksak avlod tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2005.
2. Karimov N. va boshq. 9-sinf darsligi. – Toshkent, 2002.
3. Kan-Kalik V.A., Xazan V.I. Психолого-педагогические основы преподавания литературы в школе. – Москва, 1988.
4. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. – Toshkent, 2009.

Mulohaza

Safo MATCHONOV,
pedagogika fanlari doktori, professor

ADABIYOT DARSLARIDA TAHLIL VA TALQIN UYG'UNLIGI

So'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar pedagogik ilm-fanning boshqa tarmoqlari kabi adabiyot o'qitishda ham ta'lim amaliyotiga jiddiy yondashuvni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida qayd etilganidek, "davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek, darsliklar va boshqa o'quv materiallari asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotganligi" [1] bevosita adabiy ta'lim tizimiga ham taalluqlidir.

Adabiyot darslarida ta'lim samaradorligiga erishish ko'p jihatdan o'quvchilarning adabiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Dastur asosida o'rganiladigan asarlar tahlili o'quvchilarni badiiy matn ustida ishlash orqali ijodiy fikrlash, mustaqil izlanish hamda o'z kuzatishlari yuzasidan tegishli xulosa chiqarishga yo'naltiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning adabiy tahlil ko'nikma-malakalarini shakllantirishda badiiy matn ustida ishlash usullari adabiyot o'qitish metodikasining azaliy muammolaridan sanaladi. Bu borada rus olimlaridan V.Golubkov, G.Belenkiy, V.Maransman, M.Zaldiner, Z.Rez, Y.Lotman, o'zbek olimlaridan S.Dolimov, S.Ismatov, Q.Ahmedov, H.Ubaydullayev, A.Zunnunovlar olib borgan ilmiy-metodik izlanishlar o'z davri uchun keng qamrovliligi bilan ajralib

turadi. Mustaqillik yillarida bu safga kelib qo'shilgan M.Mirqosimovaning ayni muammoga oid qarashlari sof metodik xarakterda bo'lsa, Q.Yo'ldoshev izlanishlari metodologik xarakterdaligi hamda filologik-met - dik jihatdan yondashilishi bilan diqqatni tortadi. Q.Husanboyevaning tadqiqotlarida ushbu masala ko'proq falsafiy-psixologik yo'nalishda ko'zdan kechirilgan bo'lsa, R.Niyozmetovaning ilmiy izlanishlarida ilg'or xorijiy olimlar nuqtayi nazariga tayanilganini kuzatish mumkin. Shuningdek, V.Qodirovning mumtoz adabiyot namunalarini o'rganishga doir izlanishlari ham alohida e'tiborga loyiq.

Ilm-fandagi mazkur yo'nalishlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, o'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish ularning adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirishda muhim omil vazifasini o'taydi. Badiiy asar tahlili yozuvchining o'sha asarni yaratish jarayonidagi ijodiy yo'lini qayta bosib o'tish, muallif fikrlari, hissiyoti va xulosalariga sherik bo'lish, ayni paytda uning ijodiy yutuqlaridan ruhlanish, kamchiliklariga tanqidiy munosabat bildirishdan iborat bo'lib, mutolaa madaniyatini shakllantirishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham adabiy tahlil o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini qat'iy reja asosida uyushtirish, bilimlarini boyitish va ma'lum maqsadga yo'naltirishda ijodkorlik, pedagogik mahorat, fidoyilik talab etadi. Adabiy tahlil ijodiy faoliyat sifatida badiiy-estetik tafakkur bilan bog'liqligi bois sovuqqonlikni ko'tarmaydi.

Adabiy o'quv tahlili asarni nafaqat tushunish, balki g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlash orqali o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy barkamollikka yo'naltirishga qaratilgan ijodiy faoliyatdir. Adabiy o'quv tahlilining bosh maqsadi matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Uni ba'zi olimlar, masalan, Z.V.Rez [4:201] va A.Zunnunovlar [3:133] badiiy asarni o'zlashtirishning asosi deb bilsalar, ayrim olimlar, masalan, M.Mirqosimova, adabiy matnning badiiy xususiyatlarini o'rganish usuli degan fikrni ilgari suradi. [5:15

Professor Q.Yo'ldoshevning fikricha, badiiy asarni ta'limiy tahlil qilish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati uch yo'nalishda: badiiy matnga suyangan holda matn mantig'ini, uning tartibini o'zgartirmay ma'no va jozibani yetkazish (tekstual); asosiy e'tibor asardagi personajlarga qaratilgan bo'lishi, badiiy ma'no obrazlar ruhiyatini, ularga xos xususiyatlarni kashf etish jarayonida ochib berilishi (timsolli); asar tahlili davomida o'quvchilarning o'zaro fikr almashishi, bahslashishi (muammoli) asosida uyushtiriladi. [6:114]

Bizningcha, adabiy tahlilni matn ustida ishlashdan ajratish mumkin emas. Tahlil matn asosida uyushtirilsagina o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligida ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

O'quvchi mutolaa chog'ida asar mazmuni bilan tanishsa, tahlil paytida poetik xususiyatlarini aniqlash yo'lidan boradi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil matn tag zaminidagi ma'noni aniqlash hamda tegishli xulosa chiqarishga yordam beradi.

O'quvchi tahlil vositasida konkret asarni o'rganibgina qolmasdan, adabiyotshunoslik, mantiq, tilshunoslik, didaktika, san'at, falsafa kabi turli sohalarning badiiy ijodga bog'liq qonuniyatlariga ham murojaat qiladi. Shunga ko'ra, aytish joizki, adabiy tahlil samaradorligiga erishishda quyidagi masalalarni hal etish nazarda tutiladi:

1. Tahlilning maqsadi va mazmunini aniqlash.
2. Asar tahlilining darslar bo'yicha taqsimoti hamda topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.
3. Matnning qanday metodlar asosida o'rganilishini, o'quvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini belgilash.

Adabiy-estetik tahlil har bir asarning janriy xususiyatlari, o'quvchilarning yoshi, bilimi va egallagan malakalariga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan, boshlang'ich sinflarda topishmoq janriga mansub asarlar tahlilida predmet va voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlangandagina tushunarli bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalar voqealar oqimiga, sarguzashtlarga ishqiboz bo'lsa, katta yoshlilar qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosi tahlili orqali yozuvchi ilgari surgan g'oyani aniqlashga qiziqadilar.

5–6-sinflarda o'quvchilar oqni oq, qorani qora, yaxshini yaxshi, yomonni yomon tarzida konkret tushunadilar, ammo insonning murakkab ichki dunyosi ular uchun mavhumligicha qolaveradi. Sherning botirligi-yu tulkining ayyorligi, quyonning qo'rqoqligi-yu itning vafodorligi ularga maktabgacha ta'lim yoshidan yaxshi ma'lum. Hayvonlarga xos bunday sifatlar ertak va masal qahramonlarining xatti-harakatlarida, nutqlarida yorqin aks etadi. Lekin ular o'z holicha tasvirlanmaydi, balki boshqa qahramonlar bilan bog'liq ziddiyatlar vositasida ifodalanadi. Bu esa, o'z navbatida, kishilar o'rtasidagi ziddiyatlarni anglashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi" darsliklaridagi "Egri va to'g'ri", "Ochko'z boy", "Ur to'qmoq", "Ko'zacha bilan tulki" ertaklari, shuningdek, Shukur Sa'dullaning "Laqma it", "Ayyor chumchuq", "It o'ziga qanday qilib do'st topdi?", Qudrat Hikmatning "Eshak nega hangraydi?", A.Avloniyning "Bolari bilan Pashsha", Anvar Obidjonning "Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak", "Juda qiziq voqea" kabi ertak va masallari shu jihatdan ibratlidir.

Bu xildagi asarlarning qiziqarliligiga sabab ularda ishtirok etuvchi hayvonlar, parranda-yu darrandalar, hatto jonsiz predmetlarning gapirishi emas, balki ularning fe'l-atvori, xatti-harakatlarida insonlarga xos fazilatlar va illatlarning aks etishidir. Jumladan, mazkur ertaklarda tilga olingan chaqimchilik, qo'rqoqlik, maqtanchoqlik illatlari ham, mardlik, vafodorlik fazilatlari ham insonlarga xos bo'lib, o'quvchilarni o'ylashga, fikrlas - ga, tegishli xulosa chiqarishga undaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'qituvchi yuqoridagi kabi asarlar tahlilida qahramonlarning xarakter xususiyatlariga alohida e'tibor berishi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Asar voqealari asosidagi bunday mufassal tahlil o'quvchilarni adabiy qahramonlarning xatti-harakatlari tasviridan xarakterga, voqea-hodisalar tasviridan ma'noga tomon yetaklaydi.

Yuqori sinf o'quvchilari esa ko'proq qahramonlarning xarakter mantig'i, o'zaro va davr bilan bog'liq ziddiyatlari, kechmish-kechirmishlari o'rtasidagi sababiy

bog'lanishga qiziqadilar. Qahramonlar xarakteridagi evrilishlar tasviri tufayli o'quvchilar hayotning nurli va qorong'i jihatlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boradilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nafrat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi.

A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon", A.Qahhorning "O'g'ri" Ch.Aytmatovning "Oq kema", S.Ahmadning "Ufq", Sh.Rahmon she'rlari, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" asarlari tahlili adabiy ta'lim oldidagi bunday tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda katta qulaylik tug'diradi.

Badiiy matn ustida ishlash orqali o'quvchilarda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirishda ularni nazariy bilimlar bilan qurollantirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Chunki matn zaminidagi nafosat, yozuvchi ilgari surgan fikr asarning janriy xususiyatlari asosida o'rganilgandagina chuqur his qilinishi va o'zlashtirilishi mumkin. Masalan, she'riy asarlar tahlili lirikaning adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, hatto tovush, qaynoq hissiyot ma'noni quyuqlashtirishga qaratiladi, ta'bir joiz bo'lsa, shoir fikrini hikmat darajasiga ko'tarish vazifasiga bo'ysundiriladi. Matn asarning badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, sharhli yoki ijodiy o'qish, keng qamrovli, qiyosiy, muammoli, tadqiqot, noan'anaviy usullaridan foydalanganda ham asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Jumladan, yuqori sinflarda asar sujeti, kompozitsiyasi, bosh qahramonlar timsolini o'rganish bo'yicha o'tkaziladigan turli tipdagi tahlillar matn ustida ishlash asosida olib borilsa, o'quvchilarning ijodiy faolligi oshadi, mustaqil fikrlash doirasi kengayadi

A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani bosh qahramoni timsolini badiiy matnga tayangan holda quyidagi reja asosida o'rganish orqali bunga to'la ishonch hosil qilish mumkin:

1. Qahramon portreti. Matndan Otabek portreti tasvirlangan o'rinlarni toping. U sizda qanday taassurot qoldirdi? Otabekning tashqi ko'rinishida fe'l-atvorining qaysi jihatlari aks etgan?

2. Qahramon nutqi. Otabek nutqi boshqa qahramonlar nutqidan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi? Bosh qahramon nutqining o'ziga xos xususiyatlarini nimalardan iborat deb o'ylaysiz? O'z fikringizni Otabek bilan Homid, Otabek bilan otasi nutqlarini taqqoslash orqali izohlang.

3. Boshqa qahramonlarning Otabekka munosabati. Matndan boshqalar tomonidan Otabekka munosabat bildirilgan o'rinlarni toping. Asar qahramonlari Otabek haqida qanday fikrlar bildirishadi? Kimlarning fikrlari Otabekka mos keladi? U boshqalar bilan munosabatda o'zini qanday tutadi?

4. Qahramonning xatti-harakati. Otabek timsoli tasvirida fe'l-atvoriga to'g'ri kelmaydigan jihatlar bormi? U o'z e'tiqodiga qanday amal qiladi? O'z fikringizni Otabekning Hasanaliga, Kumushning zaharlangani paytidagi Zaynabga bo'lgan munosabati misolida dalillashga harakat qiling.

5. Yozuvchining qahramonga munosabati. Muallif Otabek timsoli orqali qanday g'oyani ilgari suradi? Adib bilan Otabek o'rtasida qanday o'xshashlik yoki farq bor?

Bunday adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirishda badiiy asar matni, adabiy-nazariy tushunchalar, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, shaxsiy faoliyati, o'qituvchi mahorati asosiy omillardandir.

O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish badiiy matn ustida ishlashning turli shakl va metodlaridan foydalanishni shart qilib qo'yadi. Masalan, ilk tahliliy ko'nikmalar boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matn mazmuni, ta'limiy-tarbiyaviy mohiyati yuzasidan savol-javob asosida, shuningdek, matnni to'liq, qisqartirib yoki hikoyachi shaxsini o'zgartirib hikoyalash vositasida hosil qilinadi. Natijada, o'quvchilar matn zaminidagi yetakchi ma'noni aniqlash, nafosatni his etish malakasini egallab boradilar. O'rta va yuqori sinflarda esa matn ustida ishlashda insho, referat, bayon, taqriz, ma'ruza matnini tayyorlash kabi ish turlari keng qo'llaniladi. Muayyan mavzu yuzasidan o'tkaziladigan bunday mustaqil ishlar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, nutqini boyitadi, shaxsiyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda tahlil markaziga bolalar uchun yaratilgan qo'shiq, she'r, topishmoq, maqol, ertak, hikoya va masallar qo'yilsa, o'rta va yuqori sinflarda adabiy merosimiz xazinasida katta o'rin tutadigan butun boshli doston, drama va romanlarni o'rganish nazarda tutiladi. Bu esa adabiy tahlil malakasini bosqichma-bosqich izchil shakllantirishni taqozo etadi.

Tahlilda matnning o'quvchiga tushunarliligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlilik deganda yozuvchi yaratgan badiiy olamning betakror o'ziga xosligi, obrazli tasvirning o'quvchi hayotiy tajribasi, bilim darajasiga muvofiqligi anglashiladi. Chunki Oybekning tarixiy "Navoiy" romanini 5-sinf o'quvchisi "hazm" qilolmagani kabi, "Yer tagida oltin qoziq" topishmog'ining javobini topish akademik litsey o'quvchisiga hech qanday zavq bermaydi.

Adabiy asar mutolaasi matn ustida ishlashning muhim bosqichidir. Badiiy asarlar janr xususiyatlari va dastur talablariga ko'ra sinfda o'qituvchi nazorati ostida, uyda mustaqil tarzda o'qiladi. Sinfda ovoz chiqarib, ichda, jo'rlikda, rollarga bo'lib, sharhli, ifodali, adabiy-badiiy o'qish usullarida mutolaa qilinadi. Quyida ulardan ayrimlariga to'xtalamiz:

Sharhli o'qish. Tarixiy-memuar, ayrim hollarda zamonaviy mavzudagi asarlar mazmunini o'zlashtirish sharhli o'qishni taqozo etadi. "O'qish muammosi, kitobxonlikni, kitobxon ma'naviy olamini shakllantirish muammosi hanuzgacha eng dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolar ekan, – deb yozadi rus olimasi O.Y.Bogdanova – metodika fanida badiiy matnni yaxlit idrok etishni, uni chuqur sharhlashni, yozuvchi poetikasini anglashni ta'minlaydigan ish usullariga ustunlik berish davom etaveradi. Adabiy ta'limdagi asosiy komponent sifatida asarni o'qish va o'rganish, uni sharhlashning aytilishi tasodifiy emas" [7: 13]

Sharhli o'qish shunchaki lug'at ustida ishlashni anglatmaydi, balki asardagi obrazli ifodalar, maqol va matallar mazmunini sharhlash, tarixiy-afsonaviy, xayoliy-fantastik timsollar haqida ma'lumotlar berish, izohlash kabi murakkab masalalarni qamrab oladi. Masalan, boshlang'ich sinflarning "O'qish" kitoblari,

5-sinf "O'zbek adabiyoti" darslik-majmuasidagi "Eridan ayrilgan yetti yil yig'lar, elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar", "Aybsiz do'st izlagan do'stsiz qolar" kabi maqollar izohlanmasa, Abdulla Oripovning "O'zbekiston" (5-sinf) qasidasidagi "Ikki asr yarim dunyoni zir qaqshatdi oqsoq jahongir", "Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor Ko'ragoniy jadvallarida" misralari sharhlanmasa, mazkur she'rda tilga olingan Beruniy, Chingizxon, Jaloliddin, Sobir Rahimov, Habib Abdullayev kabi tarixiy shaxslar yoxud Erkin Vohidovning "O'zbegim" (6-sinf) qasidasida keltirilgan *Afrosiyob, O'rxun xati, Sarbador, Zardusht, Budda* atamalari to'g'risida ma'lumot berilmasa, o'quvchilar o'sha asarlarning mazmunini chuqur tushunib yetmaydilar.

O'quvchilarning, ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari ma'no-mazmunini o'zlashtirishlarini sharhli o'qishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'tmishda yaratilgan asarlarni bugungi o'quvchi uchun qadrli, qiziqarli qilish, ularni mutolaa etishni hayotiy zaruratga aylantirishda tarixiylik tamoyiliga amal qilinadi. Bu esa o'sha asarni haqqoniy baholashga, o'z davri doirasida o'rganish va bugungi kunimizga bog'lab tushuntirishga imkon beradi. O'tmish shu tariqa zamonamizga bog'lanadi. Bunda o'quvchilarga tarixiy asarda tasvirlangan voqealarning vaqti, makonini tushuntirish ham muhimdir.

Tarixiy asarlar darslik emas. Shuning uchun ham ularni o'rganishda izohlash talab etiladi. "Shiroq", "To'maris", "Guldursun" kabi hayotiy asosga ega afsonalar ham, "Boburnoma", "Shayboniynoma" kabi memuarlar ham, "O'tgan kunlar", "Navoiy", "Mirzo Ulug'bek", "Bobur", "Humoyun va Akbar" yanglig' tarixiy-badiiy asarlar ham shu taxlit o'rganishni taqozo etadi. Ayniqsa, yaratilgan vaqti bilan asar voqealari kechgan davr o'rtasida farq katta bo'lgan matnlar ustida ishlashda tarixiy sharhga alohida zarurat seziladi. Bu xildagi asarlar sharhli o'qilmasa, o'quvchilar mumtoz adabiyotimiz namunalari – juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega madaniy merosimiz misolida Vatanimiz o'tmishi, jafokash xalqimizning azaliy qadriyatlari, badiiy-estetik tafakkuri tarixini tegishli darajada tushunib yetmaydilar, ma'naviy-axloqiy tarbiya kemtik bo'ladi. Adabiy ta'lim shusiz mukammallik kasb etmaydi.

"Adabiyotmi, teatrmi o'rgatmasligi kerak, – deb yozgan edi rejissor Ejen Ionesko, – tarbiyalashi zarur. Hayot jumboqlari yuzasidan tayyor javoblar emas, savollar bermog'i lozim. Yana ham to'g'rirog'i, mustaqil faoliyat uchun aqlni charxlashi kerak. Menda hech qachon tayyor javoblar bo'lgan emas.

Teatr fikr uyg'otishi, hayot haqida o'ylashga majburlashi, bezovta qilishi, u yoki bu vaziyat yuzasidan mustaqil fikrlashg xalaqit bermasligi, tayyor retsept in'om qilishdan saqlanishi zarur. Qisqasi, teatr insonni tanlashga da'vatlaydi" [8].

O'zbek mumtoz adabiyoti haqida ham shu gapni aytish mumkin va u o'z zimmasidagi bu vazifani o'quvchilar uchun tushunarli bo'lgan taqdirdagina to'la bajaradi.

Sharhli o'qish o'z maqsadiga ko'ra tarixiy, uslubiy, axloqiy-didaktik kabi turli xarakterda bo'lishi mumkin va u faqat matnni emas, balki matn zaminidagi yashirin fikrni ham uqishga, asar yuzasidan fikr-mulohazalarini dalillashga o'rgatadi.

Adabiy o'qish. Adabiy o'qish tushunchasi ilmiy iste'molda keng ma'noda 5–9-sinflarning adabiyotdan o'quv kursini anglatsa, tor ma'noda o'qish metodini bildiradiki, biz bu o'rinda ikkinchi ma'nosi xususida so'z yuritamiz.

Adabiy asarning badiiy-estetik mohiyati undagi qahramonlar, sahnalar, tabiat tasvirlari, dialoglar va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi. O'qituvchi shu jarayonda o'qishning turli metodlariga murojaat qiladi. Asar poetikasi, badiiy xususiyatlarini, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani tushuntirishda adabiy o'qishning ahamiyati beqiyos kattadir.

"Badiiy asarni grammatik va poetik qonun-qoidalarga rioya qilib o'qish, – deb yozadi S.Inomxo'jayev, – adabiy o'qish deyiladi... Adabiy o'qishning asosiy vazifasi biror asarning poetik va badiiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat" [3:57]. Bu esa adabiy o'qishning metodik xarakter kasb etishini ko'rsatadi. O'qituvchi sinfda biror lirik asarni o'rganishni rejalashtirar ekan, mashg'ulot davomida uning poetikasiga xos jihatlar – qofiya, hijo, vazn, turoq, radif kabi komponentlar to'g'risida matndan misollar keltirib, o'z fikrlarini asoslash yo'lidan boradi. Nasriy va dramatik asarlar matni ustida ishlashda ham adabiy o'qishdan keng foydalaniladi. Shunga ko'ra aytish joizki, badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'qituvchining vazifasi asarning poetik mazmunini tahlil qilish, mavzusi va tasvir predmetini tushuntirish, qalamga olingan hayot voqeligiga muallif munosabatini aniqlash va tegishli xulosa chiqarishdan iborat.

Bu vazifani amalga oshirishda *ifodali o'qish* muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan o'qishning bu turini **asar ma'no-mazmunini hissiyot va fikr uyg'unligida jonli nutq orqali o'quvchiga yetkazish usuli** deyish mumkin. Ifodali o'qish quyi sinflarda o'quvchilar talaffuzidagi **r**, **s**, **ch** tovushlari hamda sheva elementlari bilan bog'liq nuqsonlarni bartaraf etishga, xotirasini mustahkamlashga yordam bersa, yuqori sinflarda ruhiyatini boyitishga, so'z san'atining sehrli olamiga yetaklashga xizmat qiladi.

Qolaversa, dramatik asarlar sahnada qo'yishga mo'ljallab yaratilgani va faqat aktyorlar ijrosidagina o'zining estetik, tarbiyaviy vazifasini to'la bajarishi, nasriy asarlar tabiatan yakka tartibda o'qishni taqozo etishi kabi, she'riy asarlar ifodali o'qilganidagina yurakdan his qilinadi. Demak, badiiy asarlar tadqiqi va tahlilida ham yaratilish uslubiga ko'ra turli usullardan foydalanish ehtiyoji mavjud. Ammo bunday usullarning birini she'riyat, ikkinchisini nasr, uchinchisini dramaturgiya uchun qat'iy chegaralab bo'lmaganidek, jamiki asarlarni ham faqat bir xil shakl va mazmunda, yagona nuqtayi nazar asosida o'rganish mumkin emas.

Asar mohiyati janriy xususiyatlari zaminida o'rganilgandagina to'la ochilishi metodika ilmida allaqachon o'z tasdig'ini topgan. Jumladan, she'riy asarlar tahlili ifodali o'qishsiz mukammal bo'lmaydi. Binobarin, ifodali o'qish tahlil vositasi hamdir. U ko'p hollarda batafsil izohlashdan afzal turadi va o'quvchilarni badiiy asar matni bilan tanishtirishning birlamchi amaliy metodi vazifasini bajaradi.

Umumta'lim maktablari va akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari adabiyot dasturlaridan o'rin olgan asarlarning katta qismi she'riyat namunalari ekanligi ularning adabiyotimiz tarixidagi mavqeyi, tarixiy taraqqiyoti tufaylidir. Afsuski, dasturlarda she'r matni, xususan, poetikasi ustida ishlashga juda kam e'tibor berilgan. She'riy matnlar so'ngida ilova qilingan savol va topshiriqlarning aksariyatida she'rni yodlash, undagi o'xshatish, jonlantirish, sifatlashlarni topish va belgilash so'ralgan, xolos. Holbuki, har qanday asarni san'at hodisasi sifatida qabul qilish zamirida matn ustida ishlashdek mashaqqatli ijodiy vazifa turadi.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, sharhli, ifodali va adabiy-ijodiy o'qish matn ustida ishlashda ham uslub, ham vosita maqomida bo'ladi. Badiiy asarni o'qishning mazkur turlari undagi har bir so'z, ibora va jumlani qiroat bilan, to'g'ri, ravon o'qishnigina emas, balki matnning umumiy ruhiga kirib, tushunib o'qishni ham anglatadi, asarning janriy xususiyatlaridan tashqari, o'ziga xos ichki tuzilishi va ruhiyatini hisobga olishni taqozo etadi. Bunga erishish uchun o'quvchilarni matn ustida jiddiy ijodiy ishlashga o'rgatish zarur. Bu esa "tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash" [2] da muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida // "Xalq so'zi" gazetasi. 2019, 9 may, №95.
2. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. www.sbtsue.uz.
3. Zunnunov A. va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Рез З.В. Методика преподавания литературы. – Москва: Просвещение, 1977.
5. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. – Toshkent, 1995.
6. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
7. Богданова О.Ю. Методика преподавания литературы. – Москва: Академия, 2002.
8. Эжен Ионеско. Театр безполезен, но необходим // Лит-ная газета. 23 ноября 1988 г.

Metodik tavsiya

Ruqiya ASHURBAYEVA,
Buxoro davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi

ONA TILI FANINI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Ijodkorlik, kreativlik kabi tamoyillarni o'zida mujassamlashtirgan integratsiya asosida ona tili fanini o'qitishda darslar turli fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etilishi lozim. Bunda integratsiyaga asoslangan ta'lim jarayoniga ehtiyoj sezilishining bir qator sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

– olamdagi bilish jarayonlari bir-biri bilan vobastaligi, mayda elementlar birlashib, butunlikni tashkil qilgani singari fanlar o'rtasidagi o'rinli aloqadorlik natijasida bilim o'z mukammalligini kashf qiladi;

– o'quvchilarni mustaqil fikrlash, voqelikdan to'g'ri xulosa chiqarish, shuningdek, kreativlik fazilatlarini o'zida mujassam etishga undaydi;

– ta'lim berishda yangi uslub va metodlardan samarali foydalanishga undaydi, ta'lim beruvchida novatorlikni shakllantiradi;

– o'quvchilarning bilimlarni tezlik bilan o'zlashtirishga imkon beradi, shuningdek, mavzu fanlararo aloqadorlikda o'tilganligi sababli o'tilayotgan fan va bog'lab o'tilgan fan ham o'quvchi xotirasida mustahkam o'rin oladi;

– ta'lim jarayonida o'quvchining psixologik, fiziologik holatini ijobiy tomonga rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu esa o'z-o'zidan integratsiyaga asoslangan dars jarayoni tashkil qilinishining muhimligi, bu masala o'qituvchi va o'quvchi uchun dolzarbligidan dalolat beradi. Integratsiya asosida ona tili darslarini tashkil qilishda adabiyot fani bilan vobastalik ko'zga yaqqol tashlanadi. Ona tili ta'limining maqsadi bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda yozma va og'zaki shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, adabiyot fanini o'qitishning bosh maqsadi sog'lom e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'z xatti-harakatlariga mas'ul bo'la oladigan komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat. Bu fanlarning maqsadi mushtarakligi, bir-birini taqozo etishi inkor etib bo'lmas ayni haqiqatdir.

Ona tili mavzularini mustahkamlashda olinadigan topshiriqlarning aksariyati adabiyot fanidan olinadi. Biz amaldagi 5-sinf ona tili darsligini ko'zdan kechirganimizda adabiyot fani bilan aloqador topshiriqlarga e'tibor qaratdik. Jumladan, **5-dars. Bosh va kichik harflarning qo'llanilishi** mavzusini mustahkamlashda A.Qahhor avtobiografiyasidan samarali foydalanilgan

23-mashq. Matnda kichik harflar bilan berilgan so'zlarni to'g'rilab, bosh harflar bilan yozing.

Mening bolalik yillarim farg'ona vodiysining yaypan, nursuq, qudash, buvayda, tolliq, olqor, yulg'unzor,

oqqo'rg'on degan qishloqlarida o'tgan. o'ttizinchi yillarning o'rtalarida bolaligimni o'ylaganimda chalakamchatti tush ko'rganday edim: dumli yulduz chiqqan edi; Babar (Bobir bo'lsa kerak) degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o'lmagan edi... (A.Qahhor)

Shu darslikning **21-darsida Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari** mavzusini o'rganishda Abdulla Avloniy ijodidan olingan namuna asosida mashq berilgan:

79-mashq. Matnni o'qing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini aytib bering. Sizning orangizda ham Qosimga o'xshagan bolalar bormi? Bu haqda o'ylab ko'ring.

Yomonlikning jazosi

Bir kishining Qosim ismli o'g'li bor edi. Ota-yu onasining so'ziga kirmasdan har xil yomon ishlarni qilar edi. Bolalar bilan urishib, yoqalashib, kiyimlarini yirtib kelar edi. Uyda mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarni yegan vaqtda onasi: «Qosim, o'g'lim! Taomni sen yedingmi?» – desa, «Men yeganim yo'q! Mushuk yegandir», – der edi. Bora-bora otasining pulini ham o'g'irlab oladigan bo'ldi. Otasi bilib: «O'g'lim, pulni kim oldi?» – desa, «Onam olgandir», – deb onasini o'g'ri qilar edi. Bir kuni otasi stol ustiga bir tanga qo'yib o'zini uxlaganga solib yotdi. Qosim kelib tangani sekin og'ziga soldi. Shu vaqt otasi uni ushlab qolmoqchi bo'lgan edi, Qosim tangani yutib yubordi. Tanga uning halqumiga tiqilib, jon berdi. Ey bolalar! Ko'rdinglarmi, yomonning yomonligi o'z boshiga yetdi. (A.Avloniy)

45-dars. Mustahkamlash darsi jarayonida esa adabiyotning nazmiy shakliga murojaat qilinib, quyidagi topshiriq berilgan:

2-topshiriq. *She'rni o'qing. Unda ishtirok etgan gap bo'laklarini aniqlang.*

– Aka, aka, bugun men
Juda qiziq tush ko'rdim.
– Qani, ayt-chi, tushingni, –
Kulib singlimdan so'rdim.
– Tushimda-chi, men bilan
Nasiba ham bor edi.
Yuzim yuvib kelguncha
Aytib bersin u, – dedi. (A.Ko'chimov)

Bunday namunalarni 5-sinf darsligidan ko'plab keltirsh mumkin. Shunday ekan, ta'lim jarayonida ona tili va adabiyot fanlari orasidagi o'zaro aloqadorlikni tashkil qilish ushbu fanlarning mukammal o'zlashtirilishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Amaldagi ona tili darsliklariga tayangan holda quyidagi bo'limlarning o'tilishida adabiyot fanidan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi

Leksikologiya	*So'z ma'nolarini o'rganishda badiiy adabiyot matnlaridan foydalanish samarali natijalarni beradi. Badiiy adabiyotdagi she'riy san'atlar tashbeh, tajnis, tazod, mubolag'a kabilar asosida antonim, sinonim, omonimlar bilan taqqoslash mumkin. Masalan, aynan omonim so'zlar yordamida tuyuq janri shakllanishiga xizmat qilishini ta'kidlash lozim.*
Leksikografiya	*So'z boyligi lug'atlar vositasida boyiydi. Badiiy adabiyot so'zning ma'no va mazmuni asosida boy tajribalarni o'zida mujassam etganligi bois o'quvchi so'z boyligining oshishida adabiyot fani samarali vosita hisoblanadi.*
Sintaksis	*So'zlarning bir-biriga bog'lanishi, gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini badiiy matnlar asosida izohlash mumkin. Badiiy matnlarda so'zlarning bir-biriga rang-barang bog'lanishi badiiy matnlarda aks etgan.*
Punktuatsiya	*Har bir tinish belgining qaysi holatlarda qo'llanilishini adabiyot fanida berilgan she'riy satrlar, nasriy matnlar asosida izohlash mumkin.*
Morfologiya	*So'z turkumlari va yordamchi so'zlar xalqning jonli tili aks etgan badiiy adabiyot namunalaridan foydalanib tushuntirilganda mavzuning anglanishi oson kechadi.*
Uslubiyat	*Nutq uslublaridan biri aynan badiiy uslub deb nomlanadi. Badiiy uslub badiiy adabiyotga tayanadi va badiiy matnlardagi namunalar asosida tushuntirilishi maqsadga muvofiq sanaladi.*
Fonetika	*Urg'u mavzusini tushuntirishda adabiyot fani alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, aruz vazni bevosita urg'u, hijolarning ochiq va yopiqligi, barmoq vaznidagi qofiyalanish san'atlari fonetika bo'limi bilan bog'liq.*
Dialektologiya	*Shevalardan o'rinli foydalanish adabiyotning xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'rin olgan.*

Xullas, amaldagi darsliklarda tilshunoslik bo'limlarini o'rganish jarayonida bir-birini taqozo etuvchi ikki fan o'zaro bog'liqlikda o'qitilmas ekan, Davlat ta'lim standarti tomonidan qo'yilgan talablar to'la-to'kis bajarilmaydi. Mushtaraklik asosida esa xalqimizning milliy madaniyati, urf-odatlari-yu milliy ruhi saqlanib qolgan bo'lar edi. Zero, millat milliyligining bardavomligi porloq kelajak garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldosheva D. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili o'qituvchilariga ochiq xat. Maktab partasida o'tirgan bolalarimizning barchasi tilshunos bo'lishi kerakmi?
2. Жгенти И.В. Педагогические идеи Л.Н.Толстого в контексте проблем профессионального мастерства современного учителя. // Казанский педагогический журнал, 2015. №4. – 271 с.
3. Mahmudov N. va boshq. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. To'ldirilgan 4-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
4. Ne'matova G. va boshq. Maktabda ona tili darslarini adabiyot, biologiya mavzulari bilan bog'lab o'qitish. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2019.
5. www.ziyouz.com kutubxonasi. Navoiy Alisher. Lison ut-tayr. (Nasriy bayonni Sh.Sharipov tayyorlagan).
6. http://urok.1sept.ru Романовская А.Л. Методика проведения интегрированных уроков в колледже.

N.JURAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti aniq fanlar fakulteti
Informatika kafedrasi dotsenti v.b.;
H.IBROHIMOVA, R.YAXSHIBOYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti o'zbek tili va
adabiyoti fakultetining 2-bosqich talabalari;
N.MADAMINOVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti aniq
fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

"NG" HARF BIRIKMASI ELEKTRON BAZASINI TUZISHDA KLASSIFIKATSIYALASH VA SISTEMALASH MUAMMOLARI

Ma'lumki, matematik lingvistika fani XX asrning 50-yillarida tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida yuzaga kelgan. Matematik lingvistika bu – tabiiy tillarning matematik modellarini ishlab chiqish va shu asosda algoritmini tuzish bilan shug'ullanuvchi fan bo'lib, kompyuter lingvistikasi matematik lingvistika fanining mantiqiy davomi hisoblanadi.

Kompyuter lingvistikasi o'zbek tilining jahon miqyosiga olib chiqilishi hamda uni o'rganish, o'rgatish ishlarining takomillashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o'zbek tilida o'qitadigan, bilimlarni baholaydigan kompyuter dasturlarni ko'paytirish; o'zbek tili grammatikasini o'rganishda turli xil mashqlarning kompyuter dasturini ishlab chiqish; o'zbek tili darsliklarini kompyuter dasturlar yordamida o'rganish; o'zbek tilining formal grammatikasini ishlab chiqish va boshqa shu kabi ko'plab muammolarni bartaraf etish o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu turdagi ishlarni amalga oshirishda tilda mavjud kamchiliklarni kamaytirishga to'g'ri keladi. Til kamchiliklardan xoli bo'lsagina undan foydalanish qulaylashadi va qadr-qimmatini saqlab qoladi. Shu maqsadda o'zbek tilshunosligiga tegishli istisno holatlar bilan shug'ullanish, imkon qadar shunday holatlarni kamaytirish, grammatikani kam ishlatiladigan qismini qisqartirish kabi masalalarning hal etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun o'zbek tili grammatikasi hozirgi zamon talablariga mos ravishda sistemalashtirish va shu asosida formal grammatikani ishlab chiqish kerak.

Bu ishlarni bajarish jarayonida tilning yozma shaklida yuzaga keladigan imlo bilan bog'liq muammolarga duch kelish mumkin. Ana shunday holatlardan biri **ng** harf birikmasi va **n**, **g** qo'sh undoshlaridir. Bu holatda so'zni bo'g'inlarga ajratishda noqulayliklarga duch kelinadi. Ushbu harf birikmasi bo'g'inga bo'linmaydi, biroq **n** va **g** qo'sh undoshlari bu qoidadan mustasno. Ularni bir-biridan farqlash borasida qator tilshunoslar o'z nuqtayi nazarlarini bayon etishgan, jumladan, Nargiza Erkaboyeva muallifligid - gi majmuada sof o'zbekcha barcha so'zlar asosi **ng** harf birikmasi sifatida qabul qilingan. Unga ko'ra *de-ngiz, ko'-ngil, si-ngil, tong, ta-nga, ya-ngi, ya-nga, zang, tang-lay, mang-lay, shud-ring, bod-ring, da-nga-sa* kabi o'zbekcha so'zlarda **ng** bitta tovushni ifodalaydi. *Ingliz, kongress, shtanga* kabi baynalminal so'zlarda harflar soni bilan tovushlar soni teng deb olingan. **ng** tovushi ikki unli o'rtasida kelganda ikkinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi va bir satrdan boshqasiga shunday ko'chiriladi: *si-ngil, de-ngiz, opa-ngiz* kabi. Agar **ng** tovushidan keyin undosh kelsa, **ng** tovushi birinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi: *sing-lim, teng-qur, ang-lagan* kabi.

Bizningcha, bunday qoidalarni rad etuvchi istisno holatlar ham mavjud, ya'ni o'zlashgan so'zlar davrga ham bog'liq bo'lib, *bodring, rang, jang, chang, sang* va boshqa so'zlardagi qator kelgan undoshlarni biz **ng** harf birikmasi deb qabul qilganmiz. Bunday so'zlar bir necha asrlar ilgari tilimizga o'rnashgan va o'z qatlam so'zlar qatoridan o'rin olgan. Shu sababli unga alohida ikki undosh deb qarash noto'g'ri. Bunga sabab quyidagilar:

1. Tilimizda **ng** harf birikmasi ishtirok etgan shunday so'zlar borki, ularni **ng** tarzidan talaffuz qilib bo'maydi. Masalan, *tanga, dangasa, hingillamoq, jangari, rangin* kabi so'zlarda **ng** harf birikmasi mavjud, lekin talaffuzda **n** va **g** tarzida, ya'ni *tan-ga, dan-ga-sa, hin-gil-la-moq, jan-ga-ri* deb talaffuz qilinadi. Bu esa yozuvda bir qancha xatoliklarni keltirib chiqaradi.

2. Forschada – *bong*, inglizchada – *miting*, fransuzchada – *flang*, nemischada – *shlang* va shu kabi o'zlashgan so'zlarning oxiridagi **n** va **g** harflari ishtirok etgan bo'lsa-da, biz uni talaffuzda **ng** harf birikmasi kabi talaffuz qilamiz, lekin o'zlashgan so'z bo'lganligi sababli ular yonma-yon kelgan **n** va **g** undoshlaridir.

3. *Sang* so'zi forschadan kirib kelgan va *tosh* ma'nosini anglatadi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan, forscha – *go'p – zarb* va *sang* ma'nosini beruvchi "katta hovoncha" – *go'psangi* so'zi chetdan kirib kelgan o'zlashma so'z bo'lishiga qaramay *go'p-sa-ngi* shaklida bo'g'inga ajratiladi. Chunki u *sang* so'zidan yasalgan va bu hodisa davrga bog'liq. Shu maqsadda *sang* so'zini **ng** deb qabul qilishimizni yodga olgan holda *go'p-san-gi* deb bo'g'inga ajratishimiz xato sanaladi. Shu kabi so'zlar qatoriga *jang, jangari* so'zlarini ham kiritamiz.

4. *Bang* so'zi hind tilidan kirib kelgan o'zlashma so'z bo'lib, forslar ushbu so'zga ***-i*** affiksini qo'shish orqali nasha chekuvchi odam – *bangi* so'zini yasagan. Asos *bang* bo'lsa ham, lekin uni *ban-gi* shaklida bo'g'inga ajratishimiz to'g'ri bo'ladi.

5. Yana shunday o'zlashma so'zlar ham borki, kundalik hayotda umuman qo'llanilmaydi yoki kam qo'llanilganligi sababli u so'zni qanday talaffuz qilishni bilmaymiz va buning oqibatida talaffuzda ham, yozuvda ham bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yamiz. Jumladan, *ringgit* so'zi

Malayziyaning asosiy pul birligi, bu so'zni *ring-git* shaklida talaffuz qilib, xuddi shunday bo'g'inga ajratishimiz mumkin, lekin bu shakl noto'g'ri, chunki bizni so'zning o'rtasida kelgan **ng** harf birikmasi chalg'itadi. "O'zbek tilining krill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati kitobi"ga ko'ra o'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *dio-gramma, mono-grafiya* kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

Mana shu qoida asosida *ringgit* so'zini *rin-ggit* shaklida bo'g'inga ajratamiz.

6. Ba'zi boshqa tillardan kirgan so'zlar, masalan, *bank, tank, shlang* kabi so'zlarga -a harfini qo'shib *banka, tanka* tarzida talaffuz qilishimiz natijasida uni bo'g'inga ajratganimizda *shlan-ga* bo'ladi.

7. O'zbek tilshunosligida undoshlar yonma-yon qo'llanilishi mumkin, ammo bunday holatlar kamdan kam uchraydi. Yonma-yon undoshlar, asosan, fors tilidan kirib kelgan *hangoma, changal* kabi o'zlashma so'zlarda mavjud. Bunday so'zlarga qo'shimchalar qo'shilib yangi so'zlar yasaladi va o'zbekcha so'zlar qatoridan joy oladi. Bunday so'zlar o'zbekchalashgan so'z bo'lsa ham, ular tarkibidagi **n** va **g** undoshlariga alohida ikki undosh kabi qaraladi, sababi asos o'zlashgan so'z bo'lib qolaveradi.

Sanab o'tilgan kamchiliklardan kelib chiqib **ng** harf birikmasi hamda **n** va **g** undoshlarini farqlashga yordam beruvchi bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Dastlab **ng** harf birikmasi va **n** va **g** undoshlari ishtirokidagi so'zlarning elektron kompyuter bazasi yaratildi. Mazkur baza asosida kompyuter dasturi ishlab chiqildi. Elektron baza yaratish, **ng** harf birikmasi **n** va **g** undoshlarini ajratib olishda zarur so'z va so'z birikmalari qatorini tanlab olish uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati" (Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008)dan foydalanildi. Ushbu lug'at hozirgi o'zbek adabiy tilidagi keng iste'molda bo'lgan 80 mingdan ortiq so'z va so'z birikmalari, fan, texnika, san'at, madaniyat sohalariga oid terminlar, bir necha shevada qo'llaniladigan so'zlarning ba'zi tarixiy va eskirgan atamalarini o'z ichiga oladi. Lug'atda berilgan so'zlarning amalda qo'llanilishi XX asrning o'zbek adabiyoti va matbuotidan olingan misollar bilan dalillangan. Lug'at o'zbek tilshunosligi va turkiyshunoslik bo'yicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositasi xodimlari, oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari va talabalari, shuningdek, keng o'quvchilar ommasi uchun mo'ljallangan.

Ushbu 80 ming so'zdan **600** ga yaqin **ng** harf birikmasi hamda **n** va **g** undoshlari qatnashgan so'z, so'z birikmalari, fan, texnika, san'at, madaniyat sohasiga oid terminlar, shevada qo'llaniladigan so'zlar, tarixiy va eskirgan atamalar ajratib olindi. **600** ga yaqin so'z, so'z birikmalari tarkibidan **400** ga yaqin **ng** harf birikmali so'z va so'z birikmalari va **200** ga yaqin **n** va **g** undoshli so'z va so'z birikmalari sifatida taqsimlandi. Bazadagi har bir so'zning maqbul yozilish shakli, o'zlashma so'zlarning kelib chiqishi – etimologiyasi ko'rsatilgan, so'zlarning aniqlangan ma'nolari berilgan. Va, eng asosiysi, so'zlar alohida bo'g'inlarga ajratib ko'rsatilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" tarkibidan ajratib olingan materiallar "O'zbek tilining imlo lug'ati" (Toshkent: Akademnashr", 2013) bilan taqqoslandi. Aynan ishning maqsadi ham foydalanuvchi uchun murakkab bo'lgan bo'g'inga ajratish va so'zni imlo qoidalariga muvofiq tarzda yozishda ikkilanish holatlarini to'g'rilashga qaratilgan. Bunday vaziyatda elektron dasturlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Po'latov. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
2. S.S.Babayev. O'zbek tili morfologiyasi formalizatsiyasidan foydalanib morfologik va semantik lug'at qurish. Magistrlik dissertatsiyasi.
3. N. Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.

Mukarramxon MULLABOYEVA,
Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani
10-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

SHAKLDOSH SO'ZLAR

(V sinf ona tili)

Maqsad: a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarning shakldosh so'zlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash, qo'shimcha yangi ma'lumotlar berish, nutqiy va lingvistik kompetensiya elementlarini shakllantirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilar qalbida ona-Vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalash, ularda o'zaro hurmat va intizomga amal qilish kabi axloqiy sifatlarni kamol toptirish, ijtimoiy faol fuqarolik, kommunikativlik kompetensiya elementlarini shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, og'zaki va yozma savodxonligini oshirish, xotira mustahkamligiga erishish, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi elementlarini shakllantirish;

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: *"Ma'nolar gulshani", "Tezkor zehn", "Suratdagi sir"*

Dars jihozi: 5-sinf ona tili darsligi, slaydlar, ekran,

videoproyektor, baholash uchun qalamdon, qalamlar, markerlar, "O'zbek tilining izohli lug'ati".

Baholash tartibi: yakka tartibda baholash uchun qalamlar va qalamdon, guruhni umumiy baholash uchun bunyodkorlik ishlari.

Dars shiori: Ilmli kishi xor bo'lmas.

Darsda vaqt taqsimoti:

Dars bosqichlari	Ajratilgan vaqt
Tashkiliy qism	3 daqiqa
O'tilgan darsni so'rash	7 daqiqa
Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
O'quvchilarni baholash	5 daqiqa
Uyga vazifa berish	5 daqiqa

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:

a) o'quvchilar bilan salomlashish;

b) darsga tayyorgarligini tekshirish;

d) o'quvchilarni guruhlarga bo'lish: sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi.

O'quvchilar guruhlarga bo'linadilar va ularga quyidagicha nom beriladi:

1-guruh: "Ona-Vatan"

2-guruh: "Ota-makon"

3-guruh: "Go'zal diyor"

O'qituvchi dars usuli va baholash tartibi haqida o'quvchilarga ma'lumot berib o'tadi.

O'qituvchi: Hurmatli o'quvchilar! Bugungi darsimizni guruhlararo musobaqa usulida va bunyodkorlik g'oyasi asosida olib boramiz. Guruhlar o'zlarining bunyodkorlik salohiyatlarini namoyish etadilar. Darsimiz davomida go'zal, betakror **"Tashkent city"** barpo etishni taklif qilaman. Qurilish ishlarini xalqimizning qadimiy va an'anaviy qadriyatlaridan biri bo'lgan hashar yo'li bilan bitkazamiz. Faqat **"Tashkent city"**ni siz jismoniy mehnat bilan emas, balki aqliy mehnat bilan bunyod etasiz. Bunda sizga darslarda olgan bilimlaringiz yordamga keladi. Qachonki, berilgan topshiriqni to'g'ri bajarganingizda sizga bunyodkorlik ishiga ruxsat beraman. Yakka tartibda baholash quyidagicha: har bir to'g'ri javobingiz uchun qalamdoningizni bitta qalam bilan boyitib borasiz. Dars so'ngida qalamlar soniga qarab o'zingizni o'zingiz baholaysiz.



Bolajonlar, bugun men sizning huzuringizga eng yaqin do'stim bilan birga kelganman. U mening shunday do'stimki, meni aslo xafa qilmaydi. Doim mening maslahatchim, hamrohim. Shu do'stim bilan tanishishni xohlaysizlarmi? Unda tarnishing. Bu do'stim kitobdir. Siz ham kitob o'qishni yoqtirasizmi?

O'qituvchi o'quvchilarnning kitob haqidagi fikrlarini tinglaydi.

Barakalla, bolajonlarim, sizning yoshligingizdan kitobga bo'lgan qiziqishingiz tahsinga loyiq. Kitob bilan hamroh bo'lgan, badiiy kitobni ko'p o'qigan o'quvchining nutqi ravon bo'ladi, so'z boyligi oshadi, so'zlarni o'rinli qo'llashga o'rganadi. Avvalgi darsimizda o'rganganimiz ma'nodosh so'zlarni o'z o'rnida o'rinli qo'llay olishimiz ham so'z boyligimizdan dalolatdir. Keling, o'tgan mavzumizni mustahkamlab olamiz.

II. O'tilgan darsni so'rash va mustahkamlash.

34-mashq uyga vazifa qilib berilgan. Mashq shartiga ko'ra ***buyruq, bajarmoq, ilg'or, kiyim, iste'dodli, o'rtoq*** so'zlarining ma'nodoshlarini topib, ular ishtirokida gaplar tuzib, daftarlariga yozib kelish topshiriq qilib berilgan. O'quvchilar berilgan so'zlarning ma'nodoshlarini to'g'ri topganliklarini slayd orqali bilib oladilar.



O'tgan mavzuni mustahkamlash uchun "O'tkir zehn" usulidan foydalaniladi. Yozuv taxtasiga oq qog'oz ilinadi. Unga o'qituvchi uchta so'z yozgan. O'quvchilar bu so'zlarning ma'nodoshlarini topib, ma'nodoshlik qatorini hosil qiladilar.

O'qituvchi guruhlar har bir topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganlarida bunyodkorlik ishini davom ettirishga ruxsat beradi.

III. Yangi mavzu bayoni:

O'qituvchi: Bolajonlarim, keling, yangi mavzuga o'tishdan avval ertak eshitib, dam olaylik.

Shakldosh so'zlar haqida ertak tinglanadi.

Ertakdan so'ng o'qituvchi yangi mavzuni slaydlarda "Suratdagi sir" usuli orqali tushuntiradi. Slaydlarda shakldosh so'z bir marta yozilib, ma'nolari ko'rsatilgan. O'qituvchining tushuntirishlaridan so'ng bu so'zning har bir ma'nosi alohida so'zni ifodalashini, shakldosh so'zning ma'nosi nechta bo'lsa, har biri alohida mustaqil so'z ekanligini anglaydilar.







So'ng darslikdagi mashqlar bajariladi.

35-mashq shartiga ko'ra gaplarni o'qib, shakldosh so'zlarni topib, ma'nosi izohlanadi. Birinchi gap juftligi o'qituvchi yordamida bajariladi.

1. Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi. Yaxshilarning etagini tut, adashmaysan.

Shakldosh so'zlar: *tut – meva*

tut – ish-harakat

Mashqdagi gaplar guruhlar tomonidan bajariladi. Ikkinchi gaplar juftligini 1-guruh, uchinchi gaplar juftligini ikkinchi guruh, to'rtinchi gaplar juftligini uchinchi guruh o'qib, shakldosh so'zlarni topadilar va ma'nosini izohlab beradilar. Topshiriqni to'g'ri bajargan guruh bunyodkorlik ishini davom ettiradi.

2. Yoz – o'tmoqda ***soz*** – soz, ya'ni yaxshi o'tmoqda.

Dutor – eng yaxshi ***soz*** – cholg'u asbobi

3. Arg'amchiga ***qil*** quvvat – ot va ba'zi hayvonlar dumi yoki yolining har bir tolasi, soch tolasi.

Nomusni yoshlikdan ehtiyot ***qil*** – ish-harakat

4. ***"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"*** ni hayotga tatbiq etmoq – korxona, muassasalarning maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlari.

Filmdagi eng yaxshi chiqqan kadrlarni ko'satmoq – kinofilmning ayrim bir ko'rinishi, bitta epizodi

Gaplar tarkibidagi shakldosh so'zlarni to'g'ri aniqlab, izohlagan guruh bunyodkorlik ishini davom ettiradi, faol bo'lgan guruh a'zolari qalamdonlariga yana bittadan qalam soladilar.

36-mashq shartiga ko'ra berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzib, matndagi ma'nosi izohlanadi. Vaqtdan unumli foydalanish uchun so'zlar guruhlarga to'rttadan bo'lib beriladi. So'zlar ma'nosini aniqlashda o'quvchilarga yordam beriladi. Mushak, taxt, karam so'zlarining ma'nosi **"O'zbek tilining izohli lug'ati"**dan o'qib-o'rganiladi.

Karam I (a-f) – poliz ekini va shu ekinning barglari o'ramidan hosil bo'lgan boshi, hosili.

Karam II (a. Yaxshilik saxovat) – marhamat, muruvvat, himmat.

Mushak I (f) – muskul.

Mushak II (f) – turli tarkibli porox moddalar bilan to'ldirilgan, xilma-xil, ajib ranglar hosil qilib portlaydigan raketa, snaryad. Sayil va tantanalarda mushakbozlik uchun, harbiy ishda esa signal berish va yoritish uchun ishlatiladi.

37-mashq shartiga ko'ra o'quvchilar berilgan gaplarni daftarlariga ko'chirib yozadilar va shakldosh so'zlarga izoh beradilar.

Topgan gul keltirar, topmagan – bir ***bog'*** piyoz – dastalab belidan bog'langan.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ko'plab ***bog'lar*** barpo qilindi – mevali daraxt, tok va gul bilan band yer maydoni, mevazor, chamanzor, bo'ston.

Ozodlik – biz uchun eng katta ***davlat*** -- boylik, mol-dunyo, mol-mulk.

Eli boy ***davlat*** kuchli va qudratli bo'lur – mamlakat, yurt.

Ertalab atrofni qalin ***tuman*** qopladi – tabiat hodisasi, atmosferaning quyi qatlamlarida yuzaga keladigan mayda suv yoki muz zarralari.

Bizning ***tumanimizda*** bir qancha sport inshootlari qurildi – viloyatlarning tarkibiy qismi.

IV. Mustahkamlash. Darsning bu bosqichi "Ma'nolar gulshani" deb nomlanadi. Guruhlarga lola tasviri tushirilgan oq qog'oz beriladi. Lolaning gul qismiga shakldosh so'zlar yozilgan. O'quvchilar so'zlarning ma'nolarini aniqlab, lolaning barglariga yozadilar. Topshiriqni muvaffaqiyatli bajargan guruh bunyodkorlik ishini davom ettiradi, faol ishtirok etgan o'quvchi qalamdonini yana bitta qalam bilan boyitadi.

V. O'quvchilarni baholash. O'quvchilar qalamdonlarida to'plangan qalamlar soniga qarab o'zlarini baholaydilar. Guruhlarning bunyod etgan **"Tashkent city"**lari namoyish etiladi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa. 38-mashq. *Bor, yoq, dog', sir, tush* so'zlari ishtirokida gaplar tuzish, ularning matn ichidagi ma'nolarini izohlash.

Mokhira JURAEVA,
Teacher of the Department of Teaching English Language Methodology
at Uzbekistan State World Languages University

IMPROVING STUDENTS' POLILOGIC SPEECH SKILLS IN ROUND TABLE DISCUSSIONS

As we know, oral type of speech consists of monologue, dialogue and polilogue. [1:150] Polilogue is the speech or communication of three and more people. It does not only consist of monologic and dialogic speech skills, but also group discussions, conversations, debates, round table discussions. According to the CEFR, students enter universities with B1 and B2 levels, therefore, it is necessary to improve their polilogic speech to C1 as well. [3:30] There are many methods that are used to increase polilogic speech skills, nevertheless we are going to give information about the importance of a method of round table discussion. This method is really handy for students who lack in speaking and are shy. This method helps not only improve speaking, but also other skills. For example:

– communication skills
– leadership skills
– organizational skills
– opening ideas skills
– critical thinking and problem-solving
– agility and adaptability
– accessing and analyzing information
– curiosity and imagination and etc.

Before having a round table discussion, we should be informed about some of its certain rules.

First. Select your topic and objective for your discussion. You can begin by selecting an interesting but relevant topic based on your current lessons that would engage your students in dialogue. You can even let your students select a topic for debate if you want them actively involved in the entire RTC discussion.

How do you know the right kind of topic to present as your RTC? To start, select a topic where students can easily sort information by pros and cons, or where students can agree or disagree with a statement you posed.

For example, as an UzSWLU teacher I might ask students to discuss the pros and cons of "Decision making". I'd consider whether the topic that I chose could be broken down into several supporting questions for students to answer, and that they can find significant reading and research to help them develop a strong position on the topic they will be discussing.

Next. Provide the students with the reading material and extended sub-topic research ideas to ensure that each student has at least one point to contribute to the discussion. The reading and research can begin in class and then extend to homework so that when they return to class for the Round Table Circles discussion they are prepared. It is important at this early stage to review your state standards and aligned textbooks to mine them for background readings that provide an overview of the topic. This will allow the students to connect the discussion to the overall course.

I might provide students with resources that align to the overarching guiding question and support questions I'd provide to students on the day of their discussion. This way, I can ensure that students are preparing for their discussion using appropriate resources aligned to the questions they will be answering.

During round table discussion:

First. Using whatever preferred method of grouping you like, divide the class into groups of 6 to 8 students. Each group will sit in a circle facing each other and then select a moderator to ensure everyone participates and keeps the discussion flowing, keeping the conversation on task and focused on the discussion topic. The moderator will be given a form to keep track of participation. In addition, all students will record the discussion for later use in a notebook or notes worksheet.

For example, for this topic I might decide to homogeneously group students so I can spend more time supporting one group that is struggling with this activity.

Next. Lead the RTC by asking questions for the group to discuss. These questions should align to your chosen topic and the resources students used to research the topic, should be open ended to allow for significant discussion, and should help lead students to develop a position for or against the topic.

A: The teacher would first present a guiding question for the lesson cycle, and then will state the additional support questions that will help students develop positions for their guiding question.

For example: If my lesson cycle focuses on the pros and cons of Free Trade, the guiding question might be "Is Free Trade Worth the Price?". This will become the question that allows students to develop their position on the topic. In order to defend their position on this question, though, students will need to participate in a deep discussion of ideas surrounding this topic, by answering pre-scripted support questions developed by the teacher.

B: Using a timer and an overhead projector or a slide show, the teacher can help keep the discussion moving and on task while providing the time needed for students to discuss the supporting questions. This process is designed to help them debate the topic and come to a consensus on whether they take a "pro" or "con" position. You may assign the position of moderator to one student in each group, and require this student to both ask the questions for discussion and to challenge answers from their peers to help engage in more dialogue.

For example, a support question on free trade might be: "What are the arguments for free trade?". The selected student moderator of the group then repeats the question and polls each student for their response, evidence, and reasoning. The students are to record their own response and everyone else's. The next question might say something to the effect of "What are the arguments against free trade?" and the process is followed again.

C: While the discussions are occurring, the teacher is circulating the room and actively monitoring the class ensuring students are staying on task and each student is participating in the discussion. You may stop in at a group and ask a student to expand on an idea, check that a student's argument is valid, or ask students to support their idea using evidence from their readings. You may also check that students are

taking adequate notes and conducting sufficient research to analyze and discuss each support question. This will help them develop a strong position to their overarching question. Monitor the RTC discussions frequently to ensure that students are engaging in meaningful and relevant dialogue with one another during this time.

In the example on the Free Trade RTC, I would be listening for some of the key vocabulary being studied on the topic. Are the students utilizing their resources to support their positions? Is there a constant relevant discussion happening with the student moderator challenging assumptions in the group answers? Are their discussion notes detailed?

D: After completing all of their discussions over the supporting/guiding questions students will then take either a pro position or a con position, based on what was discussed in their RTC. Along with selecting their position, students are required to state their reasoning behind their position, using information they have discussed or evidence they read in order for their group to eventually reach a consensus on the topic.

Remember, the guiding question for this lesson cycle is: "Is Free Trade Worth the Price?" Since students answered support questions that helped lead them to a conclusion on whether they are for or against Free Trade, they can now point to evidence from their discussion notes and cite evidence from their prep work to justify their position.

The challenge, of course, is to have the group reach a consensus on the overall groups position on the topic. The easiest way to approach this consensus is to allow the student moderator to conduct a final poll of the discussion group and receive each participant's position. The moderator can then tally the position of each student in the group and select the majority position as the group's final position

Last. Finally, each discussion group will collaborate to participate in a final debate between groups. This can be approached in many ways: you can conduct a whole class debate between groups, you can require students to create a presentation for the class to explain their reasoning, you can assign a final position paper on their stance, or anything else that allows for more whole class discussion. [3:156]

Some pieces of advice:

– Start with general questions and lead up to your students' particular experience.

– Remember to ask leading questions which prompt your guests to talk.

– Really listen to the answers and be prepared to develop any interesting points.

– Remember your time limit and stick to it.

– During the discussion don't forget to use some phrases according to the stages of poly log. For example:

Starting: Good morning, everyone. Shall we get started? We want to discuss... The main aim of this discussion is..., There are three/several/a number of points I'd like to make.

Taking the floor: I wonder if I might comment on that last point? Could/May I come at that point?

Checking an agreement: Are we all agreed? So we are going to...

Moving on: Shall we move on to...? Let's turn to...

Disagreeing: I disagree, I don't think it will work.

Asking for clarification: What do you mean by...? I didn't follow what you said about...

Coming back to the main point: I think we're getting sidetracked. Can we get to the main point?

Asking for an opinion: What's your opinion of...? How do you feel about this idea? What's your reaction to this suggestion?

Dealing with interrupting: Just a minute. Let me finish..., Hang on..., I haven't finished, I could finish..., Just a minute... .

Asking for further information: Could you be more specific precise? I'm sorry but could you explain in a little more detail?

Correcting misunderstanding: I'm afraid there seems to have been slight misunderstanding. Perhaps, you should make that clearer by saying...

Building up an argument: For a start.../First of all.../And what is more.../And that's not all.../And don't forget either that.../Of course, another consideration must be.../And finally you've got to bear in mind that...

Presenting a counterargument: Still.../At the same time.../ However.../On the other hand.../If you look at it from another angle...

Closing a discussion: Thank you for a very fruitful productive discussion… That's rather strange, awful, nice; Brilliant; Excellent; Just on the contrary; etc.

Phrases expressing priorities: What I'd like to do is to...; I can't think of anything more satisfying than...; What's really important to me is to...; For me, the (next) most important thing would be to...; etc.

Link words. Adding points. Reporting conclusions: On the whole; In general; Summing up all you've just said; Let's come to a conclusion; After all I mean; In addition...; On top of that; To make matters worse; To sum up; In conclusion; All things considered, we feel that...; etc.).

Round table discussions are one of the most effective ways that there is to create a memorable event, and they can also come in handy for internal communication. Public round table discussions typically take place in front of audiences at conferences and expos, while private round tables are usually used for corporate away days and brainstorming sessions. The problem is that sometimes people set out with the best of intentions but fail to host an effective discussion. Perhaps, they don't moderate it enough, or perhaps they over-moderate and not everyone is given a fair chance to talk. Perhaps, they drag on too long or don't actually lead to a solid conclusion.

References

1. Akhmedova L.T., Normuratova V.I. Teaching English Practicum. 2011. – pp. 164.
2. B. Bannet, C.Rolheisser, L.Stevahn. "Cooperative Learning". 1990. – pp. 340.
3. Sh.T.Bo'taev, N.M.Yuldasheva. Umumyevropa kompetensiyalari tizimi (CEFR) asosida til o'rganuvchilarning bilimini baholash uchun qo'yilgan talablar (uslubiy qo'llanma). – Toshkent, 2017. – 40 b.
4. Mac Innis, J.L. (2006). The elements of great public speaking: How to be calm, confident, and compelling. – Berkeley, CA: Ten Speed Press.
3. Maxey, C., & O'Connor, K.E. (2006). Present like a pro: The field guide to mastering the art of business, professional, and public speaking. – New York: St. Martin's Press.
4. McKerrow, R.E., Gronbeck, B.E., Ehninger, D., & Monroe, A.H. (2000). Principles and types of speech communication (14th ed.). – New York: Longman.

Dildor NURMUHAMEDOVA,
Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi
23-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi,
Xalq ta’limi a’lochisi

O‘QUVCHI NUTQI – MILLIY TIL KO‘ZGUSI

O‘qituvchi o‘quvchi intellektini o‘rganib, nutqiy savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar tayyorlash jarayonida nutqning aniqligini ta’minlashda tinish belgilar, bog‘lovchi vositalarni to‘g‘ri ishlatish, so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash; nutq ta’sirchanligini oshirishda tasviriy ifodalar, ko‘chimlar, turg‘un birikmalarning o‘quvchi nutqidan o‘rin olishi, mumtoz matnlar g‘oyasini aniqlash, matnni ifodali va ravon o‘qish, mazmunli va savodli yozish, fonetik hodisalarning og‘zaki va yozma shaklini farqlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratishi zarur. Quyida 8-sinf ona tili darsligi[1] va izlanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar misolida nutqiy savodxonlikni sifatli shakllantirishga qaratilgan didaktik topshiriqlarni tayyorlash va shu asosda bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limiy usullar haqida so‘z yuritamiz.

I. So‘z boyligini oshiruvchi omillar:

1. Lug‘at bilan ishlash – o‘quvchining nafaqat so‘z boyligini oshiruvchi, balki ijodiy tafakkurini ham shakllantiruvchi omillar biridir. 1-mashqda berilgan so‘zlarning ma’nolarini aniqlab olish uchun jadvalli tarqatma tayyorlaymiz (3-bet):

Viqor	Nopok, iste’molga yaramaydigan	**Iffat**	Tarbiya, xushmuomamalali, yaxshi axloq
Kibr	Odob-axloq doirasiga sig‘maydigan ish	**Hayo**	Vijdoni poklik, nomus
G‘urur	Mag‘rur, ulug‘vor ko‘rinish	**Odob**	Uyat, sharm
Gunoh	O‘zini hammadan yuqori his etish	**Ma’naviyat**	Bilim, ilm-ma’rifat
Harom-harish	O‘z qadr-qimmatini bilish, hurmat qilish, izzat-nafs	**Ziyo**	Axloqqa, insonning ichki dunyosiga oid

2. So‘zni to‘g‘ri qo‘llash. So‘zlarning etimologiyasini o‘rganish ham so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash kompetentligini rivojlantiradi. Demak, biz lug‘atlar asosida o‘quvchining tez qabul qilishi va mustaqil izlanishiga ko‘maklashuvchi didaktik topshiriqlar tayyorlashimiz mumkin:

“Insert” usuli yordamida so‘z qo‘llash ko‘nikmasini tekshiramiz: **“B”** – men bilgan ma’lumotni tasdiqlaydi; **“+”** – yangi ma’lumot; **“–”** – men bilgan ma’lumotga zid; **“?”** – meni o‘ylantirdi, bu borada menga yangi ma’lumotlar kerak.

Xonim kim? Begim kim?			
Xotinlarni falonchi xonim yoki begim deb atash bor. Bu so‘zlardagi -im qo‘shimchasini egalik qo‘shimchasi deb tushunish bor. U holda nima uchun egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda xon bilan bek ayol kishiga aylanadi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Qadim turkiy tillarda *ona* ma’nosidagi *uma* so‘zi bo‘lgan. Bu qo‘shimcha ixchamlashib -im ko‘rinishiga aylangan. Demak, aslida *xonim – mening xonim* emas, *xon ona*, *begim – mening begim* emas, *bek ona* degan ma’noda ekan.			
○ B	○ :	○ ±	○ ?

Paronimlarni to‘g‘ri qo‘llay olmaslik ham nutq sofligiga putur yetkazadi: *asr – asir, xil – hil, shox – shoh, bop – bob, tup – tub, sut – sud, yot – yod, qad – qat, jodi – jodu, azim – azm, yonilg‘i – yoqilg‘i* kabi. Shundan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning so‘zlarni bir-biriga solishtirib, ma’nosini chaqishga yo‘naltirilgan tarqatmalar tayyorlash maqsadga muvofiq hisoblanadi

“Mos so‘zni toping” didaktik usuli[2]:

Aravadagi bir necha bog‘ beda ustida o‘lgan otning …lari yotardi. (A.Qahhor)

AFZAL — Nisbatan durust, ma’qul

ABZAL — Ot asboblari majmuyi

~~AVZAL~~ — Talaffuz etilishdagi xatolik

Nomussiz yurmoqdan nomusli o‘lgan … . (Maqol)

3. Nutq ta'sirchanligini oshirish. Odatda, so'zlarning turg'un birikmasi nutqda holat, xarakter, ichki kechinmalarni ifodalash uchun xizmat qiladi:

1. Botirjon, ***sal mazam qochdi. Boshim aylanib, ko'zim tinyapti.*** 2. Dadam ***qo'li ochiq odam edilar.*** 3. Rangi ***quv o'chib,*** yupqa lablari ***titrab, ko'zlarining paxtasi chiqib ketdi.*** (59-bet)

"Bu – meniki!" usuli yordamida iboralarning ma'nolari izohlanadi[3]:

Ibora	*Ma'nosi*	*Ibora*	*Ma'nosi*
Aqlini tanidi	Esli-hushli bo'ldi	Dong qotdi	Kutilmagan hodisaga duch kelib, karaxt bo'lib qoldi
Barmog'ini tishladi	Hech narsa qilolmay qoldi	Boshi osmonda	Nihoyatda xursand
Childirmasiga o'ynadi	Kimningdir izmi bilan, yo'l-yo'rig'i bilan ish ko'rish	Eldan burun	Vaqtidan oldin, barvaqt

4. O'xshatmalar yordamida xalqona tasvirlardan unumli foydalanish. Bunda badiiy asarlarda uchrovchi o'xshatmalar tasvir so'zlar bilan almashtiriladi. O'quvchilar tomonidan badiiy asarlar mutolaasi davomida aniqlangan o'xshatmalar dars davomida foydalanish mumkin bo'lgan didaktik o'yinlardan biri – **"Mendan ugina, sendan bugina"** usuli yordamida izohlanib, o'quvchi nutqi boyishiga hissa qo'shiladi.

"Mendan ugina" *– O'choqdan chiqqan zangori tutun osmonga o'rlab, tevarak-atrofga ko'rpadek yoyilar edi.*

"Sendan bugina" – …

"Mendan ugina" *– Ora-chorada tor ko'chalar yo'limni to'sib qolsa ham, tulki quvlagan tovuqday sakrab o'tib ketar edim.*

"Sendan bugina" – …

II. Matn yaratish kompetentligini shakllantirish. Matn yaratish malakasini rivojlantirish ijodiy tafakkurni sayqallaydi. Bunda, asosan, individual ishlagan ma'qul, chunki o'quvchi intellektini o'rganish va uni hisobga olish zarur. Toki o'quvchining o'zi ijodiy ishga kirishgunga qadar doimiy nazorat ostida uyga vazifa – hikoyalar o'qish, uni qayta hikoya qilib berish, o'qigan asarlariga yozma munosabat bildirish kabi mashqlar berib boriladi. Masalan, 12-mashq sharti: ***Yozgi ta'tilda olgan taassurotlaringiz haqida matn tuzing ...*** (8-bet)

Bunda **"Zinama zina"** usuli o'quvchining ishni nimadan boshlash kerakligini uqtiradi, unga ko'mak beradi:

Berilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarib boring:
1-bosqich. Yozgi ta'tilda qayerlarda bo'ldingiz? Shu haqda daftaringizga yozing.
2-bosqich. Yodingizda qolgan voqeani eslang.
3-bosqich. Voqeada qatnashgan ismlarni izohi bilan yozing.
4-bosqich. Voqea joyidagi narsa-buyumlarni ham ko'z oldingizga keltiring va yozing.
Sizda matn tuzish uchun manba tayyor! Ana endi ishga kirishing! Sekin-sekin tartib bilan taassurotingizni daftarga yozing. Qarabsizki, yuqori zinaga chiqa oldingiz. Siz ijod qildingiz!!! Tabriklaymiz!!!

Bayon etiladigan ijodiy ishlar mazmuniga ishora beruvchi epigraf fikrini dalillash maqsadida iqtiboslardan foydalanish malakasini rivojlantiradi. Bu ko'nikmani shakllantirish uchun sinfiga qarab dastlab mustaqil uy ishi beriladi:

Maqol yoki hikmatli so'z	**Qaysi asar epigrafi?**	**Nima uchun tanlangan?**
Otning o'limi itning bayrami	"O'g'ri" hikoyasi	(izoh)
Osmon uzoq, yer qattiq	"Bemor" hikoyasi	(izoh)

III. Matnni tahlil qilish malakasini shakllantirish. O'quvchi nutqining mukammal san'at asaridek jozibali, ta'sirchan, shu bilan birga aniq va ixcham shaklda ifodalanishi uchun anchagina mehnat talab etiladi. Matnlardagi iste'moldagi tarixiy so'zlar, nofaol yoki o'zlashma so'zlar izohini o'rganish, matnda ilgari surilgan g'oyani aniqlash barobarida har bir punktuatsion, orfografik va orfoepik qoidalariga asoslangan amaliyotlarni ham diqqat bilan o'rganmoq MAHORAT MAKTABIni o'taydi. Quyida matnning auditoriyasini belgilab tahlil qilish malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

1. Matn g'oyasini aniqlash.

"Ko'p javobli test" usuli – matnni didaktik tahlil qiluvchi topshiriq. Bunda o'quvchi ko'p variantlilikka asoslangan topshiriqlar ustida ishlaydi. Jumladan:

ROSTGO'Y BOLA

Bir kishi qirq oltin tangani o'g'lining eski choponi yoqasiga tikib, uni savdogarlarga qo'shib yuboribdi va:

– O'g'lim, hech ham yolg'on gapirma, halol bo'lgin, – deb tayinlabdi. Savdogarlarga qaroqchilar hujum qilishibdi. Qaroqchilardan biri bolani masxara qilib so'rabdi: "Ey yalangoyoq, sendan nimani ham olish mumkin?" "Menda qirqta oltin tanga bor", – debdi bola. "Senda qirqta oltin tanga nima qilsin?" – debdi qaroqchi. Shunda bola choponining yoqasini yirtib, oltin tangalarni ko'rsatibdi. "Nega bularni bizga ko'rsatding? Endi bu tangalarni ham olib qo'yishimizga to'g'ri keladi", – debdi qaroqchilar. "Hechqisi yo'q, otam halol bo'l, yolg'on gapirma, deb o'rgatgan", – deya javob beribdi bola… (Turkman xalq ertagi)

Topshiriqlar bir necha variantli javoblardan iborat bo'lib, to'g'ri javoblar shartli belgilar asosida beriladi:

Topshiriq					
Ota o'g'liga eski to'nni kiydirishida siz qanday ma'no topdingiz?	Yangi to'n urinib qolishi nazarda tutilgan	Ko'zga tashlanmasligi uchun eski to'nni kiydirgan	Qimmatbaho libosning ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatish uchun	Qimmatbaho libos kishilar diqqatini tez tortishi uchun	Tillalari borligini yashirish uchun
Topshiriq					
Bola nega tilla borligini aytdi?	Otasi tayinlagani uchun	Masxara qilgani uchun	Ulardan tezroq qutulish uchun	Rostlikning to'g'riligini anglagani uchun	Qo'rqqanligi uchun
Topshiriq					
Ertakdan nimani o'rgandingiz?	Kattalar so'ziga quloq solishning afzalligi	Kishining qandayligi kiyimi bilan baholanmasligi	O'zidagi yaxshi xislatni raqibga ham yuqtira olishi	"Boshingga qilich kelsa ham rost so'zla" maqolining amali	Halollik yaxshi turmush garovi ekanligi

2. Mumtoz matnni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Bilamizki, mumtoz matnlarning aksariyati aruz vaznida yozilgan she'riy asarlardir. O'quvchini bunday matnlarni tahlil qilishi uchun, avvalo, ko'nikma hosil qilish, ya'ni izohtalab so'zlar va asarning nasriy bayonini ham jadvalli tarqatmalarga tushirib borish kerak:

TALAB VODIYSI (65-mashq. 38-bet. A.Navoiy. "Lisonut-tayr" asaridan parcha)

MATN	***SO'ZLAR IZOHI***	***NASRIY BAYONI***	***MATN MAZMUNI***
Chun talab vodiysiga qo'ysang qadam, Ollingda har dam kelur yuz ming alam. Har dam anda yuz malolat yuzlanur, Har nafas ming sa'b holat yuzlanur	Malolat – malol kelish, og'rinish; Sa'b – o'zga holat	Talab vodiysiga qadam qo'ysang, oldingga har dam yuz ming dard-u alam duch keladi. Har dam unda yuz malollik, har nafas ming o'zga, qiyin holat yuzlanadi.	"Lisonut-tayr" asaridagi qushlar (mazojiy) manziliga yetishish uchun yetti vodiydan o'tishi shart bo'ladi. bu vodiylarning birinchisi "Talab" vodiysidir….. (O'quvchida ehtiyojga qarab to'liq tushuncha bo'lishi uchun asarning nasriy bayonini o'qish tavsiya etilsa, bayt mazmunini anglashi shu qadar qulay bo'ladi.)

3. Xatolar ustida ishlash.

Aniqlangan xatolarning yo'l qo'yilishiga sabab nima ekanligi o'rganilib, o'z vaqtida bartaraf etilmasa, bu kichik-kichik xatolar e'tiborsizlik tufayli nutqiy savodxonlikda jiddiy nuqson paydo bo'lishiga olib keladi. Eng avvalo, o'quvchini o'z ishini tahlil qilish, o'zga ishlar bilan qiyoslash hamda baho bera olishga o'rgatish lozim. Bunda ishoraviy, imloviy, uslubiy xatolarni bartaraf etishning oddiy usuli hamkorlikda: jamoa bilan ishlash yaxshi natija beradi. Yozuv taxtasiga yo'l qo'yilgan xatolar birma-bir yoziladi. **"Bu – meniki!"** ta'limiy didaktik o'yini orqali guruhlar xatolarni ajrata boshlaydi. Ha, anglaganingizdek, uch guruh: ishoraviy, imloviy va uslubiy xatolarni ajratib, uni to'g'ri variant bilan almashtiradi. Shu vaqtning o'zida javobga izoh berib o'tadi.

Ona tili fanini o'rganar ekanmiz, eng birinchi vazifamiz tilni chuqur anglash barobarida o'quvchi nutqini yuksak saviyada shakllantirish bo'lmog'i lozim. Yuqorida ko'rilgan barcha ta'limiy usullar ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan vazifalarni qaysidir ma'noda ado etishda vosita bo'la oladi. Xulosa o'rnida shuni aytishim joizki, o'quvchi qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'i nazar, birinchi navbatda, nutqiy savodxonligi mukammal darajada bo'lishi zarur. Bu davr talabi! O'z bilimini amaliyotda namoyon etishi uchun aniq, ravon va sof nutq egasi bo'lsinki, mamlakat taraqqiyotiga yetuk milliy kadr sifatida xizmat qilsin. O'zbek tilining juda katta imkoniyatlari xususida tanlagan sohasi orqali targ'ib qilsin! Zero, o'quvchi nutqi – milliy til ko'zgusi!

Xolbibi QURBONOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi

TIL TA'LIMIDA KOMPETENSIYAVIY O'QITISH

Ma'lumki, ona tili o'qitishning bosh maqsadi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy tafakkurini yuksaltirish, tafakkur mahsulini og'zaki, yozma shakllarda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri, ravon ifodalash, o'zgalar fikrini to'g'ri anglash ko'nikma va malakasini shakllantirishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdan iborat. O'z navbatida, nutqiy kompetensiya tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish layoqatini o'z ichiga oladi.

Darhaqiqat, o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish savodxonlik bilan bog'liq. Savodxonlik – ona tilida yozish va o'qish malakasining namoyon bo'lish darajasidir. Demak, o'quvchilarda nutqiy kompetensiya ikki xil – og'zaki va yozma ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ular bir-biri bilan uzviy bog'liq. O'quvchilar layoqatini shakllantirish va rivojlantirishda ona tili o'qituvchisi har bir darsda quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

– mantiqiy uzviylik, ketma-ketlik, sodda va qo'shma gap turlaridan foydalanib gaplar tuzish;

– reja tuzish, reja asosida matn yaratish;

– matn tuzish, matn ustida ishlash;

– so'z tanlash, ma'nodosh so'zlardan foydalanish;

– gap tuzishda so'zlar tartibiga e'tibor berish, gap bo'laklarini o'rinli qo'llash;

– lug'at ustida ishlash;

– bitta gap yoki yondosh gaplarda bir so'zni turli sinonimlarini ishlatish.

Lingvistik kompetensiyalar fanning nazariy jihatlarini qamrab oladi. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fan dasturida bitiruvchilari fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid lingvistik kompetensiyalarni egallashlari lozim.

O'quvchilarning nutqiy, lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishda pedagogik jarayonni to'g'ri va mazmunli tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, 6-sinfda **"Tartib sonlar"** mavzusini o'tishda quyidagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interfaol usullardan foydalanish mumkin.

Dastlab o'tilgan mavzu **"Raqamli klaster"** grafik organayzerni qo'llash orqali mustahkamlanadi. Mazkur usul mavzuni og'zaki bayon etishda voqealar ketma-ketligini aniqlashtirishga zaruriyat paydo bo'lganda foydalaniladi. Raqamlangan so'zlar asosida tuzilgan klaster jamoaviy tarzda qo'yilgan tartibda tuziladi: doska markazida mavzuga oid tayanch so'z yoziladi, so'ngra o'quvchilar mazkur mavzuga doir so'z yoki jumlalarni aytadi. O'quvchilar tomonidan aytilgan barcha fikrlar doskaga yozib bo'lingach, mazkur mavzuga doir voqealarni ketma-ket muhokama qilishga kirishiladi.

Masalan:

"Son – so'z turkumi" mavzusiga oid klaster

So'ng yangi mavzu kitobdagi topshiriqni bajarish bilan boshlanadi. Ekrandagi rasmlar ko'rsatilib, o'quvchilarga savollar beriladi. Har bir javob uchun bitta rag'bat kartochkasi berib boriladi. Rasm asosida mavzu aniqlanadi, xulosalarga kelinadi. Rasmdagi tasvirlar asosida matn yaratiladi. Matndagi -nchi, -inchi qo'shimchalari asosida hosil bo'lgan sonlar tartib sonlar ekanligi ta'kidlanadi. Yangi mavzu tushuntiriladi. 436, 437, 438-mashqlarni bajarish orqali mavzu mustahkamlanadi.

So'ng **"Maqsad sari olg'a!"** grammatik o'yinidan foydalanib o'quvchilarga diagrammalar tasvirlangan tarqatma materiallar beriladi. Ular "Maqsadli diagramma"ning so'nggi bekatiga yetib borishi, buning uchun doiralarda aks etgan grammatik topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarib markazga intilishlari talab etilishi tushuntiriladi:

1-bosqich. Berilgan harflarni o'z o'rniga qo'yib so'zlar yasang.

2-bosqich. Yasalgan so'zlardan so'z birikmalari hosil qiling.

3-bosqich. Hosil qilingan so'z birikmalaringiz asosida gap tuzing.

4-bosqich. Tuzgan gaplaringiz ishtirokida kichik matn yarating.

5-bosqich. Tuzgan matningizga sarlavha toping.

Ushbu grammatik o'yin yakka tartibda o'tkaziladi. Topshiriqni tez va aniq bajargan o'quvchilar g'olib hisoblanadi. Bunda o'quvchilarning tushunish, gapirish va fikrlay olish kabi lingvistik kompetensiyalari shakllanadi

Topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar egallagan bilimlarini tekshirish uchun **"BBB"** interfaol usulidan foydalanish mumkin. O'quvchilar dastlab jadvalning birinchi ustuniga tartib son bo'yicha bilgan, ikkinchi ustuniga shu mavzu bo'yicha bilishni xohlagan, uchinchi ustuniga esa bilib olgan tushunchlarini yozadilar.

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM
Tartib sonning ma'no turi	Tartib sonlar haqida	Narsalarning tartibini bildirgan sonlar tartib son deyiladi
Birinchi, ikkinchi tartib sonlar	Ularning gapdagi vazifasi	Ular -(i)nchi qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi
	Tartib sonlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelishini	Aniqlovchi, ot kesim, ega, hol, to'ldiruvchi bo'ladi

Demak, ta'lim muassasasi bitiruvchisi:

– o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi;

– jamiyatda o'z o'rnini egallashi;

– duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi;

– eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash;

– jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga ***kasbiy kompetentlikka*** ham erishishi shart.

Shuningdek, ona tili darsliklarida kompetentlikka yo'naltirilgan savol va amaliy topshiriqlar, mashqlar, testlar ham kiritilgan. Ulardan ijodiy foydalangan holda o'qituvchilarning o'zlari mana shunday topshiriqlarni tuzishlari mumkin bo'ladi.

Ko'rinadiki, ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda bu kabi turli shakl hamda mazmundagi ta'lim texnologiyalari, interfaol usullardan foydalanish imkoni katta. Dars maqsadi, o'quvchilarning intellektual salohiyati, o'zlashtirish qobiliyati, vaqt chegarasini inobatga olgan holda pedagogik ahamiyati yuqori usullarni tanlash va qo'llash munosib samara beradi.

Nafosat ZIYATOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA QO'LLANGAN ISMLARNING ASARDAGI VAZIFASI

Badiiy asarda yozuvchining asosiy g'oyaviy niyati xarakter orqali ilgari surilar ekan, uning ismi ham asar g'oyasini oydinlashtirish, xarakterning o'ziga xosligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun yozuvchilar qahramonning ruhiy dunyosini ochish, xarakterning mohiyatini, ro'y berayotgan hududni aniqlash, milliy o'ziga xosligini ta'minlash maqsadida qahramonlarning ism-familiyalariga alohida e'tibor berganlar. Bu borada xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz adabiyotida ma'lum an'ana mavjud edi. [1:44]

O'zbek mumtoz adabiyotida ham qahramon ismiga alohida e'tibor beriladi. Navoiy kishilarning ismlarini ularning tashqi qiyofasi, keyingi taqdiriga qarab belgilashda o'z salaflariga nisbatan olg'a ketdi. U o'z asarlarida tasvirlanayotgan voqealar kishilarning ismiga mutanosib bo'lishiga alohida e'tibor beradi. Buni "Xamsa" dostonlari qahramonlari va hikoyatlarida qo'llangan ismlar ma'nosida ham ko'rish mumkin.

Qadimda ota-bobolarimiz boshqa odatlar qatori ism qo'yish odatiga qat'iy amal qilganlar. Ism tug'ilgan bolaning qaysi urug'dan, qanday sulolaning nechanchi avlodi ekanligi, uning tavallud topgan vaqti, joyi, salomatligining ahvoli, bola tanasidagi alohida belgilar va boshqa omillarga qarab qo'yilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalarida ham bunga amal qilinadi. Jumladan, "Alpomish" dostonida Qo'ng'irot elida *Dobonbiy* o'tgani, undan *Alpinbiy*, Alpinbiydan ikki o'g'il: *Boybo'ri* va *Boysari* dunyoga kelgani yoziladi. Dobonbiy, Alpinbiy ismlari tarkibida "biy" komponenti bu ism egalarining tabaqasini ifodalagan: **biy**, ya'ni **boy**. Boybo'ri va Boysari ismlaridagi "boy " qismi ham shu ma'noni, ya'ni yuqori tabaqa vakillari ekanligini ifodalagan. *Qultoy* esa xizmatkor – qul. Uning ismidan ham buni bilsa bo'ladi.

Alpomishning asli ismi *Hakimbek* bo'ladi. Hakimbek Boychiborni tuttirib, o'n to'rt botmonlik yoyni ko'targanidan keyin *Alpomish* nomini oladi. Alp – *polvon, bahodir* demak.

Alpomishning o'g'li – *Yodgor*. Otasi jangga borib qaytib kelmagan yoki bola tug'ilmay turib otasi vafot etgan bolaga *Yodgor* deb ism qo'yishgan. O'g'li tug'ilgan paytda Alpomish zindonda bo'lgan. Uni o'ldi deb o'ylashgan. Shuning uchun o'g'liga Yodgor deb ism qo'yishadi.

Abdulla Qodiriy ham o'z asarlarida ism tanlashga nihoyatda e'tibor bergan. Masalan, "O'tkan kunlar" asarida Otabekning ismi "k" bilan tugab, Kumushbibi "k" bilan boshlanadi. Otabekdan "k"ni olib bo'lmaganidek, Kumush ham "k"siz ma'no anglatmaydi. "O'tkan kunlar"da mohirlik bilan qo'llanilgan bu usuldan "Mehrobdan chayon"da ham mohirona foydalanilgan. [1:45]

Ism qo'yish an'anasi zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalarida ham uchraydi.

O'tkir Hoshimovning "Qalbingga quloq sol" qissasining qahramoni Yodgor ismi misolida buni ko'rish mumkin:

– Bir narsa so'rasam, ko'nglingizga kelmaydimi? – dedi Charos anchadan keyin. – Otingiz nega Yodgor?

– Nimayam qila olardik, otni chaqaloq o'ziga o'zi tanlay olmaydi. – Yodgor o'ychan tabassum bilan Charosga qarab qo'ydi. – Bu mening ikkinchi otim bo'lsa kerak. Birinchisi nimaligini bilmayman. Chamasi, ikki yasharligimda meni choyxonadan topib olishgan ekan. Bilmadim, adashib qolganmanmi, yo onam biron yerda ochlikdan uzilib qolganmi… o'shanda urushning oxirgi yillari, qahatchilik ekan. Choyxonachining yoshi oltmishga yaqinlashganda ko'rgan o'g'li o'lib qolgan ekan. Ota-onamni topolmagandan keyin o'rniga xudo yetkazdi, deb uyiga olib ketibdi. Otimni ***Yodgor*** *qo'yibdi…* [2:381]

"Ikki eshik orasi" romani qaharamoni Muzaffar ismining qo'yilishida urushga ketayotgan Shomurodning orzu-istagi mujassamlashgan:

Menga qara, Ra'no, – dedi Shomurod tog'am ovozini pasaytirib. – Rostini ayt, mabodo ko'ngling achchiq narsa tusayotgani yo'qmi?

– E, boring!

– Yo'q, rostini ayt. Agar shunaqa bo'lsa, – tog'am ovozini tag'in ham pasaytirdi. – O'g'il bo'lsa otini ***Muzaffar*** *qo'ygin, xo'pmi, Muzaffar nima degani, bilasanmi? G'olib degani. G'alaba degani, tushundingmi?* [3:152]

O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" qissasi qahramoni Alimardon To'rayevning mashhur bo'lib yurgan paytlarida farzandi tug'iladi:

– Otini Shavkat qo'yaman, Shavkat! Shavkatli kunlarimdan xotira bo'lsin! –derdi u pichirlab. [4:261]

Asarning oxirida inson qachon bo'lsa ham qilgan xatolari oldida javob berishi, shuhratparastlik, manmanlikning yakuni, oqibati borligini muallif aynan ismga yuklaganini ko'rish mumkin: *"Alimardon hech qayerda bunchalik hissiz, sovuq qo'shiq aytmagan edi. Bu safar u bir qultum ham ichmadi. Raisning pulini ham olmadi. Har gal o'rtaga tushganida ko'zlari bilan Muqaddamni izlar, qayerdadir shu atrofda odamlar orasida turibdi deb ishonar, xotin-xalaj orasida chopishib yurgan bolalar ichida o'zining Shavkati ham borligini o'ylar, qo'shiq aytardi-yu, nima deyayotganini o'zi bilmasdi".* [4: 264]

Bir paytlar "Otini Shavkat qo'yaman. Shavkatli kunlarimdan xotira bo'lsin," degan ota na o'g'lini, na o'zining shon-shavkatini saqlab qololdi. Muallif tomonidan g'oyat ustalik bilan ismga yuklangan g'oyani ko'rish mumkin.

O'tkir Hoshimovning "Ikki karra ikki besh" satirik qissasida bosh qahramon – *Qo'shoqvoy.* Asarda bu ismning qo'yilishi haqida shunday yozilgan: *…meninig bitta akam, yana bitta opam tug'ilibdi-yu, akam chillasi chiqmay, opam yoshiga yetmay o'libdi bechora. Shuning uchun "Qo'sha-qo'sha farzandlar ko'raylik", degan niyatda bizga* ***Qo'shoqvoy*** *deb ot qo'yishgan ekan.* [5:124]

Asarda ko'pincha "Qo'shovoy" deb qo'llanadi. Qo'shovoy ismi tarkibida "qo'sh" so'zi bor. Asar qahramoni Qo'shovoyning g'alati odati bor: hamma narsani ko'paytirib, qo'shib aytadi. Masalan: dadasi singlisiga do'ppi olib kelsa, ko'chaga chiqib: *"Dadam to'rtta do'ppi olib keldi"*, – deydi. *…Birpasda onamning ro'moli sakkizta, dadamning etigi o'n to'rtta, o'zimning botinkam o'n oltita bo'ladi.*

Tursunboy akamning mototsikli bittaligini bilaman. Ammo butun qishloqqa xabar tarqatib keldim: "Tursunboy akamning oltita pat-pati bor!"

Asar nomining "Ikki karra ikki besh" deyilishi ham ana shu qahramon tilidan olingan. Bu nomda asar g'oyasi bilan bog'liq

ramziy ma'no ham bor. Asar 1986-yil yozilgan. Yozuvchi o'sha davrga xos qo'shib yozish kabi illatlarni tanqid qilib, kulgi ostiga olgan holda voqealarni bayon qiladi.

Laqab – biror xususiyatiga ko'ra, kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo'shimcha nom. Shuningdek, ma'lum maqsadda o'zgartirib olingan nom ham laqab hisoblanadi. Badiiy asarlarda ham turli maqsadlarda kishi nomiga qo'shib ishlatiladi, yoki laqabning o'zi qo'llanishi mumkin. Albatta, laqablarning qahramon xarakterini ochib beruvchi vosita sifatida asar g'oyasi bilan bog'liq jihatlari ham bo'lishi mumkin. Odatda, laqab ishlatilish o'rni va maqsadiga qarab ijobiy yoki salbiy ma'noga ega bo'ladi. Demak, shu nom-laqab asarda ifodalanayotgan maqsadni yoritishda ma'lum vazifa bajaradi. O'.Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida "Po'stdumbali moshkichiri" hikoyasi bor. Hikoyada Naim sartarosh tomonidan *Olim parovoz, Hakim naynov* deya kishilarga aynan laqab qo'yilishini ko'rish mumkin. Olim parovoz deganda paravoz haydaganiga ishora qilib, kamsitish ma'nosida buyum bilan tenglashtirish ma'nosi sezilib turibdi. Hakim naynov deganda esa "naynov" so'zida novcha so'ziga nisbatan "salbiylik" semasi borligini ko'rish mumkin. Demak, laqab aynan o'sha odamning ma'lum xususiyatini kamchilik sifatida bo'rttirib ko'rsatish uchun yoki salbiy munosabat ifodalsh maqsadida atayin qo'llanadi.

Xulosa qilib aytganda, asar qahramonlarining ismi qahramon xarakterining o'ziga xosligini ta'minlashda, unga muallif munosabatini aniqlashda, asarning umumiy g'oyasini ochish va boshqa masalalarni yoritishda muhim vazifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solijonov Yo'ldosh, Mo'minov Siddiqjon. Badiiy asarlarda ismning ayrim funksiyalari // O'zbek tili va adabiyoti. 1984. 2-son.
2. O'tkir Hoshimov. Sevgi qissalari. Hikoyalar va qissalar: Qalbingga quloq sol. – www.ziyouz.com kutubxonasi
3. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent, 2012.
4. O'tkir Hoshimov. Sevgi qissalari. Hikoyalar va qissalar: Bahor qaytmaydi. – www.ziyouz.com kutubxonasi
5. O'tkir Hoshimov. Bahor sog'inchi. "Ikki karra ikki besh". – Toshkent, 2001.

Ra'no TOBAROVA,
Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanidagi
10-maktabning ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA O`ZBEK BADIIY NUTQI ZOONIMLARINI O`RGANISH

Maktab ona tili va adabiyot darsliklarida zoonimlar haqida deyarli ma'lumot berilmagan. Zoonim termini hozirgi kunda tilshunoslikda keng o'rganilib, tadqiq qilinmoqda.

Zoonim termini asli grekcha so'z bo'lib, «jonivor, tirik mavjudot» degan lug'aviy ma'noga ega bo'lgan «zoon» so'zi asosida yasalgan. «Zoon» so'zidan olingan zoo hozirgi o'zbek adabiy tilida zoologiya, zoogeografiya, zoogamiya, zoogigiyena, zoopsixologiya, zootexnika kabi qo'shma tarkibli terminlar tarkibida hayvonot olamiga daxldorlikni bildiradi[1]. Demak, zoonim hayvon va qushlarga qo'yilgan laqab, nomlardir. N.V. Podolskayaning fikricha, zoonim uy hayvoni, yovvoyi hayvon, hayvonot bog'ida saqlanadigan hayvon, sirkda yoki ma'lum bir joylarda yashaydigan hayvonlarning shaxsiy nomi yohud laqabi.[2] Masalan, Sharik (uy iti), Muxtar (ishchi it), Murka (mushuk), Jdanka (sigir), Boysun (ot), Lima (tuti) kabi.

Alohida yakka qush yoki hayvonlarga berilgan maxsus laqab-nomlar zoonim hisoblanadi. It, mushuk, ot, qushlarga nisbatan maxsus nom berish o'zbek tilida keng tarqalgan.

Zoonimlarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega. Zoonimlar tarkibida zamonaviy adabiy tillar lug'atiga ta'lluqli birliklar, dialektizmlar, tarixiy so'zlar va turli grammatik shakllarni uchratish mumkin. Zoonimlarni o'rganish nafaqat amaliy, balki ilmiy ahamiyatga ham ega.

Zoonimlar vositasida u mansub bo'lgan xalqning tarixiy, madaniy hayoti bilan tanishish mumkin. Chunonchi, qozoqlarning butun hayoti asrlar mobaynida chorvachilik bilan bog'liq bo'lgani uchun ko'pincha uy hayvonlariga oid zoonimlar atoqli otlarning barcha turlarini hosil bo'lishida asos vazifasini o'tagan. Shu bois qozoq tilida har qanday nomning zamonaviy tahlili nomshunoslikning shu asosiy guruhisiz bo'lmaydi. Shu bois o'zbek tilshunosliligida zoonimlarni to'plash borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Laqab va nom qo'yish orqali har bir qush va hayvon nimagadir qiyos qilinadi, solishtiriladi, o'xshatiladi va xarakterlanadi. Chunonchi, bir qator zoonimlar itlarni yirtqich hayvonlarga qiyoslash, otlarning ma'lum bir tana a'zolarini nimalargadir o'xshatish va umuman, qush va hayvonlarda insonlarga xos aql-zakovat, farosat borligini xarakterlash asosida shakllangan.

Zoonimlar alohida yakka qush va hayvonlarga berilgan laqab-nomlar bo'lgani uchun atoqli otdir. O'rta maktabda atoqli otlar mavzusi 6-sinfda o'rgatiladi. Darslikda aytilishicha, yakka shaxs, narsa, joy, mahsulot, tashkilot va muassasa, jonzot nomlarini ifodalab kelgan

otlar atoqli otlardir. Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi[3]. Masalan, Boychibor, Ko'kqashqa, G`irot, G`irko'k, Oqbo'ta, Oqtosh, Humo kabi.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari 8 – sinfda (54-bet) o'qitiladi[4]. Undagi zoonimlarni tahlil qilish orqali asar g'oyasini yanada chuqurroq anglash mumkin bo'ladi.

O'zbek badiiy nutqi zoonimlarining barchasi xalq, yozuvchi va shoirlarining ijodiy tafakkuri mahsulidir.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida G`irot zoonimi uchraydi. G`irot saman ot bo'lib, jiyron, qora, bo'z, tarlon, ola, chipor kabi ma'nolardagi otning tusini bildiruvchi zoonimdir. G`irot umumturk eposidagi an`anaviy ola otlar naslidan va tusi butunlay ola-bula emas, tanasining biror yerida oqi bo'lgan ko'k bo'z, juda tez chopuvchi tulpordir.

Gulxaniyning «Zarbulmasal» dostoni qushlar zoonimiyasiga asoslangan. Gulxaniy bu asarida Yapaloqqush va Boyo'g'li o'rtasidagi qudachilik voqeasini hikoya qiladi. Asarda Yapaloqqush, Boyo'g'li, Kulonkir sulton, Kordon, Karqo'noq, Sho'ranul, Ko'rqush, Xudxud (popishak) kabi qushlar timsoli bor.

Yapaloqqush - tunda mayda kemiruvchi jonivorlarni ovlab kun ko'ruvchi yirtqich qush; Boyo'g'li, Boyqush, Yapaloqqush Boyo'g'li deb ham ataladi. Agar Boyo'g'li va Yapaloqqush bitta qushning nomi bo'lsa, Boyo'g'li qushning sifati, nasl-nasabiga ko'ra nomlanishi, Yapaloqqush esa uning shakli, tashqi ko'rinishiga nisbatan nomlanishidir.

«Zarbulmasal» da Boyo'g'li so'zidan qo'pollik, do'q, Yapaloqqush so'zidan maqtanchoqlik, Ko'rqush so'zidan esa laganbardorlik sezilib turadi. Bu kabi badiiy nutq zoonimlari o'z leksik - semantik xususiyati, mazmun-mohiyati bilan asarda ma'lum badiiylik tashiydi.

Tog'ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» qissasidagi Ziyo chavandozning oti Tarlon – lug'aviy ma`nosi, tashqi belgisiga ko'ra ola – targ'il, chavkar xol-xol ot. Tarlon asosiy «adabiy qahramon» sifatida ishtirok etib, undagi otlar timsoli asarni yanada qiziqarli chiqishiga xizmat qilgan. Asardagi «Birodarlar. O'zi bo'z ot qanday bo'ladi? Surpaday oppoq bo'ladi. Bordi-yu, ajdodida bo'lsa, to'qqizga to'lganda Tarlon bo'ladi. To'qqiz yoshida Bo'zning badanida xolday-xolday qora donalar paydo bo'ladi. Shundan boshlab, u bo'z emas, Tarlon ot bo'ladi. Tarlon xol-xol ot! Tarlon otlar sarasi ...» Otlarga berilgan bu kabi ta'riflar insonlarga ot haqida yetarli ma'lumotlar beradi va mustaqil fikrga ega bo'ladilar

Said Ahmadning "Qoplon" hikoyasidagi Qoplon – xushomadgo'y, laganbardor, o'z manfaatini o'ylovchi, ikkiyuzlamachi Qurbonboy tomonidan yangi direktor Tillayevga sovg'a sifatida keltirilgan it nomi. Qoplon so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'chma ma'noda jasur, mard ma'nolarida qo'llaniladi. Qo'rqmas, jasur, kuchli itlar Qoplon deb ataladi. «Qoplon» hikoyasidagi it ham katta va qo'rqmasligi jihatidan Qoplon deb atalgan. Yozuvchi Qurbonboyning pastkashligini ifodalash uchun hikoyaga Qoplon zoonimini kiritadi, itning xususiyatlarini Qurbonboyga zid qo'yish bilan obrazlilik yaratadi .

Har bir badiiy adabiyot namunasining mazmun-mohiyati bilan bir qatorda asarning yozilish uslubi ham muhim ahamiyatga egadir. Biz so'z yuritayotgan badiiy nutq zoonimlarining uslubiy xususiyatlari ham badiiy namunalarning yana bir muhim qirrasini ochib ko'rsatadi.

Pirimqul Qodirovning «Bobur» («Yulduzli tunlar»), «Xumoyun va Akbar» («Avlodlar devoni») kabi tarixiy asarlarida fillarga, otlarga, qushlarga o'ziga xos hindcha nomlar berilishi ham hind xalqining hayvonlar bilan munosabati ko'rsatilgan. P. Qodirov mazkur asarlari bilan o'ziga xos zoonim yaratish va ulardan asar g'oyasi, mazmuni, uslubi uchun ustalik bilan foydalanish mahoratiga ega ekanligini ko'rsatdi.

O'quvchilarga o'zbek badiiy nutqi zoonimlarini o'rgatish borasida quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz

– ona tili darslarida atoqli otlar mavzusi o'tilayotgan paytda hayvon va jonivorlar nomiga ham alohida to'xtalib o'tib, bu nomlar zoonimlar deb atalishini, bu terminning lug'aviy ma'nosini aytib o'tish;

– ona tili darslarida hayvonlar nomidan bahribayt o'yini tashkil qilish: G`irot – Tarlon – Norbo'ta – Arslon – Novcha – Asil – Layka – Akbara, Bo'riboy – Yo'lbars – Simurg' - G`irko'k – Ko'kdo'nan – Nihol – Laycha – Arslon – Novcha;

– darsda zoonimlar bilan atalgan asarlar, hikoyalar, ertaklar nomini kim ko'p topish o'yinini tashkil qilish va tahlil qilish;

– ona tili darslarida yozuv taxtasida kim ko'p zoonim yozish o'yinini o'tkazish. Bunda yozuv taxtasiga 3 ta o'quvchi chiqariladi va 5 daqiqa vaqt beriladi. Bu usuldan foydalanish o'quvchilarning imlo savodxonligi va so'z boyligini oshirish, nutqini o'stirish, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishda yaxshi samara beradi.

– darsda har bir o'quvchi mustaqil zoonim topib, o'sha topgan zoonimning ovozini o'xshatishi kerak. Eng ishonarli chiqqan ovoz sohibi g'olib hisoblanadi;

– shunday darslarda «kim ko'p hayvon va qush nomi to'plash» o'yinini o'tkazish. Sinf guruhlarga bo'linib vaqt beriladi. Qaysi guruh ko'p va tez zoonim to'plashiga qarab, g'olib aniqlanadi;

– ona tilida qo'shma so'zlar mavzusida qo'shma so'z tipidagi zoonimlardan, ayniqsa. adabiyotda o'tilgan asarlardan misollar keltirish va tahlil qilish (G`ir + ot, Gul + bodom, Qora + yo'l, Ola + par, Oq + toy, Ola + bo'ri, Qora + tulpor, Bodom + ko'k, Qora + sher).

Uyga vazifa qilib shunday misollar topib kelish topshirig'i beriladi.

---

[1]O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O`zb. Milliy ens. Davlat nashriyoti, 2002, 4-jild, 33
[2]Qarang. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука,1978, – С.58
[3]Qarang.6-sinf darsligi. – Toshkent
[4]Qarang. 8-sinf adabiyot darsligi. – Toshkent

Marvarid NURBAYEVA,
Nizomiy nomidagi
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
Shahrisabz filiali o'qituvchis

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA FARZAND TARBIYASI

Tarbiya inson yaralgandan buyon ajdodlarning avlodlarga ko'rsatib kelayotgan beminnat xizmati, mehnati, orzu umidlari mahsulidir. Ajdodlar o'zi yashab kelgan olamning avlodlar tomonidan yanada ko'rkam va obod bo'lishi uchun ibratli va qudratli ishlarning amalga oshirilishi bilan bir qatorda aql-idrokli, zakovatli, ilm-u hunarli, fahm-u farosatli avlod yetishtirish uchun mashaqqatli ter to'kishgan.

Ushbu ishimizda farzand tarbiyasi borasida adabiyotimizning ulug' yalovbardori, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlamoqlikni lozim topdik. Zero, mutafakkir shoir asarlarining mag'zi ham inson kamolotiga qaratilgandir. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "Inson – tabiat gultoji". Shunday ekan, inson o'z aql-idroki, fahm-farosati, bilim va tajribasi, ong-u shuuri, teran tafakkuri, musaffo tuyg'usi, pokiza qalbi, kasb-kori, hunari, fidoyiligi, vatanga sadoqati, insonlarga mehr-muhabbati, oilasiga hurmat-ehtiromi, ota-onasiga qadr-qimmati va samimiy munosabatlari bilan tabiat gultoji bo'la oladi, demoqchi Alisher Navoiy.

Ulug' maqsad va vazifalarlarni amalga oshirish uchun inson butun umri davomida ta'lim va tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Dunyoga kelgan har bir inson yetarli ta'lim va tarbiyaga ega bo'lsa, aql-zakovat bilan ixtirolar, kashfiyotlar yaratadi. O'zidan yaxshi nom qoldirishga intiladi. U dunyoda shunchaki yashab, qup-quruq o'tib ketishni istamaydi.

Alisher Navoiy mashhur ruboiysida aytganidek:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

"Hayrat ul-abror" dostonining 6-maqolati odob masalalariga bag'ishlanadi. Navoiy bu maqolatda kishilar bilan munosabat va muomala mezoni, o'zini tuta bilish, bola tarbiyasi va boshqalar haqida qimmatli fikr-mul - hazalarini bayon etadi. Odob bilan tavoze' bir butunlikni tashkil etadi. Kishi boshqaning hol-u ahvoliga yarasha muomala qilishi, kattalarga xizmat, kichiklarga shafqat etishi lozim.

Har kishining tavrig'a loyiq kerak,
Surati holig'a muvofiq kerak,
Kimki ulug'roq anga shafqat kerak,
Ulki kichikroq anga shafqat kerak. [1:13]

Navoiy bola tarbiyasi, uni o'stirish, o'qitish va balog'atga yetkazish haqida keng to'xtaladi. Shu bilan birga, u bolalarga murojaat qilib, shunday nasihat qiladi:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh. [1:3]

Darhaqiqat, ota-ona farzandining voyaga yetib, mustaqil qadam tashlaguniga qadar tun-u kun uning hayot yo'lini yoritib turuvchi (ta'bir joiz bo'lsa) bir mayoq vazifasini o'taydi. Ota-onalarning farzand tarbiyasi, uning kamolga yetishi yo'lidagi mashaqqatli mehnati, xizmatlari shunchalar beminnat, shunchalar beg'uborki, buni faqat anglab yetadigan, qadrlay oladigan o'g'il-qizlar kerak.

Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi barcha dostonlarda tasvirlangan ijobiy timsollar ota-onalarining xizmatlari, orzu-havaslari bilan amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ko'rgan kishilardir. Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Shopur, Bahrom, Mehinbonu kabi timsollarning har biri o'ziga xos ta'lim-tarbiyasi bilan elparvar, yurtparvar, sadoqatli insonlar sifatida namoyon bo'ladilar.

Alisher Navoiy umrining oxirgi yillarida yozgan "Mahbub ul-qulub" asarining birinchi qismida bayon etilgan "Mudarrislar to'g'risida" degan bobida mudarrisning ilm toliblariga tarbiya beruvchi, oliy himmat ko'rsatuvchi, nutqida va qiyofasida ilm istovchi yoshlarga ibrat va namuna ifodasini aks ettiruvchi kishi bo'lmog'i lozimligini uqtiradi. El ichida o'z so'zini va o'z o'rnini topib yurmog'i, o'zini olim va bilarmon deb ko'rsatmasligi lozim, deydi shoir. Navoiy agar shunday nojo'ya ishlarni qilsa, bu mudarris emas, bid'atchi – behuda odatlarni tarqatuvchidir.

Mudarris – olim, taqvodor bo'lmog'i, ya'ni hamma zararli ishlardan saqlanmog'i, halol ish tutmog'i lozim, – deb ta'kidlaydi shoir.

Yoki shu qismning yana bir "Maktab ahli to'g'risida" bobida Navoiy maktab muallimlarining kasbiga yarashmagan qattiqqo'l, bag'ritosh bo'lishi, gunohsiz bolalarga zaharxandalik qilishi, ularni o'ziga rom qilib olish o'rniga, o'zidan bezdirishi, turli xil do'q-po'pisalari bilan o'zidan sovutishi, darsda bolalarning zerikib qolishlari kabi zararli jihatlarini qattiq qoralaydi. Ammo shu bilan birga Navoiy: "Lekin insof bilan aytganda, har qanday irodali odamni ham birgina bola tarbiyasi charchatadi. Maktabdor domla esa bir to'da bolalarga ilm-adab o'rgatadi. Bunga nima yetsin! Lekin shunisi ham borki, bolalar o'rtasida fahmi, idroki ozlari bo'ladi. Muallim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda, bolalarda uning haqi ko'p; agar shogird ulg'aygach, podshohlik martabasiga erishsa ham o'z muallimiga qulluq qilsa arziydi. Binobarin, shogird shayx ul-islom va qozilik darajasiga ko'tarilganda ham

ustozi undan rozi bo'lsa, Tangri ham rozi bo'ladi" [2:29], – deya ta'kidlaydi.

Ko'rinib turibdiki, shoir ayrim muallimlarning fe'l-atvoridagi kamchiliklarni tanqid qilish bilan birga muallimlarning mashaqqatli mehnatini, ustozlik qadr-qimmatini yuqori qo'yadi. Shogirdning ustozga hurmat-izzat ko'rsatishini quyidagi baytda alohida e'tirof etadi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Biz Alisher Navoiy asarlarini o'qiganimiz, o'rganganimiz sayin farzand tarbiyasiga doir bir-biridan go'zal, bir-biridan a'lo manbalarga duch kelaveramiz. Har bir inson, deydi Navoiy, o'z ota-onasini, jigarlarini, qarindoshlarini va boshqa yaqinlarini qanchalik hurmat qilsa, o'z do'st-u birodarlari, mahalladoshlari, jamoadoshlariga ham shuncha ehtirom ko'rsatib yurishi lozim. Inson inson bilan tirik, degan aqidani mustahkamlab shoir shunday deydi:

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay.

Muxtasar qilib aytganda, zamonlar o'tishi, davrlar o'zgarishi bilan yoshlarni tarbiyalashda keng qamrovli talablar qo'yila boshlandi. Axloqiy tarbiya, g'oyaviy tarbiya, siyosiy tarbiya, ma'naviy tarbiya, jismoniy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya; madaniy qiyofa, xodimlar salohiyati, komil inson, barkamol avlod; vatanparvarlik, elparvarlik, insonparvarlik; haqiqatgo'ylik, rostgo'ylik; tashkilotchilik, tashabbuskorlik, sadoqat, yuksak e'tiqodlilik kabi ta'lim-tarbiyaga, xususan, farzand tarbiyasiga doir barcha manbalar buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ilmiy, adabiy-badiiy, ijodiy merosidan istagancha topilishi va o'rganilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hikmatlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 13-bet.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1983. 29-bet.

Uzoq JO'RAQULOV,
filologiya fanlari doktor

LIRIK SHOIRNING EPIK QAMROVI

Muqaddima

Ikrom Otamurod lirik shoir emas, epik shoir. Ikrom Otamurod she'rchi emas, dostonchi shoir. Ikrom Otamurod komik shoir emas, tragik shoir. Ikrom Otamurod sentimental shoir emas, falsafiy-intellektual shoir. Ikrom Otamurod vazmin, ma'noli, yukli shoir...

Yukli shoirdan yukli asarlar kutiladi. Uni o'qiganlarning bu yuk zalvoridan dard-u dunyosi titiladi. Go'yo kangulning oy-quyoshi bir lahzaga tutiladi. Chin she'riyat, o'ylashimcha, xuddi shunday bitiladi.

Epik shoir nima degani?

Badiiyat ilmida epiklik nasrga, liriklik nazmga xos degan fikr munozarasiz qabul qilinadi. Bu adabiyotshunoslikning an'anaviy qoidasi. Ammo har qanday qoida bot-bot buzilib turgani uchun ham qoidadir. An'ana va qoidalarni buzish shahar yo'llarida halokatga olib kelsa, so'z yo'llarida jasorat sanaladi. Bundagi qoidabuzarlik badiiy so'z taraqqiyotini belgilaydi. Qoidalar buzilmagan joyda esa adabiyot to'xtab qoladi. Taraqqiy etmaydi.

Ayni paytda bunday qoidabuzarlikning bir sharti ham bor. Uni faqat iste'dodlargina buza oladilar. Bu ishga iste'dodsizlar bosh qo'shsalar, halokat ro'y beradi.

Liriklik – tuyg'u; liriklik – "subyektiv o'yin"; liriklik – ichki "men" izhori. Bularning bari she'r va shoir tushunchalariga yopishib turadi. Epiklik yoki "epik shoir" tushunchasi esa she'r va shoirlik dunyosiga biroz begonadek. Liriklik va epiklik baayni paradoks. Mantiq shunday uqtiradi. Ijod fenomeni mantiqni tan olmaydi. Asl ijod aslan paradoksal kesimda, ikki zid tutashgan cho'qqilarda tug'iladi.

Ikrom Otamurod she'riyati misolida men anglagan "epik shoir" tushunchasi shunday. Bu she'riyat liriklik va epiklik, subyekt va obyekt, ichki "men" va dunyo bir izga tushgan shoir kangluda parvarish topadi.

Ikrom Otamurod chin ma'noda epik shoir. Uning yuragi o'n sakkiz ming olam qalbi bilan hamohang tepadi. Uning hasrati hazrati inson dardi bilan tutash. Uning fitrati borliq tabiati bilan fitratdosh. Shunday bo'lgach, Ikrom Otamurod qanaqasiga epik shoir emas, lirik shoir bo'lsin?

Kitobning nomiga e'tibor qilaylik: "Huviyyat". Nomning o'ziyoq Ikrom Otamurod she'riyatining naqadar ulkan epik qamrovga egaligini ko'rsatib turibdi. "Huviyyat", keng ma'noda, hamma narsa degani. "Hu" – arabcha U degani. U deyilganda esa Bir-u Bor, Yaratguvchi, barcha olamlar Robbisi, mutlaq hokimi, qiyomat kunining yagona Podshohi – Alloh taolo tushuniladi. Huviyyat esa Uning tomonidan yaratilgan, Uning zikri bilan mavjudiyat sharafiga erishgan barcha narsa-hodisalardir.

Ikrom Otamurodning "Huviyyat" kitobiga kirgan she'rlarda cheksiz dunyodagi mana shunday cheksiz hodisalar qalamga olinadi. Mana ulardan biri:

Quyosh yonboshlaydi qiblaga horg'in,
mislsiz yo'l yurgan yo'lovchidek sus.
Ufq devorlari qizarar torg'in,
ruhim vujudidan tomg'ilar afsus.
Shovqin eshiklari yopilar butun,
osmon mung'ayadi,
zamin tishlar til.
Gulxanlar yonadi,
burqsiydi tutun,
kullarni ko'klarga sovuradi yel.
Kunduz chodirini yig'adi behol...
Shirin bir tushlarga bog'lab umidin
to'rg'aylar sukutga cho'madi,
alhol,
mo'g'jalarda mudrar qo'zigul hidi...

She'r bir qarashda tuyg'u izhoriga o'xshaydi. "Ruhim vujudidan tomg'ilar afsus" misrasi dastlab o'quvchida shunday fikr uyg'otadi. "Tomg'ilamoq" fe'li milliy tildan uzoqlashgan kangullarga mavhumot g'ashini soladi. Milliy ruh begona bo'lmagan kangullarga esa rohat-farog'at bag'ishlaydi. Shuningdek, shoir "ruhim vujudi" degan so'z birikmasida aslan bevujud, azaliy va abadiy inson joniga majoz libosini kiydiradi. O'quvchida ruh borlig'i haqida tasavvur uyg'otaroq mavzuni koinot doirasiga, uni harakatlantirayotgan Barhaq qudratini anglash tomon buradi.

Bularning bari "qiblaga yonboshlayotgan quyosh", torg'in qizarayotgan "ufq devori" tashbehidan anglashiladi. Shu asnoda she'r dunyosiga "chodirini yig'ayotgan kunduz", "yopilayotgan shovqin eshiklari", "mung'aygan osmon", "til tishlagan zamin" singari ta'rifini qilsangiz kitob bo'lgudek tasvirlar, obrazlar kirib keladi. O'quvchi ruhiyatiga sokin, mahzun ohang bo'lib quyiladi. Uni Yaratganning qudrati, borliq va menlik sinoatini anglash yo'li tomon boshlaydi.

Tong nafasi gurkirab turgan bir she'rida borliq uzra yoyilayotgan "subhidam", "nasim shevasi", nabotot, jamodot, hayvonot, shuningdek, "borlar, asrorlar", yo'qlar, ayrolar, ginalar, pandlar, keklar, bog'ichlar, quvonchlar, g'amlar, dardlar, sog'inchlar"ning barcha-barchasiga salom yo'llaydi shoir. Dunyoni borligicha qutlaydi, sharaflaydi, qabul qiladi. Ularning barchasiga qarata: "Sizga sihat, sizga qurbat bersin yangi kun", deya tilak bildiradi.

Yana bir she'ri "yolg'iz ot" metaforasi vositasida yolg'izlanib, horib borayotgan mehrni alqash, siylashga qaratilgan. Shoir go'yo undan ko'ngil so'raydi, "hayt" deya madad berishni istaydi. Go'yo mehrga mehr beradi, unga sabr-qanoat tilaydi: Yolg'iz ot yeladi/ Bir najot istab/ Najot bo'lsin unga qanoat/ sabr... tarzida ifodalaydi o'z istaklarini.

Ikrom Otamurod omonat ochun haqida shunday yozadi: Asig'dan yigirilgan tiriklik / olamni pir qildi hafsalam... Bu bilan go'yo foniy dunyo ketiga "bir tepib", undan hakka misol "hakkalab o'tgan" Mashrablar malomatini yodga soladi. Asig', ya'ni foyda va manfaat to'rlaridan chiyratib yigirilgan omonat dunyo haqidagi she'rini shunday xulosalaydi:

G'amlarimni hamdam bilib,
hoy,
xohish bermay naql-u riyoga:
yo'lga chiqdim,
tashvishlarga aytmay,
ketaman,
bildirmay dunyoga...

Ikrom Otamurod Vatan haqidagi she'rlarida ham aldoqchi tuyg'ularga bosh qo'shmaydi. Samimiyat, sakinat va rostlik bilan so'zlaydi. Bu so'zlar ohangiga millat tarixi, ajdodlar tuzuklarida pinhon sir-sinoatlarni singdiradi. "...Vatan so'zin yo'g'irmasman ranglarga/ jilolarga burkamasman qatma-qat"... misralari bilan boshlangan bu she'r shunday ichkin iqror tasviri bilan tugaydi:

Vatan so'zi –
Kanglum mohiyati,
bas,
quroq ilinjlardan kanglum qaqshaydi.
Kanglumda
Vatan so'zigina emas,
kanglumda
Vatanning o'zi yashaydi...

Albatta, bu she'rni ilinjlar tug'magan. Unda aytilgan so'zlar millatning o'zidek jaydari va rost. O'zbekning qalbidek kamtarin va xokisor. Unvonsiz xalq shoiri iqroridek keskin.

Shunday bo'lgach, bu she'riyatga subyektiv tuyg'ular aksi, sof lirizm tarzida baho berib bo'lmaydi. Ikrom Otamurodning istalgan boshqa she'rini olib ko'rganimizda, tahlil etganimizda ham bunday xulosadan uyalmaymiz. Ularning ulkan epik qamrovga ega o'ziga xos lirika, milliy she'riyat maydonidagi inja kashfiyotlar ekanini anglaymiz...

Dostonchi shoir she'r yozmaydimi?

Jahon she'riyatini bir chetga surib turganimizda ham, bugungi milliy she'riyatimizda "faylasuf shoir", "jangchi shoir", "g'azalchi shoir", "qo'shiqchi shoir", "modernchi shoir" kabi atamalar uchrab turadi. Ikrom Otamurod she'riyati bulardan tubdan farq qiladi. U – "dostonchi shoir".

Xo'sh, "dostonchi shoir" nima degani? "Dostonchi shoir" she'r yozmaydimi?

Javob: "dostonchi shoir" she'r ham, doston ham yozaveradi. Gap shundaki, "dostonchi shoir"ning she'rlari dostondek, dostonlari she'rdek bo'ladi.

Meni Ikrom Otamurod – "dostonchi shoir", degan xulosaga olib kelgan narsa uning ko'p doston yozishi emas, balki shoirning har bir satri mohiyatida balqib turgan voqelik, samoviy qamrov yukidir.

Menimcha, Ikrom Otamurod tabiatan olam va odam haqidagi falsafani liro-epik ko'lamda tasvir etishga moyilroq shoir. Uning adabiy jarayonda voqe bo'lgan dostonlari ko'p. Ularni ko'pchilik biladi. Ayni sabab, bu o'rinda, sanoqqa ehtiyoj yo'q.

"Huviyyat" to'plamiga shoirning uchta mo'jaz dostoni kiritilgan: "Huviyyat", "Aning umidi", "Dog'". Albatta, bu sanoqda turgan dostonlarning birinchi turgani ham, eng salmoqdori ham "Huviyyat" dostoni.

Dostonga hazrat Navoiy "Hayrat ul-abror"idan:

"Ho"si huviyyatni qilib jilvagah,
"Lom"i bila qoyili "al-mulku lah", –

bayti epigraf qilib olingan. Baytdagi "huviyyat" so'ziga "Navoiy lug'ati"da "mohiyat", "haqiqat" tarzida ma'no berilgan. Sovet davrida tuzilgan, tuzum imkon bergan darajada shakllantirilgan lug'atda qayd etilmish ushbu ma'no umuman to'g'ri. Ammo diniy-tasavvufiy nuqtayi nazardan qaralganda bir qadar torlik qiladi. To'g'riligi shundaki, mutlaq haqiqat ham, barcha mavjudlikning mohiyatida turuvchi ham aslida Alloh. Keng ma'noda "huviyyat" Allohning jaloliyati va jamoli mutlaq zuhur etuvchi barcha narsa-hodisalar, ularning uzluksiz zikr bilan U Zotga tasbeh aytib turishi, ya'ni mavjudlikning mohiyatidir. Zotan, jamiki mavjudiyat – mulk – "Al-mulki lah" – faqat Unga xosdir ("Hadid" surasi, 2-oyat).

Muhimi shoir bu hikmat ma'nosini to'g'ri anglagan, chuqur his qilgan. Shu sabab dostonning bosh qahramoni chegarasiz koinot, uning bag'ridagi zarra misol Yer, yerda istiqomat qilayotgan Odam. Doston voqealari kechadigan zamon-makon aniq bir hudud, aniq bir davrni bildirmaydi. Umuman yer yuzida, umumiy bir zamonda kechadi. Kechadi ham emas, to'garak jahon tegrasidagi doira bo'ylab aylanadi.

...Aylana ichida aylanalar aylanar, –

deb boshlanadi dostonning ilk satri ham. Bu satr "huviyyat" tushunchasini teran his etgan o'quvchi ko'nglida Arsh ostidagi Kursi, Kursi ichida aylanayotgan yetti osmon, biri atrofida biri parvona bo'layotgan galaktikalar, Quyosh tegrasida raqs tushayotgan Yer, yer uzra doira solib yurgan Odam tasavvurini uyg'otadi.

Bundagi barcha hodisalar kungura bo'ylab kechadi. Kunguralar harakati abadiyatni ifodalaydi, abadiyatga eltadi. Aslida bularning barchasi Odam tevaragida aylanadi, Odam bolalariga xizmat qiladi. Doston shu buyuk qonuniyatni anglagan yoki anglamagan bani Odam haqida. Ularning turli-tuman xayolot, his, fikr tarzlari xususida.

Shoir bularni dastlab so'z asnosida, fikr tizmalari izchilligida tasvirlamoqchi bo'ladi. Hatto hazrat Navoiydek valiyullohlarga bosh qo'shmagan chegarasiz ulug'vorlikni tasvirlash mumkin emasligini tuyqus anglagan shoir bu vazifani o'zi kashf etgan – aylana bo'ylab harakatlanuvchi so'z maromiga yuklaydi. O'z kashfidan o'zi yengil tortadi, o'z qutqusidan o'zi qutuladi.

Ayon durur,
kim qay yo'lla kelsa manzilga,
xuddi shunday chiqib ketadi,
bilaks...

...Aylana –
qurama tarz...
...quroq maydon...

Illo, dostonda hamma narsa – Rahmon-shayton, osmon-zamin, kun-tun, erkak-ayol, yaxshi-yomon, sevgi-nafrat, odil-zolim, botir-qo'rqoq, sodiq-xoin, boy-kambag'al, oriq-semiz... – haqida gap bor. Bularning barcha-barchasi naqoratda, ulkan tafakkur va hissiyot jarayonining muxtasar ifodasi o'laroq xulosalanadi.

Komiklik kulgu, tragiklik qayg'u deganimi?

Ispan mutafakkiri Lope de Vega barcha pafos turlarini o'zida jamlagan adabiyotgina haqiqiy hayotga yaqinlashadi deydi. Ikrom Otamurodning "Dog'" dostonida shunga yaqin holatni his qiladi o'quvchi.

...Sukutdan
qandaydir
joy topib boradi
HAQqa intizor,
HAQqa mahliyo,
miskin chidamla
intilib tolg'in:
chungirak jon,
chungirak qayg'u,
chungirak xayol,
chungirak dog'...
...chungirak...
...G'animat on...

"Jon", "qayg'u", "xayol", "dog'", "g'animat on" singari hayot ranglarining chungirakligida so'z suvratining talay ranglari mujassam. Bu suvratda esa ko'ngil siyrati naqshlangan. Bu shunday siyratki, uning qayg'usida quvonch, quvonchida qayg'u aks etadi.

So'z davomida shoir bularning barini bir tovushli qatorlarga jamlaydi.

...Dog' dog'lagaydir dog'ni dog'lantirib...
...Oh ohlagaydir ohini og'lantirib...
...Yig'i yig'latar yo'qlatib yig'isini...
...Tusmol tuslatar tuslantirib tusini...
...Dard dardning dardiga dardona...
...G'am g'amning g'amiga g'amxona...
...Zanjir zanjirga zanjirlar zanjirini...
...Sir singdirgaydir sirriyotga sirini...
...Qayg'u – qalbning qaqroq qiyog'i...
...Armon – armonning aziz arqog'i...

Muhimi, ushbu satrlar shunchaki alliteratsiya o'yini emas. Ularda Yaratgan va jon, vujud va borliq munosabatlariga monand turfa ranglar qorishib ketgan. Bu shunday ranglar uyg'unligiki, unda quvonchning ko'zida qayg'u tin oladi, qayg'u qarog'ida kulgi o'ynaydi.

Daf'atan, "Dunyoning bir kunlik mehmoni – kapalak" voqeasi tasvirida bularning barchasi majoz ichiga kiradi. Bir kun umr ko'radigan kapalak. Uning gulga atalgan bir kunlik ishqi. Ishq yo'lidagi raqib – mayna. Bir kunlik umr sohibi – kapalakning fojiali o'limi...

Aslida umrimiz tragediyasi ham, komediyasi ham shu emasmi? Toki ajal soniyamiz qismat qo'lida ekan, inson umrining kapalak umridan qanday farqi bor?! Payg'ambar alayhissalom inson umri haqida shunday marhamat qilgan ekanlar: "O'ng tomonimga salom berayotib, chap tomonimga ham salom berishga ulgiramanmi-yo'qmi bilmayman".

Sentiment va intellektning chegarasi qayerda?

"Sentiment" his-tuyg'u degani. Ammo uning adabiyotga ko'chishi qiziq bo'lgan. His-tuyg'u tushkun yig'i bilan topishgan. Natijada sentimental she'riyat paydo bo'lgan. Intellektual she'riyat ham o'z holicha ko'ngilga kira olmaydi. Intellektual shoirdan aql o'rganish mumkindir, ammo kangullar to'lmaydi.

Ikrom Otamurod bir qarashda sentimental shoirga o'xshaydi. Biroq bu aldamchi taassurot. To'g'ri, uning she'rlari, dostonlarida tushkunlik, yig'i bor. Hatto ohangiga ham singiriqlar singgib ketgan. Yana biroqki, bu yig'ining tub-tubida ulug'vorlik, tushkun ruh ostida esa azaliy qayg'u bor. "Aning umidi" dostoni insonning mana shunday ezgin holati haqida so'zlaydi.

Ikrom Otamurodning g'azal bitganini eshitmaganman. Ammo shu dostonida aruz ohanglaridan ko'p foydalangan. Dam-badam aruz ohangi barmoq va sarbast ohanglariga o'rin bo'shatadi. Uch ohang go'yoki bahslashadi, musobaqa qiladi. Aruz muvoziy koinot, barmoq fik , sarbast tuyg'ular suvratini chizadi.

To'xtagan tun daraxtlarga ildi chodirin, –

deb yozadi aning umididan huzn chekkan shoir. "Dilim sahrosida bir oh dili xun..." deya davom etadi u. Ko'hna dunyoni sanoqsiz savollar bilan tutmoq bo'ladi. Dunyo esa: "Dilingdan so'r, dilingdan" deya javob beradi – qutuladi. Oq varaq sahifasida so'ngsiz savollar ichra boshini changallagan yakkash shoir, yakkash kangul qoladi.

... – Qay manzil safariga yo'l olding,
umid?..
... – Armonga...
... – Bo'lmasa,
maniyam birga olib ket!.....
... – Qay manzil safariga yo'l olding, armon?..
... – Umidga...
... – Bo'lmasa,
maniyam birga olib ket!..
.....

Shoir umidga, armonga yalinadi. Rasmiy "meni ham" so'zlarini qo'yib, bolalarcha, yalinchoq "maniyam" so'zini aytadi. Alhol, umid ham, armon ham unga rahm qilmaydi. Ko'pnuqtalar ko'payaveradi. Uning ma'nosini na aql, na his anglaydi...

Xotima yoxud yukli shoir – ko'rkli shoir

Ikrom Otamurod yukli shoir. Uning yuki shunchaki bir odam, shunchaki bir dunyo yuki emas. Uning yuki she'r va shoirlik yuki ham emas. U HUVIYYAT oshig'i. Oshiqlar yuki esa og'ir, mashaqqat bergich bo'ladi. Ishq mashaqqati insonga ko'rk bag'ishlaydi. Ko'rkli shoir ekan, huviyyat asroriga intiladi. Yaratgan niyati pok, amali rost insonni aslo noumid qilmagay. Alloh bilguvchiroqdir...

Odina ABOBAKIROVA,
Farg'ona davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

O'ZBEK BOLALAR HIKOYACHILIGINING JANR XUSUSIYATLARI

(Latif Mahmudov ijodi misolida)

Bolalar hikoyachiligi o'zbek adabiyotida o'ziga xos yangilanishlarga asoslangan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Uning rivojiga Cho'lpon, G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, Botu, Elbek, H.Olimjon, O.Yoqubov, S.Ahmad, H.Nazir, N.Fozilov, L.Mahmudov, A.Obidjon kabi ko'plab ijodkorlar asarlari muhim o'rin tutadi.

O'zbek adabiyotida hikoyalar qaysi yoshdagi bolalarga bag'ishlanganligiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

– maktabgacha bo'lgan yoshdagi;
– kichik maktab yoshidagi;
– o'rta maktab yoshidagi;
– yuqori maktab yoshidagi.

Latif Mahmudov ijodida yuqorida biz qayd etgan barcha yoshdagi bolalarga atalgan hikoyalarni uchratish mumkin. Anatoliy Aleksin to'g'ri ta'kidlaganidek: "Adabiyotda eng muhim narsa – bu insonning jonli xarakterini yarata bilishdir. Latif Mahmudov kitobida biz odamlarning (yoshlarning ham, kattalarning ham) aynan shunday xarakterini uchratamiz! Kitob sahifalarida biz hozirjavob, sho'x, ba'zida xato ishlar ham qilib qo'yuvchi, ammo hamisha qalbi pok, mehribon o'g'il va qizlar bilan uchrashamiz. Ular bir-birlari bilan do'stlashadi, bahslashadi, dam urishib, dam yarashadi, ammo ko'proq ezgu ishlarni bajarishga, hattoki eng keskin va mardona ishlarga ham jazm qiladilar". [1:3]

Latif Mahmudovning "Buvisi", "Bir qoshiq sho'rva", "Mehmon-mehmon", "Mushuk", "To'qson yilgacha o'rtoq", "Dorvozabon", "Uch opa-singil", "Berahm qiz", "Qizg'anchiq" hikoyalari maktabgacha yoshdagi bolalarga bag'ishlangan. Masalan, "Mehmon-mehmon" hikoyasida adib yaxlit voqelik asosida maktabgacha yoshdagi bolalar xarakterining real, hayotiy talqinini yaratgan. Hikoya o'ziga xos yumor bilan boshlanadi. Hikoyadagi "Barno bilan Lola juda ahil edi-yu, bir kuni arzimagan narsaga janjallashib, oralari buzilib qoldi, nimaga deng-a!" tarzidagi o'ziga xos tugun asosidagi muqaddima o'quvchida asar voqeligiga qiziqish uyg'otib, uni sujet oqimiga olib kiradi.

Shahlo singillari Barno va Lolaga bayram arafasida quvontirish uchun biri qizil, biri sariq rangli ikkita shar sovg'a qiladi. Qizlar bir-biri bilan "mehmon-mehmon"

o'yinini boshlaydilar. Biri ikkinchisini mehmonga chaqiradi. Dastlab ular kattalar singari mehribonlik bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar. Ularga taqlid qilib bir-birini tavoze bilan kutib oladilar. Hikoyada ushbu holat shunday yoritiladi: "Ancha-muncha takliflardan so'ng, nihoyat, ikki yosh katta bo'lgani uchun Barno qizil sharni ko'tarib "mehmon" ga keldi.

– Voy, nima qilib ovora bo'lib yuribsiz, – dedi Lola, – quruqqina kelaversangiz bo'lmasmidi, qo'lingizga birov qararmidi?

Barno bunaqa shirin-shirin gaplardan yayrab-yashnab:

– Hali ham quruqqina keldim, aylanay, deb qo'lidagi sharni darrov Lolaga tutdi, – oling, olmasangiz xafa bo'laman, ikkilamchi ostonangizga qadam bosmayman!

– Voy, nega unday deysiz, o'zimda ham shar bor, – dedi Lola, – mana!

– Sizniki xunukroq ekan, – dedi Barno zo'rlab, – sharning qizili chiroyli bo'ladi, aylanay, oling!" [2:296]

Bolalarning kattalar qiliqlarini takrorlash, gaplarini "o'g'irlash", ularga taqlid qilish odatlari hikoyadagi keyingi dialoglarda yanada yorqin namoyon bo'ladi: "Mehmon" Barno bitta konfetni og'ziga solib, darrov o'rnidan tura qoladi.

– Voy, nega turdingiz?

– Bormasam bo'lmaydi, tandirga somsa yopib, bu yoqqa kelavergan edim, aylanay, mushuk o'lgur yeb qo'ymasin.

– Voy, shunaqami, – dedi "mezmon" Lola "achinib", – boshqa kelganingizda bafurja o'tiradigan bo'lib keling". [2: 296–297]

Qizil sharni haqiqatdan ham chiroyli deb bila boshlagan "mezmon" Lola xursandchilik bilan sariq sharni "Oling, quruq ketmang", deya "mehmon"ga tutadi. Lekin Barno o'zining qizil sharini qaytarib olib ketish niyatida. Bunga Lolaning ham, o'z navbatida, Barnoning ham javobi tayyor:

– Voy, o'lmasam, – dedi Lola ginaxonlikka o'tib, – mehmon narsasini qaytarib olib ketmaydi, uyat bo'ladi.

Barnoning ko'zlari pir-pir uchib:

– Mayli, aylanay, mayli, – dedi shoshib, – uyat bo'lsa ham olib keta qolay". Lekin Barnoning bu "quvligi" ish bermaydi. Lola qizil sharni bermaslikka qat'iy ahd qilgan. Shu bois shunday "vaj"ni keltiradi:

– Bekorgina aytibsan, – dedi, – buvim undan keyin "narsamni almashtirib qo'ygani bechoraning hech balosi bo'lmasa kerak-da" degan!" [2:297]

Lolaning qo'pol muomalasi Barnoning ham unga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Endi "Hozirgina shirin-shakar so'zlardan suzilib turgan ko'zlari olayib ketgan, "mehmon"dan Barnoga aylangan o'rtog'i bilan Lola qizil sharni talasha boshlaydilar. Hikoya kutilmagan yakun topadi. Bolalar xarakterini yaxshi bilgan yozuvchi tasvirga yengil yumorni singdirib yuboradi: "So'zlaridan hozirgina bol tomib turgan "mehmon" "mezbon"ga tashlandi. Ming aylanib, ming o'rgilayotgan "mezmon" ham anoyi emas ekan, darrov "mehmon"ning sochiga chang soldi! Shu topda faqat aybi sariq bo'lgani uchungina hech kimga keragi bo'lmay hovlining o'rtasida yotgan sharni mushuk ko'rib qoldi, og'ilxonaning tomidan tushib keldi. Sharning oldida cho'qqayib o'tirdi. Shar ko'ziga qiziq ko'rindi shekili, oldi oyog'i bilan sekin tegib ko'rgan edi, shar yumaladi. Mushuk "qochib" ketayotgan sharga jon-jahdi bilan tashlangan edi, shar "paq" etib birdan ko'zdan g'oyib bo'ldi-qo'ydi. Mushuk bu g'alati tovushdan cho'chib, avval u yoq-bu yoqqa qarab oldi, so'ng yugurganicha yana og'ilxonaning tomiga chiqib ketdi, qaytib tushgani yuragi dov bermay anchagacha olchaning tagida yumdalashayotgan "mehmon" bilan "mezmon"ga qarab yotdi". [2:298] Ana shu tariqa, talashib-tortishish natijasida qizil shar yorilib ketadi. Endi dugonalar sariq sharning har biri o'ziga tegishli ekanini aytib, tortisha boshlaydilar. Mundoq qarashsa, sariq shar ham yorilib ketgan ekan. Ushbu hikoya Abdulla Avloniyning "Ikkinchi muallim" kitobidagi "Arslon va Ayiq" [3:14] haqidagi asarining voqeligi ta'siri asosida yaratilgan. Unda o'zaro ittifoq bo'lmagan Arslon va Ayiqning ovlagan ovlaridan ajralib qolishlari bayon etiladi. Hikoyada bolalarda uchraydigan qizg'anchiqlik illati qoralanadi. Yozuvchi hikoyaga xos bo'lgan janr imkoniyatlaridan samarali foydalanadi. L.Mahmudov voqeani uning hayotiy, jonli tasvirini yaratish uchun qahramonlar xarakteri, yosh xususiyatlari, odat va qiliqlarini chuqur kuzatgan holda yengil yumorga uyg'un tasvir vositasida jonli tarzda asarga olib kirgan. Ayniqsa, asardagi mushuk tasviri bilan bog'liq talqinlar hayotiy va jonliligi bilan hikoyaga zeb bo'lib kirgan.

L.Mahmudovning "Dangasaning holi voy" hikoyasida o'rta maktab yoshidagi bolalar bilan bog'liq voqea qalamga olingan. Asarning asosiy qahramoni Dadavoy dangasalik oqibatida yaxshi o'zlashtira olmay sinfdan qolib, singlisi Oysha bilan birga o'qiydi. U shunday dangasaki, hatto papkasida turgan nonni olib yeyishga ham erinadi. Uning singlisi bilan birga bir sinfda o'qishining bir jihati xursand qiladi. U ham bo'lsa papkasini doimo singlisiga ko'tartirib yurishidir.

Nusrat bobo hovlisida ulkan oshqovoq yetishtirgan, uning siri urug'ida ekanini aytgan edi. Dadavoy ana shu oshqovoqning urug'ini olmoqchi bo'ladi. Oshqovoq o'rik ustiga o'sib chiqib, ulkan mevasi barchani hayratga solib osilib turar edi. Dadavoy uni qirqib olmoqchi bo'lganida ustiga uzilib tushadi. Natijada Dadavoyning boshi qovoq ichiga kirib qoladi. Ushbu o'rinda yozuvchi shartlilik usulidan mohirlik bilan foydalanib, sujetning qiziqarli tus olishiga, voqelikka o'quvchilarni ishontirishga erishadi. Nusrat bobo, uning kampiri yurib ketayotgan qovoqni alvasti deb o'yladilar. Shundan so'ng Dadavoy sarguzashtlari boshlanadi. Dadavoy qovoq ichida ovoz berib aravakash Mordonqulni qo'rqitadi. Hikoyaning bolalarbop, o'qimishli bo'lishi uchun yozuvchi yumor orqali voqelikni tasvirlash usulidan foydalanadi. Hikoyaning boshlanmasi hamda tugallanmasida muallif nutqi vositasidagi bayon o'rin olgan. O'ziga xos prolog vazifasini o'tovchi hikoya boshlanmasidagi ushbu ma'lumot xarakterlidir: "Bu narsani yozish xayolimda yo'q edi. Nega desangiz, yalqov dangasaning nimasini yozadi-yu, nimasidan huzur-halovat topadi odam. Bir ishni do'ndirib qo'yibdimi, yo aytaylik, biror qilig'i bilan birovni qoyil qoldiribdimi. Yaxshini yo'rig'i boshqa. Yozgan sari odamning ko'ngli yayrab, dunyoda faqat yaxshilik qilgisi-yu, faqat yaxshilik uchun yashagisi kelaveradi. Ammo bir maktabda dangasalarning dan-

gasasini, yalqovlarning yalqovini uchratib, hayratda qoldim, tavba, odam ham shunaqa befarq, shunaqa ishyoqmas bo'ladimi, shu bola nega bunaqaman, deb o'ziga-o'zi hech savol berib ko'rganmikan?

Oti Dadavoy edi". [2:5]

Yozuvchi shu tariqa hikoya boshlanmasida asosiy qahramon bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Dadavoy xarakteriga xos jihatlar hikoya voqealari davomida asta-sekinlik bilan ochila boradi.

Hikoya so'ngida yozuvchining bir-ikki yildan so'ng yana Dadavoy bilan maktabda uchrashgani, endi u butunlay o'zgargani tasvirlanadi. U yozuvchiga shunday deydi:

– Amaki, yanglishibsiz, men boshqa Dadavoyman... siz yozgan Dadavoyni o'sha "alvasti qovoq" allaqachon "yeb" qo'ydi. [2:36]

L.Mahmudov hikoyalarining yana bir xususiyati, avvalo, ularning har biri o'ziga xos boshlanma va tugallanmaga egaligi bilan ajralib turadi. Boshlanmalari o'quvchini jalb qilib voqealar ichiga olib kirsa, tugallanmalarida o'ziga xos xulosa, qahramonlarning yaxshi xulq tomon yuz burishlari tasvir etiladi. Yozuvchi bolalar uchun yozilgan asarlarda nekbinlik, ko'tarinki tasvir uslubi yetakchi o'rinda bo'lishi lozimligini, yo'qsa, ular ruhiyatiga salbiy ta'sir etishi mumkinligini yaxshi biladi. Shu bois L.Mahmudov hikoyalari yosh kitobxonlar tomonidan alohida sevib o'qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aleksin A. Ham quvnoq, ham jiddiy kitob // Qarang: Mahmudov L. Dangasaning holiga voy. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
2. Mahmudov L. Dangasaning holiga voy. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.

Feruza IKROMXONOVA,
pedagogika fanlari nomzodi

TARIXIY ASARLARNING TARIXIY-QIYOSIY TIPOLOGIYASI

Adabiyotshunoslik, xususan, qiyosiy adabiyotshunoslikda shu paytgacha tarixiy poetika masalalari, tarixiy voqelikni badiiy idrok etish borasida mulohazalar turlicha bo'lib, ularni yagona tizimga solish va yakuniy xulosani aytish dolzarb muammolardan sanaladi. To'g'ri, ijodiy jarayon doimiy ravishda o'sib, o'zgarib borar ekan, kecha eng to'g'ri deb aytilgan fikr bugun yangi mulohaza oldida bir pog'ona pastlashi yoki butunlay rad etilishi mumkin. Biroq tarixiy roman, qissa va hikoyalar hamda ularning tipologiyasini tadqiq etish orqali globallashayotgan bugungi dunyodagi xalqlar madaniyati va adabiyotini qiyoslash imkoni paydo bo'ladi.

Mazkur muammo adabiyotshunoslik tarixidagi davomli bahslardan biri bo'lib, "mashhur odamlar tomonidan ko'rsatib o'tilgan va eslatilgan matonat o'rnaklarini ko'rish ham, eshitish ham zarur" ekanligini antik davrdayoq Aflotun ta'kidlab o'tgan. [3:103]

Tarixiy asar va tarixiy voqelik haqidagi mazkur fikr keyinchalik Arastu tomonidan "Tarixchi va shoir (yozuvchi ham nazarda tutilgan – F.I.) shu bilan tafovutlanadiki, ularning biri haqiqatan bo'lgan, ikkinchisi esa bo'lishi mumkin bo'lgan voqea haqida so'zlaydi. Shuning uchun poeziya tarixga qaraganda falsafiyroq va jiddiyroqdir", degan tarzda rivojlantiriladi. [2:32]

Tarixiy asarlar poetikasi Skaliger "Poetikasi"da davom ettirildi: "Epik shoirlarda tarix mazmunning asosi bo'lib xizmat qilishi hech kimga ma'lum emas. Ular birini yashirib, birini bezabroq tarixga, shubhasiz, o'zgacha qiyofa beradilar va undan poema yaratadilar". [8:137–138]

Badiiy-tarixiy asar, qahramonlar obrazini yaratish haqida XVI asrda yashagan yana bir italiyalik olim Torkvatto Tassoning fikrlari salmoqli ahamiyat kasb etadi. "Qahramonlik poemasini yozishga jazm etgan har kim uchta masalani hal qilishi lozim bo'ladi: shoirning mahorati go'zal shaklni qabul qila oladigan materiyani tanlashi, shunday go'zal shaklni yaratishi, va nihoyat, o'ziga eng mos, ham yarashiqli bezaklar bilan materiyaga zeb berishi". [6:168]

Bu yerda uch masalaning birinchisi: materiya; ikkinchisi: shakl; uchinchisi: materiyaga zeb berish. Avvalgisi asar uchun olinadigan predmet bo'lib, uni voqea, fabula deyish ham mumkin. U o'z salmog'iga ko'ra umuminsoniy, tugallangan, bo'lib o'tgan voqea-hodisa bo'lishi kerak. Ikkinchisi esa yana voqea-hodisaning mohiyati bilan yozuvchi badiiy-estetik konsepsiyasi, badiiy niyatini yaxlitlikda aks ettira oladigan shakl, birinchi galda janr

yaratish muammosi turadi. Chunki roman janriga to'g'ri keladigan mavzu qissa yoki dostonga sig'maganidek, hikoya janriga mos keladigan mavzu roman darajasiga olib chiqilsa, unda asarda badiiy to'qima o'rni ko'payib, voqealar bayoni cho'zilib ketadi. Bunday asarlarda tarixiy haqiqatni keragidan ortiq darajada badiiylashtirish asar saviyasini pasaytirib boradi. Masalan, Ibrohim Rahimning "General Ravshanov" nomli romanini misol tariqasida keltirish mumkin.

Tasso mulohazalari davomida yuqorida sanalgan uch masalaning har biriga alohida-alohida to'xtalib o'tadi. U keltirgan mulohazalar yozuvchi uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladigan tamoyillarga aylana boradi. Masalan, "oqil odam o'zi yaratmoqchi bo'lgan narsaning turlarinigina emas, balki kemasoz kema qurishga ishlatiladigan yog'ochni yoki me'mor bilan toshtarosh bino qurish uchun yaroqli toshlarni yodda tutgani kabi, materiyani ham, uning shakllarni qabul qilish qobiliyatini ham yodda tutmog'i lozim". [6:169] Chunki yozuvchi ham o'z ijodiy laboratoriyasida real voqelikdan tanlab olgan predmet (voqea, hodisa, tasvir, obraz va h.k.)lari yordamida badiiy olam yaratadi. Yaratilayotgan olam kishilar anglab yetishi, tushunishi darajasidagi aniq makon va uning detallari bilan jihozlanadi.

Mark Tven Janna d'Ark haqidagi asarida voqealarni Janna d'Ark qurolbardori va kotibi ser Luyi de Konte tilidan bayon qilar ekan, avvalo, o'zi va Janna tug'ilib o'sgan qishloqni, ya'ni aniq makonni tasvirlaydi. Bu yerda voqea uchun materiya sifatida olgan makon tasviriga qishloq, ko'cha, uy detallarini olib kirgan. Shu yo'l bilan o'quvchi ko'z o'ngida tor va qiyshiq ko'chalar, tomiga poxol yopilgan, pastqam eski omborga o'xshash, poli tuproqdan uy, deraza o'rnida xira nur tushib turadigan tuynukni jonlantiradi. Kishilar qo'y va mol boqishi, bolalar, asosan, cho'ponlik qilishlarini bayon etadi.

Umuman olganda, Tassoning fabula tanlashda ilgari surgan g'oyasi haqiqatga yaqinroq deyish mumkin: "Qadimgi asrlar va bizdan uzoq xalqlar tarixi ko'p sabablarga ko'ra qahramonlik poemasi uchun maqbul, zero, ko'hna o'tmish qa'riga ko'milgan voqealar o'zi haqida faqat ojiz va xira xotira qoldiradi, shu bois ularni o'z xohishiga muvofiq almashtira yoki o'zgartira oladi". [6:172]

Biroq olim tarixning qay miqdorgacha o'zgarishi mumkinligini aytmaydi. Chunki badiiylashgan tarix umuminsoniy va zamonaviy muammolar yechimiga xizmat qilishini bilgan holda, yozuvchi real tarixni butunlay o'zgartirib yuborishga haqqi yo'q. Bunday yo'l tutish tarixiy haqiqat va badiiy to'qima munosabatlaridagi muvozanat buzilishi, asar poetikasidagi nuqsonlar ortishiga olib keladi. Bu yerda asar uchun olingan materiya qay shaklga sig'ishi va unga qanday bezak berish mumkinligi haqidagi masala ham ochiq qolgan. Masalan, Janna d'Ark haqidagi asarlar anchagina bo'lib, ular misteriya (Tereza Lizyoskoyning "Janna d'Ark", 1896;. A.Fransning "Жизнь Жанны д'Арк", 1908; Sh.Pegining "Мистерия о милосердии Жанны д'Арк" 1910), pyesa (B.Shouning Avliyo Ioanna, 1923; B.Brextning "Святая Иоанна скотобоен", 1932; J.Anuyning "Жаворонок", 1953), tarixiy-diniy roman (D.S.Merejkovskiyning "Жанна д'Арк и Третье Царство Духа", 1938) janrlarida bayon etilgan.

Olingan voqea qamroviga ko'ra, Mark Tvenning roman janrini tanlagani voqeaga mos keladi. Biroq misteriyalar yoki ko'chalarda qo'yiladigan diniy mavzudagi kichik sahna asar ham Janna d'Ark obrazini to'la va real yorita olmaydi. Biz pyesa, tarixiy-diniy roman bo'yicha ham shunday deya olamiz. Demak, Janna d'Ark yashagan davr va uning tarixiy obrazini zamonaviy maqsaddan kelib chiqib shakllantirishda roman janrining tanlanishi lozim bo'lgan.

Antik adabiyot namunalarida yoki o'rta asrlar adabiyotida tarixiy shaxslar qahramonliklariga oid voqealar dramatik yoki liro-epik asarlarda ifodalangan. Bu o'sha davrga xos amaliyot hisoblangan. Biroq XIX asrda roviy tilidan aytib berish bunda tarixiy voqeaning tugallangani, aniq makon va zamonda yuz bergani, turli asotir va rivoyatlarga qorishiq holda ifodalanishi Amerika romanchiligining ilk davriga xos xususiyat hisoblanadi. Chunki Amerikada shakllanib kelayotgan milliy badiiy tafakkur, milliy o'zlikni anglash g'oyasi milliy mafkurani shakllantirishning turli omil va asoslarini tadqiq etishni talab etar edi.

Shu ma'noda Mark Tven ancha yetuk roman yozgan. U o'z asari uchun olgan tarixiy voqelikka xalq orasida keng tarqalgan og'zaki ijodning bayon usuli, ularga xalq roviylari fantaziyasining turli usullarini joriy qiladi. Bunda Fransiya tarixi haqida asar yozgan salaflaridan boshqacharoq yo'l tutadi. Fikr isboti uchun quyidagi parchani tahlil etamiz: "Bolalik paytida, o'n to'rt yarim yoshgacha bo'lgan davrida Janna qishloqdagi eng quvnoq, hayotga chanqoq: goh sakrar, hamisha bahor va baxtli qiz bo'lgan! Qalban samimiylik va hozirjavoblik, to'g'rilik va ochiqlik uchun uni deyarli hamma sevar edi. U vatanni jondan sevardi, biroq urush haqidagi xabarlar uning sho'xligini bosib qo'yardi, yuragini kemirar va bundan u achchiq ko'z yosh to'kardi; biroq g'am buluti uni tark eta boshlashi bilan u yana avvalgi holiga qaytar, quvnoq Jannaga aylanar edi". [7:49]

Mazkur parchada roviy nutqining jozibasi, avvalo, bayonning xalqona usulda olib borilgani bo'lsa, ikkinchidan, unda Jannaning xarakteri qirralari aniq va hayotiy faktlar bilan ochib berilgan. Bu yerda asosiy e'tibor Jannaning shaxs sifatida bolaligi qanday kechgani tasvir predmetiga aylangan. Gegelning yozishicha, "Fransiyada tarixiy asarlar yaratish azbaroyi tarix va uning predmetiga qiziqishdan emas, balki davr ehtiyojlarini qandaydir qondirish, masalan, ko'pincha hukumatga jo'yali maslahat berish yoki unga nafrat tug'dirish maqsadida yoziladi. Shuningdek, ko'pgina dramalar ham yo o'zining butun mazmuni, yoki ayrim jihati bilan

zamonaviy hodisalarga shunday urg'u beradi". [4:220] Mark Tven esa bu yerda birovga nasihat yoki o'git berishdan yiroq bo'lib, kamtarlik bilan Jannaga xos fazilatlarni keltirgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yozuvchi tarixiy asar yaratishda voqelikka ijodiy yondashishi unga o'tgan davr ruhini anglash imkonini beradi. Xalq orasida, turli kishilar xayolida, ularning tasavvur va tushunchalari bilan to'yingan xotira, esdalik va kundaliklardagi voqelik Janna d'Ark faoliyatining parchalari sifatida mavjud edi. Yozuvchi ana shu parchalarni birlashtirdi. Umuminsoniylik va tarixiylikni uyg'unlashtirgan holda yaxlit kompozitsiya sifatida taqdim etdi. Bunda uning yoshlik yillari kemadagi xizmati, Yevropada yashagan va olamni kezgan paytlari to'plagan turli materiallari, xalq og'zaki ijodi zarur manba bo'lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Antonio Minturno. Poetik san'at / D.Quronov. B.Rahmonov. G'arb adabiy-tanqidiy tarixiy ocherklari. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
3. Aflotun. Davlat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Gegel, Georg Vilgelm Fridrix. Estetika yoxud san'at falsafasi yoxud badiiy ijod falsafasi. 1-jild. M.Abdullayev tarjimasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 20 1. 360-bet.
5. Lodoviko Kastelvetro. Xalq tilida bayon qilingan va sharhlangan Aristotel "Poetika"si / D.Quronov. B.Rahmonov. G'arb adabiy-tanqidiy tarixi ocherklari. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Torkvatto Tasso. Qahramonlik poeziyasi haqida mulohazalar / D.Quronov. B.Rahmonov. G'arb adabiy-tanqidiy tarixiy ocherklari. – Toshkent: Fan, 2008.
7. Twain Mark. Personal Recollections of Joan of Arc. Published: 1896. www.twainmark.com.
8. Yuliy Sezar Skaliger. Poetika / D.Quronov. B.Rahmonov. G'arb adabiy-tanqidiy tarixi ocherklari. – Toshkent: Fan, 2008.

Ziyoda QARSHIBOYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

ESKI DARDNING YANGI OVOZI

Mustaqillik yillarida barcha sohalarda o'zgarish bo'lgani kabi adabiyot sohasida ham tub burilishlar yuz berdi. Xususan, janriy yangilanishlar va ifodadagi rang-barangliklar izlanish samaralarining o'zgacha jilosi sifatida adabiy jarayonda bo'y ko'rsatdi. An'anaviy qissachilik yangicha yondashuvlarga yuz burdi. Oldin yaratilgan asarlarda inson qismati ko'proq davr bilan, tashqi olam bilan chambarchas yoritilsa, endi boshqacha talqinlarga ham ehtiyoj paydo bo'la boshladi. Ta'kidlash joizki, sho'ro davrida yaratilgan "Bolalik", "Shum bola", "O'tmishdan ertaklar" kabi asarlardagi qahramon taqdiri, ifoda yo'sini o'sha davr talablariga ko'ra bitilgan bo'lsa-da, aslida bu ham hayot talabi asosida ro'y bergani shubhasiz. Shu bois bu tipdagi badiiy mukammal asarlarning yaratilishi har bir davr o'z yozuvchisi va o'z adabiyotini yaratadi, degan hikmatomuz aksiomaning yashovchanligidan dalolat beradi. Asl haqiqat shuki, insoniyat har doim o'z mehnati va yaratuvchanligi bilan o'z davrining manzarasini abadiyatga muhrlab boraveradi. Shu ma'noda so'nggi davr adabiyotidagi yangilanishlar ham, eng avvalo, inson omiliga, ya'ni asar bitadigan yozuvchi mehnatiga bog'liq.

So'nggi paytlarda tanilib kelayotgan yosh iste'dod sohibi Bobo Ravshanning "Shom va tong orasida" qissasi ham shu jihati bilan xarakterli. Dastavval, mazkur qissaning nomlanishiga e'tibor qaratsak. Ma'lumki, udumlarimizga ko'ra shom payti xosiyatsiz vaqt sifatida baholanadi. Yoshi ulug'lar shom payti uxlayotgan odamni uyg'otishadi, ko'chada o'ynayotgan yosh bolalarni uyga kirishga undashadi. Binobarin, yozuvchi qissada tasvirlanayotgan shom vaqtiga ham o'zgacha ramziy ma'no yuklaydi. Qissa yaqin o'tmishmiz, sho'ro siyosati hukmronlik qilgan vaqtlardan so'ylaydi. Davrning manfur siyosati tufayli xalqimiz "eng qora va jirkanch" o'yinlarining aybsiz aybdorlari bo'lishgan. Elning ziyoli qatlamini yo'q qilib, xalq ma'naviyatini butunlay o'chirib tashlashga oshiqqan sho'ro hukumati ko'plab oilalarning yostig'ini quritdi. Ayni mana shu davrlarni yurtimiz tarixining eng xosiyatsiz onlari, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Bu davr manzaralari adiblarimiz ijodida u yoki bu tarzda tez-tez qalamga olinmoqda, o'ziga xos tarzda ma'naviy-ma'rifiy saboq chiqarishga undamoqda. Shu bois mazkur qissa nomlanishidagi birlamchi razmiylik – zohiriy ma'no bilan birga botiniy ma'no ham mujassamlashgani kuzatiladi. Shom, ya'ni kunning yakuni, quyosh ufqqa bosh qo'yayotgan, atrofni asta-sekinlik bilan qorong'ilik chulg'ab ola boshlagan palla. Lekin bu qarong'ilikning ortida yana yangi tongga umid bor: shomda botgan quyosh tongning debochasidir. Yangi quyosh ko'kka balqishi uchun ham eskisi botishi kerak. Ayni qissada mana shu shom bilan tong orasidagi taqdirlar

aks etgan bo'lib, unda yozuvchi zamon va inson qismatini bir-biriga uzviy bog'laydi. Bu asar yozilmasidan oldin ham aynan mana shunday siyosiy o'yinlarning qurbonlari haqida "ko'p va xo'p" yozib bo'lingan. Qissada bitilgan mavzu yangi emas, inson tashvishlari yangilanmagan, lekin taqdirlar qismati yangi ifoda yo'sini bilan o'zgacha talqin qilingan. Adib xalqmiz milliy qadriyatlarining qadrsizlanib, tanazzulga yuz burishi arafasida bo'lgan davrni o'ziga xos milliy bo'yoqlarda aks ettiradi. Qissada voqelik tasvirida Surxon shevasi ustuvorlik qiladi. Bu asar tilining bolday shirin, jozibador bo'lishiga xizmat qilgan. Asarda sho'ro davri fojialari o'ziga xos hayotiy haqiqatlarda aks etadi. Birgina Mengziyoning baxshichilik mahorati, xalq orasida dostonlarni kuylab yurishi butun oilaning halovatini yo'qotib, sargardonlikka mahkum bo'lishiga olib keladi. Mengziyo o'zi sevib kuylaydigan "Alpomish" dostonini oxiriga yetkaza olmaydi. Uni yurtiga qaytarib olib kelishga vaqti, imkoni yetmay qoladi. Qalmoq yurtida uzoq qolib ketib, yurtiga qaytish jarayonlari ortga surilaveradi.

– *Tinchlikma, bolam?*

– *Bilmayman, ena. Ko'nglim allataur bo'lib ketdi… shu bugun "Alpomish" hech oxiriga jetmadi.*

Ehtimolki, shu kuylangan dostoni bois Mengziyo o'zi bilmagan holda o'z taqdiriga hukm chiqaradi. U ham olislarda, yurtidan yiroqda sovuq o'lkalarda umrbod qolib ketadi. "*Qayin barglar yopib, qaro ko'zini, olislarda qolgan…*" o'g'lonlari ko'pdir o'zbek elining. Mengziyonig ustozi unga: "Baxshi umrida bir marta daryoday to'lib, she'rday na'ra tortib qo'shiq aytmasa, aytar gapi ichida armon bo'lib qoladi… Agar bu baxshining oxirgi qo'shig'i bo'lsa, ichi bo'shab, govrasi shovshab qoladi"[2], – degan edi. Mengziyo ham o'zini ichi bo'sh xumga o'xshatadi. Endi unga barcha narsa aziz, qadrdondek tuyulaveradi. Ushbu tasvirlar kitobxonga baxshi qismatidan ogoh etadi. Muallifning o'zi bayonot kiritmasdanoq qahramon hayotining fojiasi qalban his qilinadi.

Asarda qahramonlariga ism tanlash ularning xarakter xususiyatidan kelib chiqqanligi ham yosh yozuvchining yutug'i sifatida baholanishga loyiq. Jumladan, *Tangriqul bobo* – Mengziyoning otasi, oilaning bosh vakili, xudojo'y, oqko'ngil, mehribon, bolajon inson, Tangrining mo'min quli. U doim ishdan bo'sh vaqtlarida oila davrasida Ahmad Yassaviy, Navoiy asarlarini o'qib o'tirar, o'ziga yoqqan qismlari bo'lsa ovoz chiqarib mutolaa qilar hamda oila a'zolaridan uning ma'nosini so'rab, o'zi ham maromiga yetkazib sharhlar edi. *Mengziyo* – nur taratguvchi degan ma'noni ham ifodalab keladi. Chunki u yonib, zavqqa to'lib, milliy qahramonlik dostonlarini kuylab xalqqa ziyo ulashadi. *O'ktam* – Mengziyoning ukasi. Tog'lik yigitlarga xos chayir, Alpomish kelbatli yigit. Mard, g'ururli va tanida qoni qaynab turadigan bo'z yigit. Uning o'ktamligiga chin ma'noda amin bo'ladigan qism asarda shunday ifodalab o'tilgan. Ular sho'rolardan qochib ketayotganlarida qish izg'irinida sovuq daryoni tizza bo'yi kechib o'tishlariga to'g'ri keladi. U onasi va kelinoyisini ulovga o'tqazib olib o'tadi. Onasini daryoning narigi qirg'og'iga olib o'tar chog'i oyog'i chuqurga kirib, beligacha daryo suviga sho'ng'ib ketadi. Hatto jonivorlarning-da eti junjikib o'tayotgan daryodan u bel bo'yi suvga sho'ng'ib yana hech gap bo'lmagandek narigi qirg'oqqa o'tib olib kiyimlarini almashtiradi. Vaholanki, ular yana ancha vaqt sovuq havoda yurishadi, lekin uning sog'lom tanida biron kasallik alomatlari sezilmaydi. Mana shu bois ijodkor uni O'ktam deb atagan bo'lsa neajab. *Oydin* – Mengziyoning ayoli. U ham qissa davomida bosh qahramon bo'lib keladi. Uning oydek to'lin husniga etaman degan oshiqlari ko'p. Mengziyoning o'zi ham yulduzlar ichra oyga oshiq bo'lib qoladi, lekin uning uzun tim qora sochlariga jonini nisor qilguvchi oshiqlari orasida "ko'zini nahs bosgan" To'raqul sho'ro ham bor edi. Uning hayvoniy hirsga to'lgan nigohlari bilan Oydinga termulishi uning yuzidagi dog' bo'lib qoldi. Uyidan olisda, o'zga yerda makon topishganida uning yuragini o'rtagan sog'inch vujudini kemirib, to'shakka mixlab qo'yadi. Oydinning dardiga esa yurtidan keltirilgan bir hovuch tuproq shifo bo'lishi kerak edi, lekin shoshilinchda yo'lga otlanishganida tuproq olish hammaning esidan chiqadi. Oydin esa erta saharda xuddi oy kabi shafaqqa singib ketadi… Inson o'z yurtidan olisda, endi unga olib boradigan yo'llarni butunlay unutishi kerak bo'lgan bir davrda bu hijronga chidam berish juda qiyin. Oydinning nozik jussasi bu dardni ko'tarishga ojizlik qiladi. Elmurod – Mengziyoning o'g'li. U oilaning yolg'iz ishonchi. Butun bir oila yillar o'tib faqat undan davom etgan. O'zga yerga qochib, u yerda makon topishlari uchun ham mana shu umid sababchi edi. Chunki u Mengziyoning yolg'iz zurriyodi bo'lib, uning murodini amalga oshirishi zarur edi. Garchi Elmurodning o'zi ota kasbini davom ettira olmagan bo'lsa-da, ota kasbi merosxo'rsiz qolmadi. Zero, Elmurodning nevarasi Mengziyo baxshigina "Alpomish"ning qaytishini oxiriga yetkazib qo'yadi. Shu bilan butun el o'z murod-maqsadiga yetadi. To'raqul sho'ro (tarozi) bolaligidan o'ziga "tarozi" laqabini orttirib oladi. To'raqul – yoshlik chog'laridanoq qaysi tarafning yuki og'ir bo'lsa, o'sha yoqqa og'ib ketadigan, hamiyatsiz yigit. U faqat o'z joni va qorni uchun yashab qolish yo'llarini qidiradi. Buning uchun har qanday pastkashliklarga rozi edi. Uning qalbi tosh qotgan, hissiz edi. Undan yaqinlari kabi insoniy tuyg'ular ham yiroq ketgan. O'zi uchun umr kechirgan inson esa yillar o'tib hech kimga kerak bo'lmay qoladi.

Shu tariqa yozuvchi har bir qahramonning ismiga ham olam-olam ma'no yuklaydi va buni asar mohiyatiga payvandlab yuboradi.

Asar ohorli ifodalar, jozibali tasvirlar, topib ishlatilgan jumlalarga boy. Yoshi ulug'lar yigitlar ta'rifida *botirim, polvonim* deb erkalashlarida **(Bo'laman degich el bir-birini botirim deydi)** xalqning jipsligi, bir-biriga qayishishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Asarda faqat xalqimizgagina xos bo'lgan urf-odatlar qisqa tasvirlarda kichik-kichik jumlalarga katta ma'no yuklash orqali ifodalangan. Aytaylik, uyga kechasi mehmon kelganda eshikni uyning erkagi ochgan. Mezbon mehmonni izzatlab o'g'liga ovoz beradi:

– *Uyga mehmon keldi. Keyin berman qara.*

Mana shu birgina aytilgan jumlani olaylik. Nega ota darrov o'g'liga "berman qara", demadi. "keyin" so'zini nega ishlatdi? Bizningcha, bunda o'g'ilga qarata, mehmon kelganini uydagi ayollarga xabar qil, ular tayyorgarliklarini ko'rib turishaversin, degan iddao ham mu-

jassam. Oydin o'lim to'shagida yotganida Tangriqul bobo va Toshboy bobo uning yoniga kirishadi. Kelini o'lim bilan olishib yotgan holida ham ularning yonida yotishga hijolat chekadi. Shunda nuroniylar kelin ko'p ham xijolat bo'lmasin deb, undan uzoqroqda, kelinga orqa o'girib o'tirishadi...

Begona insonlarni o'z jigarlaridek qabul qilib, hali o'zlari ham ko'chib kirmagan yangi uyining to'ridan joy berishdek bag'rikenglik ham faqat o'zbek xalqigagina xos bo'lgan tantilik belgisidir. Qissada bu xususiyat ham o'zining jozibador tasviriga ega.

Asarda qo'llangan har bir gap, ibora asarning mazmun-mohiyati bilan uyg'unlanishib ketadi. Tangriqul bobo tilidan aytilgan "Tulki uyiga qarab ulasa, qo'tir bo'ladi", jumlasi asarning yakuniga hukm chiqaradi, ya'ni "iniga qarab ulagan" To'raqul sho'ro "qo'tir" bo'ladi. Undan butun el, oila a'zolari hazar qiladi. *"Obro'li xonadonning nomiga dog' tushirayotgan otasini o'g'li zax xonaga qamab qo'yadi".* Bu ham yetmaganidek unga qo'l ko'tarishgacha boradi. Yovuzlik qachon bo'lmasin o'z ishlariga, albatta, jazo oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asar juda chiroyli yakun topgan. Uning mazmuniga mos tarzda tanlangan sarlavha uni yanada go'zal qilgan. Yurtimiz "shom"dan nurafshon kunlarga yetib keladi. Bu ikki zamonni birlashtirib turgan ko'prik esa Elmurod. U hayotning barcha achchig'ini totib ko'radi va shom bilan tong orasida umr kechiradi. Asar so'nggida yurtimizning mustaqillikka erishishi, xalqning azaliy orzulari ushalishi, "Alpomish"ning qaytishi, uni Elmurodning nabirasi – Mengziyoning kuylashi o'ziga xos tarzda tongni tasvirlaydi. Bir so'z bilan aytganda, eski dard, alam yangi ovoz bilan kuylandi va u adabiyot ahliga manzur bo'ldi. Chunki mana shunday ruhda yozilgan asarlar orqali insonlar qalbida Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi yanada mavj urib yashnaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobo Ravshan. Shom bilan ton orasida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2019.
2. Xolova Muyassar. Boysun shevasiga xos so'zlarning leksik-semantik genezisi. – Toshkent: Yosh olimlar, 2019.
3. Imom Buxoriy. Hadislar. – Toshkent: Hilol nashr, 2018.
4. www.ziyo.net

Tadqiqotlar

Nigina NE'MATOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALAR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

(Xitoy va o'zbek tillari materiallari asosida)

Annotatsiya. *Maqolada murakkab sintaktik qurilmalarga oid muammolar va bu borada tilshunoslarning qarashlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *sintaktik derivatsiya, murakkab sintaktik qurilmalar, parataktik aloqa, gipotaktik murakkab sintaktik qurilmalar, hokim gap, tobe gap, semantik tadqiqotlar, tobe aloqa.*

Annotation. *The article considers the problems of complex syntactic integers and the views of linguists on them.*

Key words: *syntactic derivation, complex syntactic whole, paratactic connection, hypotactic complex syntactic whole, main sentence, subordinate sentence, semantic research, subordinate connection.*

Аннотация. *В статье рассмотрены проблемы сложно-синтаксических целых и взгляды лингвистов на них.*

Ключевые слова: *синтаксическая деривация, сложное синтаксическое целое, паратактическая связь, гипотактическое сложное синтаксическое целое, главное предложение, подчинённое предложение, семантические исследования, подчинительная связь.*

Tilshunoslikda murakkab sintaktik qurilma (MSQ) mavzusi fikr ifodasi va sintaktik shaklining eng yuqori va murakkab pog'onalaridan birini tashkil etganligi sababli muammoli yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi. Tilning konkret qo'llanilishi uchun so'zlarning bir-biri bilan munosabati va bu munosabatning konkret ravishda amalga oshirilishi uchun esa sintaktik qurilmaning shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tilshunoslik fanida yangi nazariya – sintaktik derivatsiya nazariyasi kashf etildi. Bu nazariya o'z mohiyatiga ko'ra

tilning hosila, ya'ni ikkilamchi strukturalarini tadqiq etish va natijada uning nutqda qo'llanilish qonun-qoidalarini o'rganish, tahlil qilishga xizmat qiladi.

Sintaktik derivatsiya nazariyasining kashf etilishiga leksik derivatsiya asos bo'ldi. Chunki so'z yasalishi muammosini o'rganishda leksik derivatsiya nazariyasidan azaldan foydalanib kelingan. Sintaktik derivatsiya nazariyasi o'tgan asrning 30-yillarida kashf etilgan bo'lsa-da, rus tilshunosligi va u orqali o'zbek tilshunosligiga o'tgan asrning 60-yillarida kirib keldi. Xususan, 1962-yilda polyak tilshunosi Yeji Kurilovichning "Leksik derivatsiya va sintaktik derivatsiya" nomli maqolasi nashr etilgach, rus tilshunosligida ham birmuncha ishlar qilindi.[1] Rus tilshunosligida I.P.Raspopov, S.N.Sicheva, L.N.Murzinning ilmiy tadqiqotlarida ham sintaktik derivatsiya tushunchasi E.Kurilovich ta'limoti asosida yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida ham sintaktik derivatsiya muammosiga bag'ishlangan salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. N.Turniyozovning bu boradagi qator ilmiy ishlari fikrimizga dalil bo'la oladi.[2] Jumladan, N.Turniyozov fikricha, "har bir hosila sintagmatik qatorda shakllanishi bilan birga o'zida paradigmatik va sintagmatik qatorlarning kesishish nuqtasini ham taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, sintaktik derivatsiya til materiallarining nutqda qo'llanilishi bilan uzviy aloqador ekanligini yana bir marta namoyish etadi"[3].

MSQlar sintaksisi, shuningdek, MSQlarni o'rganish xitoy tili grammatikasi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Van Lyaoi, Lyu Shusyan, Yu Yang Chun, Sin Fu Nan, Sin Fu I, Xi Ar Shi, YAng Bai Tyun, shuningdek, rus xitoyshunos olimlari V.I.Gorelov, A.A.Dragunov, E.N.Dragunova, T.P.Zadoyenko, A.F.Kotova, E.I.Shutova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida tahsinga sazovor. Xitoy tilida MSQlar tasnifiga tegishli umumqabul qilingan tugal fikr hozirgi kunga qadar shakllanmagan. Chunki bu sintaksis xitoy tili grammatikasining boshqa bo'limlariga nisbatan xitoyshunos olimlar e'tiborini ancha kechroq tortgani bilan bog'liq. Xitoy lingvistik an'analari xarakteriga muvofiq uzoq davr davomida iyeroglifika, fonetika va leksikologiyalargagina e'tibor qaratilgan. XIX asr oxiriga kelib grammatika olimlar diqqatini tortdi. Ammo izlanishlar morfologiya va sodda gaplar doirasidagina amalga oshirildi. XX asrning 40-yillariga kelibgina atoqli tilshunos olim Lyu Shusyan o'zining "Очерк грамматики китайского языка" (Xitoy tili grammatikasi ocherklari) nomli asarida birinchi marta xitoy tilida sintaktik qurilishning o'ziga xosligi, so'z birikmasi va gaplarda sintaktik aloqa turlari tadqiq etilgan.[4] Aynan shu davrga kelib Van Lining "中国现代语法" nomli asari chop etildi. Unda olim so'z va so'z birikmasi atamalarini bir-biridan farqlash muammolarini yechish, sintaktik qurilmalar strukturasi va turlarini o'rganishga e'tibor qaratgan. Shundan boshlab bu mavzuga yaqin ilmiy ishlar yuzaga kela boshladi. Xitoy tili sintaksisining funksional, struktur va semantik jihatlari tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar shular jumlasiga kiradi. Ammo ularda ham tadqiqot obyekti sifatida so'zlashuv nutqi va monopredikativ jumlalarni o'rgangan sintaktik qurilmalar berilgan. Muammolarning katta qatlami yuzaki o'rganilgan yoki umuman e'tibordan chetda qolgan. Bu MSQlar sintaksisiga ham xos. Xitoy tilshunosligida aynan MSQlarga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud emas, chunki MSQlar alohida sintaktik birlik sifatida ajratilmagan.

Shunday qilib, MSQlar hozirgi xitoy tili sintaksisining eng qiyin va eng kam o'rganilgan qatlamlaridan biri deyishimiz mumkin. MSQlar xitoy tilida alohida sintaktik soha sifatida o'rganilmaganligi uchun ularning strukturasi, semantikasi, tipologiyasi, turli badiiy janrlar va nutq uslublaridagi stilistik funksiyalari haqida bir qator muammolar o'z yechimini kutmoqda.

Jahon tilshunosligida MSQ talqiniga bag'ishlangan ilmiy monografik tadqiqotlar ko'p bo'lsa-da, hali yechimi topilmagan jumboqlar ham talaygina. Ular jumlasiga MSQ tarkibiy qismlarining nomlanishi, ularning tub strukturaga munosabati, propozitiv strukturasi tarkibiy qismlarining o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi grammatik va ekstralingvistik omillarning funksional salmog'ini aniqlash va, umuman, MSQ birliklarining qo'llanishi bilan bog'liq ko'plab munozarali masalalarni kiritish mumkin.

MSQni tashkil etgan sodda gaplar unga xos semantik, grammatik intonatsion xususiyatlarga ega: ana shu xususiyatlari bilan ular mustaqil qo'llanuvchi sodda gaplardan ajralib turadi. Shuning uchun ham har qanday sodda gaplarni biriktirib MSQ hosil qilish mumkin emas. MSQ tarkibidagi sodda gaplar ikki xil aloqaga kirishishi mumkin:

1. Teng aloqa.
2. Tobe aloqa.

Grammatik jihatdan teng aloqaga kirishuvchi gaplar bog'langan, ya'ni parataktik MSQlarni tashkil etadi. Biri ikkinchisiga tobe bo'lgan gaplar esa gipotaktik MSQni hosil qiladi. Teng aloqada MSQ qismlari mazmunan nisbiy mustaqillik va sintaktik jihatdan tenglikka ega. Gipotaktik MSQlarda qo'llanayotgan gaplarning biri ikkinchisiga mazmunan va sintaktik jihatdan tobe bo'ladi. Ularning biri ikkinchisini izohlaydi va to'ldiradi.

Professor R.Sayfullayeva ta'kidlaganidek, MSQning eng nozik, ko'z ilg'amas tomonlarini bundan o'ttiz yilcha oldin G'.Abdurahmonov o'z asarlarida aytib o'tgan. Shuningdek, bu masalaning semantik xususiyatlari M.Asqarova, F.Ubayeva, K.Nazarov, S.Ravshanova kabi olimlarimiz ilmiy izlanishlarida tahlilga tortilgan. O'zbek tilshunosligida ergash gaplarning tasnifi umuman boshqa tillardagi ergash gaplar tasnifiga yaqin turadi. Bu tasodifiy emas, albatta. Chunki ergash gap nazariyasi qariyb barcha tillarda uzviy bog'langan.

Ergash gapli MSQlar sintaktik shakllanishiga ko'ra bog'langan MSQlardan tubdan farq qiladi. Chunki ular bosh gapning yagona tub strukturasiga asoslanadi. Bu xildagi MSQlar tarkibiy qismlarining semantik va sintaktik munosabatlari ham tenglik asosiga qurilmaydi. Shuning uchun ham ularning biri hokim, ikkinchisi esa tobe gap deb ataladi. Tobe gap bosh gapga tuzilishi va mazmuniga ko'ra ham tobe bo'ladi. Masalan; 你既然一定要走，我就不留你了[5] (Modomiki, sen aniq ketadigan bo'lsang, unda men seni olib qololmayman).

Keltirilgan misolda MSQning ikkinchi qismi sintaktik shakli va semantik mavqeyiga ko'ra hokim gap ekanligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Shuning uchun MSQning umumiy sintaktik shakli ana shu hokim gapning talabiga binoan unga zamon nuqtayi nazaridan qo'shimcha izoh berish uchun yuzaga kelmoqda.

Demak, tobe gapning o'z tub strukturasi bo'lsa ham, MSQ umumiy sintaktik strukturasi shakllanishida bunday tub struktura yetakchi omil bo'la olmaydi. Uning sintaktik shakllanishi bosh gapning talabiga ko'ra yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, tobe gap o'zi o'zi uchun emas, bosh gap uchun shakllanadi.

Gipotaktik MSQlar tarkibiy qismlarining o'zaro sintaktik munosabati turli grammatik vositalar ta'sirida yuzaga keladi. Bu vositalar jumlasiga bog'lovchi so'zlar, nisbiy olmoshlar, shart fe'llarining shakli va boshqa ayrim grammatik elementlar kiradi.

Tobe gaplar tarkibida bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning mavjudligi, yoyiq, yig'iq bo'lishi va boshqa xususiyatlari bilan MSQ tarkibiga kirmagan sodda gaplardan kam farqlanadi.

Sintaktik tadqiqot usulining vujudga kelishi esa shu vaqtga qadar bo'lgan tadqiqot masalalari orqali payqash mumkin bo'lmagan yashirin ichki hamda nomoddiy hodisa sifatida anglanadigan, tasavvur etiladigan ma'no uzvlarini obyektiv yoritishga katta yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, bugungi tilshunosligimiz oldiga tadqiq etilishi lozim bo'lgan ko'pgina masalalarni qo'yadi.

---

[1]G'afforov A. Hozirgi o'zbek tilida parselyativ va ilova qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Samarqand, 1997. 8-bet.

[2]外国人实用汉语语法。北京语言大学出版社。2007 年，636 页。

[3]Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая//Очерки по лингвистике. – Москва, 1962.

[4]Турниязов Н.К. Синтаксическая деривация гипотаксиса в современном узбекском языке // Автореф.докт.дис. – Москва,1985; Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчиненного предложения в современном узбекском языке. –Ташкент, 1985.

[5]Turniyozov N.Q. O'zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish. – Samarqand, 1990. 55-bet.

[6]Люй Шусян. Очерк грамматики китайского языка / Люй Шусян. В 2-х тт. – Т. 1: Слово и предложение. – Москва: Восточная литература, 1961. – 266 с.

Anvar IBAYEV,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

KOMPARATIVISTIKA MUAMMOLARINING NAZARIY ASOSLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. *Maqolada komparativistika muammolari, shuningdek, taqqoslash usuli tillarni o'rganishning eng va asosiy muhim metodlaridan biri ekanligi, maqsadi va obyektiga ko'ra komparativistikaning tilshunoslikda uch yo'nalishini mavjudligi, bular qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, areal tlshunoslik, qiyosiy, taqqoslovchi tilshunoslik hamda topologik tilshunoslik bo'limlari ekanligi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *komparativistika, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalingvistika, leksema, matn, chog'ishtirma lingvisika, tipologiya.*

Annotation. *The problems of comparative linguistics, as well as the method of comparison is one of the most important methods of language learning, the existence of three directions of comparative linguistics in terms of purpose and objects: comparative-historical linguistics, areal linguistics, comparative, comparative linguistics and topological linguistics.*

Keywords. *Comparative studies, linguocultural studies, pragmalinguistics, lexemes, texts, comparative linguistics, typology.*

Аннотация. *Проблемы сравнительной лингвистики, а также метод сравнения являются одним из важнейших методов изучения языка, существования трех направлений сравнительной лингвистики с точки зрения цели и объектов: сравнительно-историческая лингвистика, ареальная лингвистика, сопоставительная, сравнительная лингвистика и топологическая лингвистика.*

Ключевые слова. *сравнительные исследования, лингвокультурология, прагмалингвистика, лексема, текст, сравнительная лингвистика, типология.*

Fan o'z rivojlanishining yangi davriga qadam bosar ekan, uning dinamik o'sishi insoniyatni qotib qolgan chegaralarni yorib chiqishga undamoqda. Jumladan, tilshunoslikka komparativistik yondashish bugungi kunda alohida e'tibor talab etmoqda. Aynan shuning uchun ham komparativistika muammolari hozirda keng ko'lamda tahlil qilinmoqda. Fikrimiz dalilini komparativistika nafaqat tilshunoslik doirasida (qiyosiy lingvistika), balki qiyosiy adabiyotshunoslik, qiyosiy pedagogika, qiyosiy o'lkashunoslik, qiyosiy dinshunoslik, hatto qiyosiy huquqshunoslik bilan iqtisodiyot doirasidagi qiyosiy tadqiqotlar o'rganilishida ham ko'rishimiz mumkin.

Nazariy komparativistikaning rivojlanishi uning muammolar ko'lamini aniqlash bilan bog'liq bo'lib, bu holat xususiylikdan umumiylikka, individual tahlildan tarixiy, antologik, mantiqiy tahlilga qarab o'sishda namoyon bo'ladi.

Shunisi ahamiyatliki, zamonaviy tilshunos biror "ekzotik" til yoki shevani o'rganar ekan, ongida o'z ona tili yoxud uning uchun tanish bo'lgan boshqa biror tilning umumiy sxemasini gavdalantiradi hamda o'z-o'zidan mazkur sxema bilan yangi o'rganilayotgan tilning faktlarini solishtiradi.

Qiyosiy lingvistika tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, aytish lozimki, mazkur yo'nalish bo'yicha o'tgan asrda ko'plab tadqiqot ishlari bajarilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bunday izlanishlar ingliz va amerikalik tilshunoslar bilan bir qatorda Praga tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan ham olib borilgan.

Mazkur tadqiqotlar orasida Sh.Balli, L.V.Shcherba, E.D.Polivanovning ishlarini alohida ta'kidlab o'tmoq joiz. Shu bilan birga tilshunoslikning bu yo'nalishi A.I.Smirnitskiy, A.V.Yarsev, V.D.Arakinlarning ishlarida tillarning qiyosiy tahlili nazariy asoslanib berilishi bilan o'z ifodasini topgan.

Ta'kidlash joizki, qiyosiy lingvistika bilan bog'liq masalalar ichida, eng avvalo, tilshunoslikning boshqa bo'limlari orasida uning o'rnini belgilash kabi muhim muammolar o'z yechimini kutmoqda. Zero, olimlarning to'g'ri ta'kidlashicha, taqqoslash usuli tillarni o'rganishning eng va asosiy muhim metodlaridan biridir. Biroq maqsadi va obyektlariga ko'ra komparativistikaning tilshunoslikda uch yo'nalishini ko'rsatib o'tish lozim: qiyosiy-tarixiy tilshunoslik (tillarning taraqqiyotida genetik o'xshashlikni o'rganadi), areal tilshunoslik (tillarning ikkinchi darajali qarindoshchiligini o'rganadi, bunda tillarning tub genetik umumiyligi ahamiyatga ega bo'lmaydi), qiyosiy, taqqoslovchi tilshunoslik hamda topologik tilshunoslik (tillar orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni o'rganadi, bunda ham ular orasidagi genetik yaqinlik ahamiyatga ega bo'lmaydi).

Yuqorida keltirilganlardan fanda, asosan, qiyosiy (kontrastiv) lingvistika hamda lingvistik tipologiyaning farqli va o'xshash tomonlari e'tiborni tortib, bu masala olimlar o'rtasida tahlil, bahs va munozalar obyektiga aylandi. Bu haqda V.Skalichka quyidagilarni yozadi: "Tipologiya til sistemasining alohida komponentlarini qiyoslaydi. Biroq uning asosi sifatida ikkitadan ortiq turli tillarni olib qaraydi. Qiyosiy lingvistika esa tillarni faqat ikki til doirasidagina taqqoslaydi. Ammo bu taqqoslash til sistemasining barcha elementlari asosida ro'y beradi".

Bundan tashqari qiyosiy lingvistika va tipologiyani qarama-qarshi qo'yganda, olimlar tipologiya nisbatan mavhumlikka ega ekanligini, qiyosiy lingvistika esa tipologiyadan farqli o'laroq, aniqlikka intilishini ta'kidlashgan. Boshqacha aytganda, qiyosiy lingvistika tipologiyaga material, obrazli qilib aytadigan bo'lsak, xomashyo beradi. Tipologiya esa, o'z navbatida, qiyosiy lingvistikaga umumiylik va farqlilik jihatidan kerakli ma'lumotlarni yetkazib beradi.

Aytish joizki, qiyosiy lingvistikaning materiallarini amalda qo'llashda, jumladan, tillarni o'qitishda katta e'tiborni o'xshash tomonlardan ko'ra farqli tomonlarga qaratish lozim bo'ladi. Ammo har qanday tillarni solishtirilganda ularning farqli tomonlarini ochib berar ekanmiz, o'z-o'zidan o'xshash tomonlari ham kelib chiqadi. Muhimi shundaki, qiyosiy tahlil obyektini til birliklarining istalgan darajadagi ko'rinishlari tashkil qilishi mumkin: fonemalar, so'zlar, grammatik butunliklar (hattoki matnga qadar).

Yuqorida aytib o'tilgan olimlarning ayrim fikrlariga qaramay, qiyosiy jabhadagi tadqiqotlar nafaqat ikki, balki uch yoki undan ham ko'p tillar bilan bog'liq bo'ladi. Ammo mazkur tadqiqotlarning eng keng tarqalgani ikki til doirasida yuz beradi. Shu sababdan biz bunday tahlilning namunalarini hech ikkilanmay bi-ideosinxronik tahlil, ya'ni ikki sistema o'rtasidagi munosabatni taqqoslovchi tahlil deb qarashimiz mumkin. Bunda sistemalarning alohida komponentlari o'rtasida qiyoslash jarayoni ro'y beradi.

Har bir alohida til – yopiq holdagi sistema. Shuning uchun ikki tilning har qanday taqqoslanishi ikki sistemaning qandaydir darajadagi buzilishi demakdir.

Qiyosiy lingvistika tilning barcha yo'nalishlarini (fonologik, morfologik, sintaktik, semantik) obyekt qilib olgan holda o'zining umumiy maqsadi sifatida tillarni taqqoslashni vazifa qilib olgan. Bunda qiyoslanayotgan tillarning birini boshlang'ich til (source language) sifatida olib qarashadi. Odatda, bunday til sifatida tadqiqotchining o'z ona tili xizmat qiladi. Mazkur til bilan o'rganilayotgan boshqa biror til taqqoslanadi. Tillarning o'xshash va, eng asosiysi, yuqorida ham aytib o'tilganidek, farqli tomonlari belgilab beriladi. Tillarni taqqoslash chet tilidan o'z tiliga qarab ham amalga oshirilishi mumkin. Ayrim hollarda o'rtaliqdagi uchinchi til ham maydonga chiqib, mazkur tilning qolgan ikki til bilan umumiy jihatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bu ikki taqqoslanuvchi tilning qanday belgilari o'rtaliqdagi tilda ham mavjudligi ko'rib chiqiladi.

V.B.Kashkinning fikricha, tillarni taqqoslab o'rganishning eng maqbul yo'li bu – prallel matnlarning tahlili. Darhaqiqat, olimning fikriga qo'shilsa bo'ladi, zero, matnlarning ham sintaktik, ham semantik bog'lanishi nutq mahsuli ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ularni ikki va hatto uch til o'rtasida qiyoslaganda, til birliklari doirasida taqqoslangandan ko'ra konkretroq vaziyatga duch kelamiz.

Parallel matnlarni tadqiq qilishning ikkita asosiy yo'nalishini ko'rsatish mumkin: eksperiment va kuzatish. Eksperimental tadqiqot jarayonida izlanuvchilar parallel matnlarni yaratadilar. Ko'pincha vaziyatlarni modellashtirishda shakllangan matnlar bu – dastlabki vaziyatning bir til doirasida yuzaga kelgan tarjima variantlari (interpretatsiyalari)dir.

Maxsus ishlab chiqilmagan, balki kuzatish, mavjud tarjimalarni tahlil qilish va ularni o'rganish jarayonida yuz beradigan usulni tabiiy lingvistik eksperiment (kuzatish usuli) deb atash mumkin. Bunday usulning materiali sifatida bitta matnning bir necha tillarga o'girilgan varianti yoxud bitta matnning bir necha tarjimonlar tomonidan bitta tilga qilingan tarjimasini ko'rsatish mumkin.

Shuni ham aytish joizki, til nazariyasi va tarjima amaliyotida oxir-oqibatda situatsiyalar, kontekstlar

hamda matnlar chog'ishtiriladi. Ammo bu situativ matnlar kontinuumi alohida diskret (segment) qismlarga bo'linishi hamda mazkur qismlarning har biri tarjimaning o'ziga xos bir yondashuvini talab qiladi. Har bir qism bu ma'no uzatish imkoniyatini beruvchi vositalar "zaxira"sidan tanlab olingan natija sanaladi.

Fikrimiz dalili sifatida quyida biz soddaroq tushuncha berish maqsadida matnlarni emas, balki matn tarkibidagi so'zlarni taqqoslab ko'ramiz:

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
daraxt	дерево	tree, wood
o'rmon, yog'och	лес	forest, timber

O'z vaqtida glossematikaning asoschisi daniyalik tilshunos Lui Elmslev bunday chog'ishtirishning iloji yo'qlini aytib o'tgan edi. Avval boshida hammasi silliq kechayotganidek tuyulsa-da, keyinchalik turli xil misollarni ko'rib chiqaverganimiz sari buning iloji yo'qligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbektilidagi *daraxt*, rus tilidagi *дерево*, ingliz tilidagi *tree* so'zlarini olib qaraylik:

Qara, mana daraxt. – Смотри, вот дерево. – Look, there is a tree.

Keltirilgan misollarda hech qanday g'alizlik kuzatilmayapti. Ammo boshqa bir misolga yuzlanadigan bo'lsak, butunlay boshqacha holatga ko'zimiz tushadi:

Bu stol yog'ochdan yasalgan.
Этот стол сделан из дерева.
This table is made of wood.

Ko'rinib turganidek, rus va ingliz tilida daraxt so'zi qo'llansa-da, o'zbek tilidagi misolda bu so'zni qo'llab bo'lmaydi. Zero, *bu stol daraxtdan yasalgan* degan mazmundagi gapni o'zbek tilida aytib bo'lmaydi. Chunki bunday tarjima bizni matnning tub ma'nosidan ancha uzoqlashtiradi.

Ta'kidlash joizki, tillarning chog'ishtirma tahlillarini leksema misolida emas, balki matn misolida ko'rib chiqsak, masalani yana ham aniqroq ochib berish imkoni tug'iladi. Chunki leksemaning asl ma'nosi matn tarkibida yuzaga chiqadi. Matn esa, ma'lumki, til birligi emas, balki nutq birligidir. Bu esa F. de Sossyur dixotomiyasining ko'p o'rganilgan til sohasini emas, balki kam o'rganilgan ikkinchi muchasini, ya'ni nutq jabhasini o'rganish uchun yana ham ko'proq ehtiyoj tug'diradi. Yuqorida uchta tilda keltirilgan misollarimiz buning yaqqol dalili bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham tarjimada so'z sifatida hech qanday g'alizlik kasb etmagan leksemalar, gap tarkibiga kirganda boshqacha ma'no ifodalashining guvohi bo'ldik. Bu holat nafaqat bir necha tillar doirasida, balki bir til doirasida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, fikrimiz dalilini faqat o'zbek tili misolida ko'rib chiqsak: *inson, odam, kishi.* Mazkur so'zlar bir xil ma'no kasb etayotgandek tuyulsa ham, ularning asl ma'nosi matn tarkibida yuzaga chiqishining yana bir bor guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan: *Sen baribir odam bo'lmading.*

Keltirilgan misolda odam so'zining o'rniga ma'nodoshlarini qo'yib ko'ramiz va bunda o'ta g'aliz jumlalarga duch kelamiz:

Sen baribir odam bo'lmading.
Sen baribir inson bo'lmading.
Sen baribir kishi bo'lmading.

Ko'rinib turganidek, leksemalar bilan bog'liq bo'lgan bunday g'alizliklarga hatto bir til doirasida ham duch kelish mumin.

Yuqorida keltirilganlarga tayanib shuni ham aytish mumkinki, kontrastiv lingvistika tilshunoslikning lingvomadaniyatshunoslik, pragmalingvistika kabi sohalari bilan ham uzviy bog'liq. Chunki tillarni chog'ishtirar ekanmiz, biz o'z-o'zidan ularning madaniyati, mentaliteti, san'ati va hatto dini bilan ham qisman bo'lsa-da tanish bo'lishimizni talab etadi. Bu esa komparativistika pragmalingvistika bilan ham chambarchas bog'lanishining yana bir isboti sifatida namoyon bo'ladi. Zero, matnda ko'zga tashlanmagan nozik pragmatik ma'nolar chog'ishtirilayotlgan tillarda o'sha tilning mentalitetiga ko'ra tarjima qilinishini talab qiladi. Bundan tashqari madaniyatshunoslik elementlarini xuddi til elementlarini qiyoslaganday uch bosqichda qiyoslash mumkin: *shakl, ma'no va distributsiya*. Ammo mazkur ishimizda bularning barchasini bira to'la tahlil etishning imkoni bo'lmaydi, albatta. Bu masalalarning har biri kelajakda qilinajak yangi-yangi tadqiqotlarning mavzusi bo'lib xizmat qilsa, ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов В.А. Статьи по общему языкознанию, компаративистике, типологии. – Москва, 1986.
2. Skalička V. Tipologie a konfrontační lingvistika. – In: Československa rusistika, 1961.
3. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – Москва, 1996. – С. 510.
4. Т. ван Дейк. Дискурс и доминирование // Современный дискурс-анализ. – Москва, 1997. – С. 248–249.
5. Кашкин В.Б. Сопоставительная лингвистика. – Воронеж, 2017. – С. 11.
6. Turniyazova Sh. Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent, 2016. 36-bet.
7. Нильсен Е.А. Лексико-семантическое поле как элемент картины мира // Сб. ст. Studia Linguistica – 9. Когнитивно-прагматические и художественные функции языка. – СПб.: Тригон, 2000.
8. Гируцкий А.А. Белорусско-русский художественный билингвизм: типология и история, языковые процессы / Под ред. П.П.Шубы. – Минск: Изд-во Минск. ун-та, 1990.
9. F. de Saussure. Cours de linguistique generale. – Paris, 1931.

Parvina OMONOVA,
O'zJOKU doktoranti

ZAMONAVIY MEDIADA FAKT-CHEKING PLATFORMALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy media-makonda faktcheking platformalarining o'rni va ahamiyati bayon etilgan, O'zbekistonda ham shunday platformaga ehtiyojning katta ekaniga dalillar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *fakt-cheking, verifikatsiya, platforma, fakt-investigeyting, feyk xabarlar, dezinformatsiya.*

Annotation. *The article scrutinizes the role and importance of fact-checking platforms in the modern media space, and proves that there is a great need for such a platform in Uzbekistan.*

Key words: *fact-checking, verification, platform, fact-investigating, fake news, misinformation.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль и значимость платформ факт-чекинга в современном медиа пространстве и доказывает факт, что в Узбекистане существует большая потребность в такой платформе.*

Ключевые слова: *факт-чекинг, верификация, платформа, факт-инвестигейтинг, фейк, дезинформация.*

Bundan 10–15 yil oldin jurnalist deganda axborot bilan ishlash qonun qoidalaridan boxabar, har bir fakt uchun javobgarligi bo'ynida bo'lgan tahririyat xodimi (balki oliy ta'limning ham maxsus bo'limini tamomlagan shaxs) tushunilgan va axborot ishlab chiqaruvchi va tarqatuvchi birlamchi subyekt sifatida tan olingan. Biroq rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlarning hayot tarzimizning bir qismiga aylanishi, axborot iste'molida orttirgan turli odatlarimiz bu tushunchani o'zgartirib yubordi. Bugun hatto soha olimlari ijtimoiy tarmoqda subyektiv axborot manbalari – bloger, inflyuenserlarni ham jurnalist hisoblash yoki hisoblamaslik ustida bahslashmoqdalar. Mobil imkoniyatlar rivoji bilan esa pofessional jurnalistika maydonda yangi kuchli raqibga duch keldi, unga hatto "fuqaro jurnalistikasi" deb nom berildi. Jurnalistning maxsus tayyorlangan sifatli kadrlaridan ko'ra oddiy odamning telefonda voqea joyidan tasvirga tushurilgan "qo'lbola" kadrlari qimmatroq manbaa hisoblana boshladi. Axborot saytlari lentalaridan oldin "bloger", "inflyue - ser"lar sahifasi varaqlanadigan bo'ldi. Har bir odam axborot tarqatish subyektiga osonlikcha aylana olish sharoitida ekanmiz, axborot oqimining ko'lamini tasavvur qilish qiyin bo'lmaydi.

Bugun katta ko'lamdagi axborotni qayerdadir chop etilguniga qadar emas, balki minglab odamlar o'qib, axborotning ta'sir doirasiga tushib bo'lganidan keyingina tekshirish imkoniyatiga ega bo'lyapmiz. Shu tufayli ham axborot ustidagi amaliyotlar – tekshirish, manbasini aniqlash, verifikatsiyalashga ehtiyoj sohaning yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi. Endilikda fakt-cheking platformalar deganda ishonish va ishonmaslik orasida turgan, allaqachon tarqalib ulgurgan axborotga manba izlash va tasdiqlashga yordam beruvchi internetdagi axborot xizmatini tushunamiz.

O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risidagi" qonunda ham "axborotni muhofaza etish – axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari" haqida ham bayon qilinadi. Platforma qonunchilikdagi ushbu maqsad-vazifalarni ta'minlashda ham juda kerakli vosita bo'lib xizmat qiladi:

"Har qanday axborot, agar u bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo'lish axborot mulkdori, egasi, axborotdan foydalanuvchi va boshqa shaxsga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, muhofaza etilmog'i kerak.

Axborotni muhofaza etish:

– shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish;

– axborotning maxfiyligini ta'minlash, tarqalishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishining oldini olish;

– axborotning buzib talqin etilishi va soxtalashtirilishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi."[1]

Fakt-cheking platformalarining maqsad va vazifalari. Bunday platformalar jamiyatdagi tizginsiz axborot oqimiga o'ziga xos filt , axborot laboratoriyasi bo'lib xizmat qiladi. Platforma milliy segmentda tarqatilayotgan axborotlarni tekshirish va quyidagilarni bartaraf etish uchun xizmat qiladi:

• bugungi axboriy muhitga xos bo'lgan uyushtirilgan yoki nokompetentlik ortidan keladigan yolg'on, dezinformatsiya, manipulyatsiya, feyklar, propaganda, sun'iy xayplar;

• ijtimoiy tarmoqlar keltirib chiqarayotgan infollyutsiya (axboriy muhitning ifloslanishi)

• ijtimoiy ongni boshqarish qobiliyati ortib borayotgan subyektiv axborot manbalari (bloger, inflyuense , trendsetterlar, manipulyatorlar, trollar, prankerlar, "qora" marketologlar) ortidan keladigan faktlarning buzib talqin qilinishi, noxolislik, agressiya;

• dunyoda kuzatilayotgan tendentsiya – iste'molchining milliy OAVga, alaloqibat, davlatning ichki siyosatiga ishonchsizlik uyg'otish, axborot taqchilligini bartaraf qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Mediaekologiyani barqarorlashtirishga, ichki va tashqi axborot manbalari orqali jamiyatga o'tkazilayotgan ruhiy informatsion ta'sirni nazoratda saqlashga, fuqarolarda yolg'on axborotni identifikatsiyalash, infoetika, mediasavodxonlik, OAV va ijtimoiy

tarmoqlarda berilayotgan axborotlarni tanqidiy qabul qilish darajasini oshirish, haqqoniy ma'lumotlardan boxabarlik miqyosini kengaytirish, jurnalistlar va sohaning boshqa mutaxassislari media madaniyatini yuksaltirish, axborotni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Axborot asrida har qanday tashkilot yoki shaxs obro'sini tushurishi, iqtisodiga putur yetkazishi mumkin bo'lgan axborotlarni nazorat qilish, manipulyativ ta'sirini kamaytirishni ham nazarda tutadi.

Mamlakatning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvining kuchayishi global axborot maydonida o'z imidjini yaratishni talab qilmoqda. Platforma xorijdagi kuzatuvchilarga mamlakat haqidagi eng to'g'ri va xolis axborotni olishga va bu orqali uning imidjiga putur yetkazishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Platformaning ishlash mexanizmi:

Platforma axborot iste'molchisiga quyidagilarni taklif qiladi:

• Istalgan internet foydalanuvchisi saytdan, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasidan axborot olish maqsadida foydalanishi mumkin.

• Foydalanuvchi saytda ro'yxatdan o'tgandan so'ng o'zini qiziqtirgan faktlar to'g'riligini tekshirish, manbasini aniqlash, faktlarni verifikatsiyalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda platformaning mijozlar murojaati uchun mo'ljallangan qismiga oydinlik kiritmoqchi bo'lgan faktni va axborot manbasini ko'rsatadi. Savollarga ochiq va yopiq tarzda javob beriladi.

• Tahririyat Respublikadagi internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlarni doimiy kuzatuv ostiga oladi, yashin tezligida tarqovchi nomaqbul axborotga zudlik bilan oydinlik kiritadi, manbasini aniqlaydi, verifikatsiyalaydi va platformada maqola tarzida e'lon qiladi.

Bunday platformaning O'zbekiston uchun zarur va shartligini yurtimizda ro'y bergan favqulodda vaziyatlar ham yana bir karra isbotladi. Masalan, bundan bir necha yillar oldin Erondagi suvombordan toshib chiqayotgan tasvir Sardobadan deb ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqatilgan xabarlardan tortib, pandemiya sharoitida kasallanganlar haqida muntazam tarqab turgan feyk xabarlar, vahimalarni olamizmi, turli darajadagi jiddiy rasmiy bayonotlardagi nomaqbul axborotlarni olamizmi, bularni oddiy iste'molchi faktchek qilishga doim ham qodir emasligi tufayli, qolaversa, omma ongidagi feykka moyillik psixologiyasi, media savodxonlikning yetishmasligi bu xabarlarning keng tarqalishi va ijtimoiy ongga ta'sir qilishiga sabab bo'lmoqda. Ana shunday platformaning borligi pandemiya davrida telegramda tashkil etilgan maxsus kanalning, alaloqibat, har bir yuzaga keladigan favqulodda vaziyat uchun alohida kanallar tashkil etishga ehtiyoj tug'dirmaydi.

Dunyoda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni jihatdan eng katta ko'rsatkichga ega Feysbuk o'tkazgan tadqiqotga ko'ra, tarmoq foydalanuvchilarining 2-3%ni feyk akkaunt tashkil etadi[2], bu taxminan 60 million akkaunt degani. Bu raqamlarning o'zi ham axborot manbalarini tekshirish muhimligini ko'rsatadi. Qolaversa, so'nggi oylarda ijtimoiy tarmoqlarga ham fakt-cheking ahamiyatini to'liq tushungan holda, axborotlarni filtrlash instrumentlari bosqichma-bosqich o'rnatilyapti. Asosan ingliz va rus tillarida yo'lga qo'yilgan ushbu instrumentlar shubhali va manbasiz deb topilgan xabarlarni rad etadi. Masalan, 29-may kuni tvitter Prezident Donald Trampning xabarini "yolg'on" deb baholab, maxsus ogohlantiruvchi belgi qo'ydi[3]. Feysbuk ham pandemiyada yuzaga kelgan feyklar ustida maxsus amaliyotlar o'tkazdi. Biroq bu axborotning to'laqonli filtrlash imkonini bermaydi. Chunki asosiy vazifa – axborotning manbasini aniqlash va haqqoniyligini tasdiqlash bilan bog'liq bo'lib qolaveradi. Bunda esa axborotni tekshirishda barcha zaruriy bilimlardan, instrumentlardan foydalana olish malakasi talab etiladi.

Bunday axborot xizmati butun dunyoda, xususan, O'zbekistondan tashqari barcha Markaziy Osiyo mamlakatlarida mavjud. Qozog'istonda www.factcheck.kz, Tojikistonda www.factcheck.tj, Qirg'izistonda www.factcheck.kr, Turkmanistonda www.factcheck.tm axborot portallari faoliyati keng yo'lga qo'yilgan. Ularning barchasi faktcheking bo'yicha xalqaro tarmoq IFCN (International Fact-Checking Network) prinsiplari[4] asosida faoliyat yuritadi, jiddiy siyosiy bayonotlarda faktchekingdan tortib, kichik maishiy mavzulargacha tadqiq qilinadi.

O'zbekistonda bunday laboratoriyaning bo'lmasligi quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

– aholi orasida bora-bora OAVga nisbatan ishonchsizlikning paydo bo'lishi;

– ichki ijtimoiy-siyosiy holatning beqarorlashishi;

– subyektiv fikrga, tahlilga ruju qo'yish. Axborot ta'siriga tushish, beixtiyor manipulyatsiyalar qurboni bo'lish;

– nazorat qilib bo'lmas darajadagi infollyutsiyaning vujudga kelishi;

– mediasavodxonlik darajasining yomonlashib borishi;

– axborotning g'arazli kuchlar qo'lidagi qurolga aylanishi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bunday platformaning O'zbekiston uchun zarur va shartligini yurtimizda ro'y bergan qator favqulodda vaziyatlar ham yana bir karra isbotladi. Uning informatsion savodxonlikni o'stirishdagi roli va ahamiyati, jamiyatda axboriy balansni ushlab turishdagi ishtiroki sezilarli. Bu ahamiyat jamiyat axboriylashavergani sari ortib boraveradi. Platforma Axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining ham axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qismidagi barcha vazifalarni ado etadi.

---

[1]O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. 2002. 11-modda.
[2]https://www.businessinsider.com/facebook-raises-duplicate-fake-account-estimates-q3-earnings-2017-11
[3]https://www.bbc.com/news/technology-52846679
[4]https://ifcncodeofprinciples.poynter.org/

Nurjamol NORMATOVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

TALABALARDA XORIJIY TIL OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga xorijiy tillarni o'qitishda og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonidagi psixologik va lingvistik jihatlarni tahlil qilish, mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqilgan. Ishning yakuniy natijasi sifatida ushbu jarayonda dominant funksiyalarni bajaruvchi asosiy psixolingvistik omillar ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *og'zaki nutq, psixolingvistik omillar, gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalari, nofilologik yo'nalish, kommunikativlik.*

Annotation. *The article is intended to analyze the psychological and linguistic aspects of the process of developing oral speech competence in teaching foreign languages to students of non-philological education, to identify existing problems and shortcomings and to consider ways to overcome them. The main psycholinguistic factors that perform the dominant functions in this process are identified as the final result of the work.*

Key words: *spoken language, psycholinguistic factors, speaking and listening skills, non-philological direction, communicativeness.*

Аннотация. *Статья призвана проанализировать психологические и лингвистические аспекты процесса развития устной речевой компетенции при обучении иностранным языкам учащихся нефилологического образования, выявить существующие проблемы и недостатки и рассмотреть пути их преодоления. В качестве окончательного результата работы выделены основные психолингвистические факторы, которые выполняют доминирующие функции в этом процессе.*

Ключевые слова: устная речь, психолингвистические факторы, компетенции говорения и слушания, нефилологическое направление, коммуникативность.

Xorijiy tillarni o'qitish zamonaviy metodikasida, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, oliy ta'limda ham og'zaki nutqni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni davrda iqtisodiy-ijtimoiy, ta'lim va boshqa sohalardagi xalqaro aloqalarning tobora rivojlanib borayotganligi tayyorlanayotgan kadrlarda aynan og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi nechog'li dolzarb ekanligini izohlaydi. Oliy o'quv yurtlari nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining chet tildagi og'zaki nutqini rivojlantirish, muloqotning o'zaro ta'sirchanligini yaxshilash ushbu jarayondagi psixolingvistik omillarga jiddiy e'tibor qaratishni talab etmoqda. Ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, aynan psixolingvistik omillarga yetarlicha ahamiyat qaratmaslik talabalarning chet tilda erkin muloqot qilish malakasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, oqibatda boshqa til ko'nikmalarining ham talab darajasida rivojlanmasligiga olib keladi.

Og'zaki nutq – nutq faoliyatining bir turi bo'lib, tovushlar orqali yuzaga keluvchi va ushbu oqimni tushunish (tinglab tushinish) va unga javoban tovushlar yordamida o'z fikrlarini bayon qilish (gapirish)ni o'z ichiga oladi. Og'zaki nutq doimiy ravishda nutq vaziyati orqali yuzaga chiqadi. Xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish masalasi va uning psixolingvistik komponentlari taniqli jahon psixolog-tilshunos olimlari Galperin, Leontev, Bim, Shatskiy, Galskova, Vigotskiy, Davidova, Zankova, Artyomova, Jinkina va boshqalar tomonidan chuqur o'rganib chiqilgan. Shunday bo'lsa-da, ushbu jarayondagi xususiy jihatlar mavzu doirasida ko'proq izlanishlar olib borilishini taqozo etmoqda.

Xorijiy til og'zaki nutqini rivojlantirish uning asosiy tarkibiy qismlari bo'lmish gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Gapirish va tinglab tushinish ko'nikmalarining qiyosiy xarakteristikasi ular ichki nutqqa tayangan hamda prognozlash mexanizmiga asoslanadigan murakkab fikrlash faoliyati ekanligini isbotlaydi. Asosiy farq sifatida ularning tugash nuqtasini ko'rsatish mumkin: gapirish jarayonida ma'lumotlar shifrlansa, tinglab tushinish jarayonida esa ular qayta ochiladi. Uzatilayotgan xabarni kodlash jarayoni tilning fonetik tizimidan yaxshi foydalana olishni talab etadi. Uning negizida produktiv (talaffuz) yoki ifoda etish (ritmik-intonatsion) va leksik-grammatik ko'nikmalar yotadi.

O'z o'rnida, gapirish monolog, dialog hamda polilog nutq shakllari orqali amalga oshiriladi. Oliy ta'lim bosqichida monolog va dialog shakllaridan kompleks tizimda, ketma-ketlikda erkin muloqot o'rnatish asosi sifatida foydalaniladi. Ularning har biri psixologik va lingvistik xususiyatlarga ega bo'lib, rivojlantirish jarayonida materiallar tashkil qilinishi va ular bilan ishlash usullarida differensial yondashuvni taqozo etadi.

Ilmiy adabiyotlarda og'zaki nutq ifoda etilayotgan ma'lumot va axborot oqimi talabidan kelib chiqqan holda til belgilarining muayyan qoidalar asosida berilishi bo'lib, ruhiy-fiziologik artikulyatsion, ijtimoiy, madaniy faoliyatlar natijasi deb ta'rifl - nadi. N.D.Galskova va N.I.Gez xorijiy tildagi og'zaki nutqni rivojlantirishning mazmun-mohiyati quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak deb hisoblaydi: ta'lim yo'nalishi sohalariga mos ravishda tanlangan mavzular, kasbga yo'naltirilgan nutq faoliyati, nutq va til materiallari (fonetik, leksik, grammatik), uni tuzish qoidalari va ular bilan ishlash ko'nikmalari; muammoli vaziyatlarni muloqot vositasi sifatida yaratish, aqliy mehnatning interfaol usullari va b. [2:47]

A.A.Leontev jarayonning psixologik hamda pedagogik jihatlarini ko'rib chiqqan holda ushbu jarayon inson taraqqiyotining muhim omili ekanligi, unda til o'rganuvchining aqliy hamda shaxsiy rivojlanish shartini ta'kidlab o'tadi. Uning yozishicha, psixologiya nuqtayi nazaridan mashg'ulot o'qituvchi va talabalarning o'zaro faol ta'siri, o'zaro tenglik, erkin va hamda do'stona bir-birlarini to'ldirib turuvchi muhitni o'z ichiga olishi shart. [3:87].

Taniqli ingliz tilshunos olimi Z.Patil til o'rganish jarayoni asosini mehnatni rivojlantirish, o'rganuvchi va o'rgatuvchi tomonidan ta'lim jarayonini teng boshqarish va o'z ustida ishlash qobiliyatini shakllantirish; atrof-muhitdagi real voqea-hodisalarning mashg'ulotlarda aks etish imkoniyatlarini tashkil qilishini qayd etadi. [7:27] Mersier hamda Xiggins o'z tadqiqotlarida o'qituvchi e'tiborni nafaqat ta'limdagi lingvistik, balki til o'rganuvchining bilim va ko'nikmalari, tashqi ijtimoiy-psixologik komponentlar (muhit, shaxslararo munos-

abatlar, darsdan tashqari ta'lim komponentlari)ga qaratish lozimligini yoqlab chiqqanlar. [5:30]

Oliy ta'lim muassasalarining nofilologik yo'nalishlarida xorijiy tildagi og'zaki nutqni rivojlantirishning asosiy maqsadi talabalarning turli sotsial-determinant vaziyatlarda og'zaki muloqot ko'nikma va malakalarini amalda qo'llay olishi hamda ushbu jarayondagi motivatsiyani rivojlantirishdan iborat. Shu boisdan har qanday tildagi og'zaki nutq jarayoni va uning rivojlantirilishi psixolingvistika obyekti hisoblanadi. Tilshunoslikda u til mahsuli sifatida o'rganilsa, psixologiyada esa muayyan individga xos bo'lgan nutq jarayoni hisoblanadi.

Og'zaki nutq uni rivojlanturuvchi vaziyat va shart-sharoitlar: muloqotning maqsad va motivi, muloqot ishtirokchilarining o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy mavqeyi, yoshi, aqliy salohiyati, ekstrolingvistik va boshqa shu kabi aniq tarkibiy jihatlar bilan chambarchas bog'liq. Gapirish nutq faoliyati sifatida quyidagi parametrlar bilan xarakterlanadi:

Motiv – gapirish yoki so'zlashishga bo'lgan ehtiyoj;

Funksiya – tinglovchiga ta'sir o'tkazish xarakteri; o'z fikrl - rini ifoda etish usullari;

Predmet – o'zining yoki o'zganing fikri

Tuzilish – faoliyat va harakat mahsuli;

Mexanizmlar – fikrlash, anglash, ilhomlanish, qo'shish-aralashtirish;

Vosita – til va nutq materiallari;

Mahsul (natijasi) – monologik bayonot; dialogik nutq turlari;

Yuzaga chiqish shartlari – nutqiy vaziyat, tayanchning mavjudligi yoki yo'qligi.

Yuqoridagilarni chuqurroq anglash uchun og'zaki nutqning tashqi tuzilishini ko'rib chiqish lozim. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) Motivatsion (uyg'otuvchi) qism – og'zaki nutq bayonida nima uchun (zarurat), nega (motiv) va nima (maqsad) kerakligini o'zida aks ettiradi.

b) Analitik-sintaktik qism – og'zaki nutq maqsadini yuzaga chiqarishga tayyorgarlik bosqichi. O'rganilayotgan chet tilda muloqotga kirishish uchun talaba o'z xotirasida saqlanib qolgan so'zlarni tanlay bilishi (analiz) hamda ular orqali o'z fikr-bayonlarini ifoda etish (sin ez)da foydalana olishi lozim.

d) Nazorat qiluvchi-bajaruvchi qism – og'zaki bayonotning tashqi ko'rinishini tartibga keltirish va nazorat qilish jarayoni. Uning vazifasi yo'l qo'yilgan xatolar haqida xabar berish va ularni to'g'rilashdan iborat. U til ustida muntazam ishlash, aynan og'zaki nutqdan muntazam foydalanish amaliyoti jarayonida yuzaga keluvchi "etalon" sifatida xizmat qiladi.

Har qanday og'zaki muloqot jarayoni ma'lum bir motivga intilish, istak va qiziqishlarni ro'yobga chiqarishga qaratiladi. Demak, oliy ta'lim bosqichida talaba nega muloqot qilayotganini tushunishi va uni ongli ravishda amalga oshirishi kerak. Ya'ni, ulardagi asosiy psixologik omil – bu ushbu xorijiy tilda so'zlashishdan natija bo'lishi sharti. Mashhur psixolog A.A.Leontev motivdan so'ng, so'zlovchida ichki nutq fazasi yuzaga keladi, deb yozadi. [3:85] Shundan so'ng motivni amalga oshirish, ya'ni tashqi nutq fazasiga yetib kelinadi: "ichki nutq – bu so'zlarning fikrlarga aylanish jarayoni, tashqi nutq esa, aksincha, fikrlarning so'zga almashinuvidir" [3:86]

Tabiiy muloqot so'zlovchilarda gapirish uchun zarurat hosil bo'lganda, vaziyat yoki holat ushbu jarayonni yuzaga keltirgandagina paydo bo'ladi. Oliy o'quv yurti xorijiy til o'quv mashg'ulotlarida esa motiv vaziyat shartiga ko'ra emas, ko'pincha, o'qituvchining buyrug'i ostida hosil bo'ladi. Natijada faqat shakl jihatidan mavjud bo'lgan "fiktiv nutq" yuzaga keladi. Xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik omillariga tilda muloqot qilishning maqsadlari, ichki motivatsiyaning mavjudligi, darsda mutanosib muhitning yaratilishi, autentik muloqot vaziyatlarini yaratib bera olish kabilar kiradi. Psixologiyada shaxsning subyektiv xususiyatlari: uning tabiatni (atrof-muhitni) o'zgartirishga bo'lgan faol harakatlari, bu faoliyatni aniqlaydigan qiziqish va ehtiyojlari, mo'ljallangan natijalarga erishish yo'llari, ularning amaliy ahamiyati va ko'lami chet tilni egallashda asosiy ko'rsatkich bo'lishi mumkin.

Jarayondagi asosiy psixologik omillar quyidagilarni tashkil etadi:

– *oliy ta'limda xorijiy tildagi og'zaki nutqni rivojlantirishning ta'lim maqsadlari*, umumiy talablar majmuyi, ta'lim usullari va vositalari, talabalarning bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish barobarida ularda kasbiy va shaxsiy fazilatlarni ham uyg'unlikda rivojlantirishga qaratilgan o'quv jarayonini tashkillashtirish;

– *talabani doimiy o'z ustida ishlash*, bilim-ko'nikmalarni mustaqil rivojlantirish, ijtimoiy harakatchanlikka intiluvchi malakali mutaxassis sifatida tayyorlash;

– *shaxs sifaida individual yondashuv*, har bir talabaning ijtimoiy maqsadlari, tabiati va qobiliyatlarini inobatga olish, mashg'ulotlarda ularda yuqori darajadagi motivatsiya va faollikni oshirish kontekstida o'qitish;

– *talabalarda xorijiy tildagi og'zaki nutqning tayyorgarliksiz* amalga oshirilishini bosqichma-bosqich murakkablashtirish, kundalik turmush tarzida xorijiy tildan uzluksiz foydalanishni ta'minlash, muloqot uchun autentik mavzularga asoslanish;

– *mashg'ulotlarda xorijiy til muhitini yaratish:* dars davomida talaba-talaba va talaba-o'qituvchi orasida erkin va do'stona, o'zaro tenglik muhitini yaratish;

– *oliy ta'limda xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy va psixolingvistik yondashuvlarni uyg'unlashtirish*: tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniyati, urf-odatlari va an'analari, milliy mentalitetining o'ziga hos xususiyatlari, tarixini o'rganish va ularni hurmat qilish asosida o'zlashtirish;

